

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

“Korporativ bosqaruv” kafedrası

Berdieva Adolat To‘xtaho‘jayevna

“**BANK ISHI**” fanidan leksiyalar kursi

(paxta , to‘qimachilik va yengil sanoat) ta‘lim
yo‘nalishlaridagi talabalari uchun

Toshkent-2017

ANNOTASTIYA

“**BANK ISHI**” fanidan leksiyalar kursi bankirlarga va bank ishiga qiziquvchilarga mutaxassislik bo‘yicha bilim berishga, jumladan, banklar faoliyatini tashkil qilish va olib borish, banklarning turli bozor subyektlari bilan munosabatlarini va umuman bank ishini tashkil etish asoslarini o‘rgatishga mo‘ljallangan.

Leksiyalar kursi 5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat) ta’lim yo‘nalishlaridagi 3-kurs bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchi: “Korporativ boshqaruv” kafedrasida assistenti Berdieva A. T.

Taqrizchilar: Bank – moliya akademiyasi “*Bank ishi*” kafedrasida mudiri i.f.n. dotsent Berdiyev B.T.

T.T.Ye.S.I “Korporativ boshqaruv” kafedrasida dotsenti Majidov A.A.

T.T.Ye.S.I. Uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Bayonnoma № _____ “ ____ ” _____ 2017 yil.

T.T.Ye.S.I. nashiriyotida “ ____ ” nusxada ko‘paytirilgan.

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida banklarda bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tadbiq qilish, mijozlarning talab va takliflarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy etish, yangi kredit vositalarini qo'llash, turli kredit institutlarini tashkil etish bilan bog'liq jarayonlarini yuzaga keltirdi. O'z navbatida, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning tutgan o'rnini hamda ahamiyatining muhimligi, bank tizimini takomillashib borishi ushbu sohada yuqori malakali xodimlarni tayyorlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, bu fanning maqsadi va vazifalari talabalarni bank tizimida mustaqil tayyorlashdan iborat. Shuningdek, quyilgan masala echimining asosiy talabalarni faqatgina bank operatsiyalarini o'tkazishning texnik tomoni bilan tanishtirish bo'lib qolmasdan, balki ularni kredit hisob – kitoblar mexanizmini bozor iqtisodiyoti qonun – qoidalariga asoslangan holda olib borishni o'rgatishga qaratilgan. Bular bo'lajak xodimlarning bankning aktiv va passiv operatsiyalarini amalga oshirishda, amaliyotdagi mavjud kamchiliklarning bartaraf etish yo'llarini o'ylab topish, hamda bank ishini takomillashtirishga qarata faoliyat olib borishga asos yaratadi.

«Bank ishi» fani buxgalter bakalavrlar uchun mutaxassis fan sifatida juda ham kerakli fan. Chunki bank ishining aniq masalalari, bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditni rivojlantirish qonuniyatlari, kreditning asosiy tamoyillari asosida xo'jalik subektlarini kreditlash, kredit resurslari va kreditlarni boshqarish asoslari, banklarning foiz siyosati va risklari kabi masalalar ko'rib chiqiladi. «Bank ishi» institutda o'rganiladigan boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liq.

Talabalar o'qish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalangan holda ba'zi tijorat banklar faoliyatida qo'llaniladigan mijozlarni kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish, xo'jalik subektlari o'rtasida hisob – kitoblarni olib borish bilan bog'liq kompyuter dasturlari bilan tanishadilar. Korxonalarda bank ishi fanidan olgan bilimlarini buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilishda, nazorat tizimini to'g'ri olib borilishida mustahkam asos sifatida ishlatadilar.

MAVZU: “BANK ISHI” FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

Reja:

- 1.1. Banklarning kelib chiqishi va mohiyati
- 1.2. Banklarning funksiyalari
- 1.3. Kredit tizimi, uning tarkibiy qismlari
- 1.4. Markaziy bank, ularning vazifalari va funksiyasi

1.1. Banklarning kelib chiqishi va mohiyati

“Bank” deb pul mablag`larini yig`uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytiladi.

Banklar paydo bo`lishining asosi bo`lib tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovar-pul munosabatlarining bo`lishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda banklarning ham bo`lishini taqozo qiladi.

Banklar o`rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat, shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o`z bo`sh turgan mablag`laridan foyda olish maqsadida, ularni vaqtincha foydalanishga mablag` zarur bo`lgan sub`ektlarga ssudalar berishgan. Bu hol pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan.

“Bank” so`zi ital`yancha “banca” so`zidan olingan bo`lib, “stol”, aniqrog`i “pullik stol” degan ma`noni anglatadi. O`rta asrlarda italiyalik puldorlar hamyonlaridagi, idishlardagi monetalarni stol ustiga qo`yib hisob-kitob qilganlar.

XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilarni “bancherii” deb atashgan. Agar puldorlardan birortasi ishonchni oqlamasa va o`z ishiga ma`suliyatsizlik qilsa, u o`tirgan stolni sindirib tashlashgan va uni “Banco rotto”, ya`ni “bankrot” deb atashgan. Bizga ma`lum bo`lgan “bankrot” so`zi ham ital`yancha “banca” so`zidan olingan.

1.2. Banklarning funksiyalari

Banklar bajaradigan funksiyalar ularning bajaradigan vazifalariga qarab turli xil bo`lishi mumkin. Bu mavzuda biz banklarga taalluqli bo`lgan umumiy funksiyalar to`g`risida gapirib o`tmoqchimiz. Keyingi mavzularda biz alohida-alohida olingan holda birinchi va ikkinchi zveno banklarining funksiyalari to`g`risida fikr yuritamiz. Shunday qilib, bank tizimi miqyosida olib qaraydigan bo`lsak, banklar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- vaqtincha bo`sh turgan mablag`larni yig`ish va kapitalga aylantirish;
- kredit munosabatlarida vositachilik qilish;
- to`lov jarayonlarida vositachilik qilish;
- muomalaga kredit vositalarini chiqarish.

Xalq xo'jaligidagi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish - banklarning ilk funktsiyalaridan biri hisoblanadi. Bu funktsiyaning amalga oshirilishi natijasida bir tomondan, huquqiy va jismoniy shaxslar jalb qilingan mablag'lari bo'yicha ma'lum miqdorda daromadga ega bo'ladilar, ikkinchi tomondan bu mablag'lar banklarning kreditlash qudratini tashkil qiladi va shu resurslarga asoslangan holda banklar ssuda operatsiyalarini olib boradi. Vaqtincha bo'sh pul mablag'lar banklar ishtirokisiz bir korxonaga (tarmoq) tomonidan ikkinchi korxonaga (tarmoq)ga vaqtincha foydalanishga beriladigan bo'lsa, bu munosabatlarni tashkil qilishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin:

birinchidan, kreditga so'ralayotgan summa bilan kreditga berilishi mumkin bo'lgan summa o'rtasida nomutanosiblik bo'lishi mumkin;

ikkinchidan, ortiqcha bo'sh mablag'ga ega bo'lgan korxonaning mablag'larni vaqtincha foydalanishga beradigan muddati mablag' zarur bo'lgan korxonani qoniqtirmasligi mumkin;

uchinchidan, banklar ishtirokisiz korxonalarni to'g'ridan-to'g'ri kreditlashda qarz beruvchi qarz oluvchi korxonaning moliyaviy ahvolini to'liq o'rgana olmasligi mumkin.

Qarz oluvchining to'lovga layoqatsiz bo'lishi, kreditor korxonaning ham moliyaviy ahvolidan yomonlashuviga va boshqa salbiy hollarga olib kelishi mumkin.

Xalq xo'jaligidagi barcha bo'sh mablag'larning bank tomonidan yig'ilishi natijasida vujudga keladigan kredit resurslar hisobidan qarz oluvchi korxonaga zarur bo'lgan summada, zarur bo'lgan muddatda kredit berishga imkoniyat yaratiladi. Undan tashqari, bank korxonalarining to'lovga layoqatliligini har tomonlama tahlil qilishi, ularning moliyaviy ahvolini yaqqolroq baholab bera olishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanishining o'sishi, bank kreditining qo'llanilish ko'lamini kengaytirib boradi.

Kredit faqatgina har kunlik faoliyat bilan bog'liq ishlab chiqarish va muomala jarayonining qisqa muddatli ehtiyojlari uchun emas, balki uzoq muddatga kapitalga bo'lgan ehtiyojni qoplashga yo'naltiriladi. 60-yillardan boshlab banklar yirik mijozlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslasha bordi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun banklar mablag'larni jalb qilish miqyosini, iste'mol uchun kreditlar berish ko'lamini kengaytirdi. To'lovlarda vositachilik funktsiyasida banklar o'z mijozlarining topshirig'iga asosan to'lov jarayonlarini amalga oshiradi, hisobvaraqlariga mablag'larni qabul qiladi, pul tushumlarining hisobini olib boradi, mijozlarga pul mablag'larini beradi. Hisob-kitoblarning bank orqali olib borilishi muomala xarajatlarining kamayishiga olib keladi. Mijoz mamlakat ichida va boshqa mamlakat bilan qiyinchiliksiz o'z mablag'larini bank orqali o'z hisobvaraqasidan boshqa korxonaga hisobvaraqasiga yoki boshqa mamlakat bankiga o'tkazishi mumkin.

Muomalaga kredit vositalarini chiqarish. Bank kreditining manbai faqat vaqtincha bo'sh mablag'lar va kapital bo'lib qolmasdan, kredit asosida chek-depozit emissiyasi ham amalga oshiriladi. Bank tomonidan beriladigan kredit miqdori mavjud jamg'armalardan ko'p bo'lsa, bank chek-depozit emissiyasini amalga oshirishi

mumkin. Undan tashqari, kredit yordamida muomalaga naqd pullar - banknotalar chiqariladi.

Bank kredit pullar chiqarish depozitlar yaratish yo`li bilan to`laqonli pullar o`rnini bosuvchi kredit vositalarini vujudga keltiradi.

1.3. Kredit tizimi, uning tarkibiy qismlari

“Kredit tizimi” deb kredit munosabatlar majmuasi va kredit munosabatlarni tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kredit institutlar yig`indisiga aytiladi. Kredit tizimi orqali huquqiy va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo`sh mablag`lari yig`iladi va korxonaga, tashkilotlarga, aholiga, davlatga vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit tizimi bir necha bo`g`inlardan iborat bo`lishi mumkin. Mablag`larni jalb qilishi va taqsimlanishiga qarab kredit tizimi bo`g`inlari o`z xususiyatlariga ega bo`ladi. Jahon amaliyotida kredit tizimi o`zining tashkil qilinish turiga qarab quyidagi guruhlariga bo`linadi.

- markaziy bank;
- tijorat banklar;
- maxsus-kredit institutlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki pog`onali kredit-bank tizimi ko`p mamlakatlar iqtisodining asosi hisoblanadi. Bular Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir.

Bank institutlariga quyidagi banklar kiradi:

- tijorat banklari;
- investitsiya banklari;
- jamg`armalar jalb qiluvchi banklar (O`zbekistonda Xalq banki);
- ipoteka banki;
- savdo banklari;
- tashqi iqtisodiy aloqalar bo`yicha banklar
- tarmoqlar bo`yicha ixtisoslashgan banklar va boshqalar.
- Nobank kredit tashkilotlarga:
- investitsiya kompaniyalari;
- sug`urta kompaniyalari;
- nafaqa va boshqa fondlar kiradi.

Kredit tizimida asosiy o`rinni bank institutlari, bank institutlari tarkibida salmoqli o`rinni tijorat banklari egallaydi. Tijorat banklari kredit tizimining boshqa bo`g`inlariga nisbatan ko`proq bo`sh resurslarni jalb qiladi va ko`p miqdorda mijozlarga kreditlar beradi. Maxsus ixtisoslashgan kredit institutlari (banklar) tijorat banklari faoliyatini to`ldiradi va ular xalq xo`jaligining kam rentabellik, kam foydali tarmoqlariga (qishloq xo`jaligi, uy-joy qurilishi, tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar) engil sharoitda kreditlar berish yo`li bilan ularning faoliyatini

rag`batlantirib, rivojlantirib boradi. Banklar ma`lum belgilariga qarab quyidagi turlarga bo`linadi:

mulk shakliga qarab:

aksiyador, noaksiyador, kooperativ, kommunal, davlat, aralash, xalqaro banklarga; kredit beruvchi banklarga; milliy mavqei bo`yicha: milliy va xorijiy banklarga; faoliyat ko`rsatishi va bajaradigan funktsiyalariga qarab: depozit, universal, ixtisoslashgan banklarga bo`linadi.

Aksiyador banklar aksiyador kompaniyalar sifatida yuzaga kelgan banklar bo`lib aksiyalar chiqarish hisobidan ular kapitalining asosiy qismi yuzaga keladi. Ko`pgina rivojlangan mamlakatlarda bank tizimining asosiy qismini aksiyador banklar tashkil qiladi.

Noaksiyador banklar paychilar mablag`lari hisobidan tashkil qilingan banklar bo`lib, ular bir yoki bir necha shaxs ixtiyorida bo`lishi mumkin.

Mayda ishlab chiqaruvchilar, hunarmandlarning faoliyatini qo`llab-quvvatlash maqsadida kooperativ banklar tashkil qilinadi. Bu banklarning mablag`lari ishtirokchilarning mablag`lari hisobidan vujudga keltiriladi va mijozlarga ularning faoliyatini rivojlantirish uchun engil sharoitda kredit beriladi. Kommunal banklar ixtisoslashgan kredit tashkilotlar bo`lib, kommunal xo`jalik va uy-joy qurilishini kreditlash va moliyalashtirish bilan shug`ullanadi.

Davlat banklari davlat ixtiyorida bo`lgan kredit muassasa bo`lib, o`zining birinchi kurtaklari qadimiy Rimda, Misrda, keyinchalik XVI-XVII asrlarda evropada vujudga kelgan. Davlat banklarining quyidagi turlari: markaziy, tijorat banklari va maxsus kredit institutlar amaliyotda bo`lishi mumkin.

Aralash banklar kapitali davlat tomonidan va bir qismi xususiy kapital tomonidan vujudga keltiriladi. Xalqaro banklar xalqaro pul, hisob va kredit munosabatlarini olib boruvchi bank bo`lib davlatlar o`rtasida valyuta, kredit va moliya munosabatlarini boshqarib boradi. Yirik xalqaro banklar qatoriga evropa rivojlanish va taraqqiyot bankini, Xalqaro valyuta fondini, Xalqaro Moliya korporatsiyasini, Xalqaro hisob-kitoblar bankini, evropa investitsiya bankini va boshqalarni kiritish mumkin. Xorijiy banklar to`liq yoki qisman chet el investorlariga tegishli bo`lgan banklar bo`lib, ular o`z faoliyatini mahalliy qonunlar doirasida olib boradi. Hozirgi vaqtda bunday banklar yirik banklarning shu`balari sifatida faoliyat ko`rsatadi. Ba`zi davlatlarda mavjud depozit banklar jalb qilingan depozitlar hisobidan hisob, kredit, ishonch operatsiyalarini olib boradi. Depozit banklar, asosan, aholi jamg`armalarini jalb qilish va joylashtirish bilan shug`ullanadi. Universal banklar turli xil bank operatsiyalari: depozit, kredit, hisob, foiz, vositachilik va boshqa operatsiyalarni bajaruvchi bank hisoblanadi. Germaniya, Shveytsariya, Avstriya kabi mamlakatlarning tijorat banklari universal banklar hisoblanadi. Ixtisoslashgan banklar xalq ho`jaligining ma`lum sohalariga xizmat ko`rsatuvchi, aholiga xizmat ko`rsatuvchi banklardir. Ixtisoslashtirilgan banklarning turlari sifatida investitsiya, jamg`arma, rivojlanish va taraqqiyot banklarini keltirish mumkin. Uzbekiston Respublikasi bank tizimini qaytadan tashkil etish 1987 yilda boshlandi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy to`zilmasini o`zgartirish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimning rivojlanishiga ularning ta`sirini kuchaytirish, kreditni harakatdagi iqtisodiy

dastakchaga aylantirish ko`zda tutilgandi. Qayta tashkil etish jarayoninig birinchi bosqichida davlat banklarining yangi to`zilmasini tashkil etish boshlandi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: Markaziy emission bank va bevosita xo`jaliklarga xizmat ko`rsatuvchi ixtisoslashgan davlat banklari;
- ixtisoslashtirilgan banklarni to`lalgicha xo`jalik hisobiga va o`z-o`zini moliyalashga o`tkazish;
- iqtisodiy tizim doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo`ladigan kredit munosabatlari

uslublari va shakllarini takomillashtirish. Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o`zining kredit tizimidagi markaziy o`rnini saqlab qolgan holda korxonalar va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisobkitoblarni olib borish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshirdi. Ya`ni bankning emission faoliyatini bilan kreditlash faoliyati birga olib borish funksiyasiga chek qo`yiladi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul kredit siyosatini olib boruvchi muassasaga aylandi. Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: sanoat qurilishi banki, kommunal qurilish va sotsial taraqqiyot banki, Agrosanoat banki, Milliy bank, Jamg`arma banki xo`jaliklar bilan banklar o`rtasidagi aloqalari tobora yaqinlashtirildi. Ixtisoslashtirilgan davlat banklari o`zlarida ma`lum darajada boshqaruvchilik rolini saqlab qoldilar. Bank tizimini takomillashtirish jarayonida juda muhim natijalarga erishildi, lekin tashkil qilingan banklar iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlarini to`liq ifoda qilolmasdi. Shuning uchun ham bank tizimini takomillashtirishning 2-bosqichi ob`ektiv zaruriyatga aylandi. 1988 yildan boshlab, ikki bosqichli bank tizimi tashkil etila boshlandi. Lekin bu davrda, birinchidan, markazlashgan rejalashtirishda Markaziy bankning roli hali ham yuqori edi, ikkinchidan, sohalar deyarli hamma qismi bilan davlat tasarrufida edi. O`zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimini tashkil etishga real asos 1991 yil 15 fevralda "Banklar va bank faoliyati to`g`risidagi" qonuni hisoblanadi. Bu qonunga binoan davlat boshqaruv organlari respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmasliklari kerak. U faqat Respublika Oliy Majlisiga hisobot beradi. Bu qonunni amalga tadbiiq etish, asosan, Respublikamiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritgandan so`ng boshlandi. Tijorat banklarining soni tobora oshib bordi. O`zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o`tishning bosqichma-bosqich yo`lini tanlaganligi bois, 1-bosqichdagi kredit-pul siyosati sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat qilib qo`yildi:

- Markaziy bank hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar boshchiligida ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish, respublika hududida yirik chet el banklarining bo`limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratish;
- barqaror pul muomalasini ta`minlash;
- kredit va naqd pul massasining asossiz o`shishini keskin cheklash;

- O'zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy

shart-sharoitlari hamda imkoniyatlarni yaratish.

Birinchi bosqichda belgilangan vazifalarni bajarilishiga jadal kirishilishi respublika bank tizimining zamonaviylashgan ko'rinishini olishiga olib keldi. Hozirda respublikada keng tarmoqli banklar zamonaviy talablarga javob beradigan holda xo'jaliklar, tashkilotlar, aholiga xizmat ko'rsatmoqda.

1.4. Markaziy bank, ularning vazifalari va funksiyasi

Markaziy bank-pul-kredit siyosatini emissiya jarayonlarini olib boruvchi, kredittizimining bosh banki hisoblanadi. Bozor iqtisodi sharoitida Markaziy bankning asosiy maqsadi - pul-kredit tizimi va valyuta barqarorligini ta'minlash asosida iqtisodiy o'sishga erishishdan iborat. Hozirgi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun asosida faoliyat ko'rsatmoqda. Markaziy bank huquqiy shaxs sifatida davlat mulkiga asoslangan bo'lib, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa sifatida xarajatlarni o'z daromadlari hisobidan qoplashi kerak. O'zbekistonda zamonaviy bank tizimi 2 bosqichli usulda tashkil etilgan: Markaziy bank va tijorat banklari. Markaziy bank keng tarmoqli tijorat banklari o'rtasidagi sog'lom raqobat kurashidagi nazoratchi vazifasini bajaradi.

Respublika Markaziy banki o'z miqyosi va faoliyat doirasiga ko'ra respublikamizdagi eng yirik bank hisoblanadi. Markaziy bankning asosiy maqsadi, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat va monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirishdan iborat.

Markaziy bankning asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyotni pul-kredit richagi yordamida boshqarish.
2. Hisob-kitob va pul o'tkazish operatsiyalarini bajarishni yo'lga qo'yish.
3. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish.
4. Boshqa kredit muassasalari kassa zaxiralarini saqlash.
5. Rasmiy oltin - valyuta zaxiralarini saqlash.
6. Hukumat uchun hisob-kitob va kredit operatsiyalarini bajarish.
7. Tijorat banklariga kredit berish.
8. Pul emissiyasi.

Markaziy bank - o'z sarf xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir. Markaziy bankning mol-mulki uning pul va boshqa moddiy boyliklaridan iborat bo'lib, ularning qiymati Markaziy bank balansida aks ettiriladi. O'zbekiston Markaziy banki yuqoridagi vazifalariga qo'shimcha ravishda quyidagi vazifalarni ham bajaradi:

Monetar siyosatni va valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, samarali hisob-kitob tizimini tashkil etish va ta'minlash, banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, oltin va valyuta zaxiralarini saqlash va boshqarish, davlat byudjetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iborat. Markaziy bank moliyaviy yordam ko'rsatish va tijorat faoliyati bilan

shug`ullanmaydi. Respublika Markaziy bankining ustav kapitali 2 mlrd. so`m deb belgilangan. Shuningdek, Markaziy bank soliqlar va bojlardan ozoddir. Markaziy bank kelgusi yil uchun O`zbekiston Respublikasi monetar siyosatining asosiy yo`nalishlarini ishlab chiqadi va har yili keying moliya yili boshlanishidan 30 kun oldin Oliy Majlisga bu haqida axborot beradi.

Markaziy bank pul-kredit, moliya, valyuta va narx munosabatlarining ahvoliga asoslanib muomaladagi pul massasining bitta yoki bir qancha ko`rsatkichlari o`zgarishining aniq mo`ljallarini belgilash mumkin. Shuningdek, o`z hisob va kredit operatsiyalari bo`yicha stavkalarni mustaqil ravishda belgilaydi. Markaziy bank O`zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to`lov vositasida banknotalar va tanga ko`rinishida pul belgilarini muomalaga chiqaradi. Markaziy bank va u vakolat bergan banklar talabga ko`ra, bir nominal qiymatdagi banknota va tangalarni boshqasiga hech qanday to`lovsiz yoki vositachilik haqisiz almashtirib beradi. Naqd pul mablag`larini muomalaga chiqarish va qaytarib olishni faqat Markaziy bank amalga oshiradi. Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organidir. Shuning bilan birga Markaziy bank yuridik va jismoniy shaxslarga chet el valyutasida operatsiyalar o`tkazishga litsenziyalar beradi va milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash tartibini belgilaydi.

Markaziy bank O`zbekiston Respublikasi hukumatining bankiri, maslahatchisi va xazina vakili sifatida ish tutadi. Markaziy bank banklarni ro`yxatga oladi va ularga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar beradi.

Markaziy bank boshqa banklar bilan o`zaro munosabatga kirishadi. Bunda Markaziy bank va boshqa banklar bir-birlarining majburiyatlari bo`yicha javobgar emas, ular shunday javobgarlikni o`z zimmasiga o`zlari olgan hollar bundan mustasno. Markaziy bank hukumat muassasalari va tashkilotlari, xazina, mahalliy, hukumat organlari hisoblarini yurgizadi, davlat qimmatli qog`ozlari yuzasidan operatsiyalarni bajaradi, xukumat organi topshirig`i bilan oltin va chet el valyutasi operatsiyalarni o`tkazadi. Markaziy bank respublika Moliya vazirligi bilan hamkorlikda respublikada pul-kredit siyosatini olib borish, islohotlar o`tkazish va amalga oshirish ishlarini bajaradi.

Qisqa xulosalar

Markaziy bank O`zbekiston Respublikasi hukumatining bankiri, maslahatchisi va xazina vakili sifatida ish tutadi. Markaziy bank banklarni ro`yxatga oladi va ularga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar beradi.

Markaziy bank boshqa banklar bilan o`zaro munosabatga kirishadi. Bunda Markaziy bank va boshqa banklar bir-birlarining majburiyatlari bo`yicha javobgar emas, ular shunday javobgarlikni o`z zimmasiga o`zlari olgan hollar bundan mustasno. Markaziy bank hukumat muassasalari va tashkilotlari, xazina, mahalliy, hukumat organlari hisoblarini yurgizadi, davlat qimmatli qog`ozlari yuzasidan operatsiyalarni bajaradi, xukumat organi topshirig`i bilan oltin va chet el valyutasi operatsiyalarni o`tkazadi. Markaziy bank respublika Moliya vazirligi bilan hamkorlikda respublikada pul-kredit siyosatini olib borish, islohotlar o`tkazish va amalga oshirish ishlarini bajaradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Banklarning kelib chiqish tarixini izohlang
2. Banklarning funksiyalarini sanang
3. Bozor iqtisodiyotida kreditning ijtimoiy funksiyalari xususiyatini
4. Markaziy bank funksiyasi
5. Bank aksioner tashkiloti sifatida
6. Bank tizimi nima?

Adabiyotlar ro`yxati

1. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. - T.: 1998, 1999.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Šarori. Bank tizimini isloh qilish chora tadbirlari tug`risida. T.: 1999 yil 15 yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tug`risidagi Qonuni. - T.: Sharq, 1997. - 47 b.
4. Banklar va bank faoliyati tug`risida. Uzbekiston Respublikasining Qonuni. - T.:Sharq, 1997. 48b.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Bank tizimini erkinlashtirish buyicha 21 mart 2000 yil karori.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qoidalari" yuriqnomasi. № 10. 1997 yil 22 fevral.
7. Aktsiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari tug`risida. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Farmoni. 1998 yil 2 oktyabr.
8. Analiz ekonomicheskoy deyatel`nosti klientov banka. Pod. Rek. Lavrushina O.I. - M.: Infra-M, 1995. - 152 s.
9. Bankovskoe delo. Uchebnik. Pod. Rek. Gavrushina O.I. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 576s.
10. Bankovskie operatsii I, II, III chast`, pod. red . Gavrushina O.I. - M.: Infra-M, 1995. 301 s.
11. Banki i bankovskie operatsii pod. Red. Jukova e.F. - M.: YuNITI, 1997. - 387 s.

MAVZU: BANK TIZIMI VA BANK TURLARI

Reja:

- 2.1. Bank tizimi. Bank turiari ularning funksional yo'nalishi bo'yicha klassifikatsiyasi
- 2.2. Davlatni pul-kredit siyosati va banklarni amalga oshirishdagi roli
- 2.3. Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatini tartibga solishdagi o'rni
- 2.4. Bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish muammolari

2.1. Bank tizimi. Bank turiari ularning funksional yo'nalishi bo'yicha klassifikatsiyasi

Agar mamlakatda yetarli darajada bank faoliyatini ko'rsatayotgan banklar, kredit tashkilotlar hamda iqtisodiy tashkilotlar mavjud bo'lsa u holda bank tizimi mavjudligi to'g'risida gap yuritsa bo'ladi. Ushbu sharoitda banklar va kredit tashkilotlari turli shakllarida hamda doimo o'z mijozlari- iqtisodiyot subektlari. Markaziy bank, boshqa organlar, davlat hokimiyatlari va davlat boshqaiv organlari. o'zaro yoki yordamchi tashkilotlar bilan muloqotda (munosabatda) bo'lib turadilar. Bank tizimi - tashkiliy tuzilma sifatida yirik tizim bo'lib mamlakatning iqtisodiy tizimiga kiradi. Bu shuni bildiradiki, banklarning faoliyati va rivojlanishini moddiy va nomoddiy nematlarni ishlab chiqarish, muomala va istemol qilish bilan bog'liq holda ko'rib chiqish zarurdir. O'zining amaliy faoliyatida banklar xujalik hayotini tartibga solish mexanizmi bilan o'zviy ravishda bog'liq. Shu bilan birga banklar soliq tizimi, baho tizimi, baho va daromad siyosati, tashqi faoliyat iqtisodiy faoliyat shartlari bilan o'zviy aloqada bo'lishlari shartdir. Bu shunday darak beradiki mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ko'p hollarda bank tizimi faoliyatiga boshqa ijtimoiy - xo'jalik mexanizmi bilan aloqadorligidagi harakatiga bog'liqdir. Bank tizimi mamlakat hududida tarixan shakllangan va mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko'rsatish shaklidir. Xuddi pul va moliya tizimi kabi bank tizimi o'ziga hos milliy belgilariga egadir. Shu belgilar shu hududning. Geografik shartlari ob-havo aholi milliy tuzilishi, ularni nima bilan mashg'ulligi. Qo'shnilar bilan munosabati, savdo yo'llari va omillar asosida shakllanadi.

Bank tizimi yagona manoga ega emas. Uni turli tamoyillarini ko'rish, turli holatlariga qarab guruhlash mumkin. Masalan, ularni tashkiliy tuzilishiga ko'ra intitutsional chizma ko'rinishida ko'rib chiqish mumkin. Bundan tashqari bank tizimini bajaradigan funksiyalari, o'zaro aloqadorligi, mavqye, maxsus yo'nalishi. bajaradigan operatsiyalarga va ularni tanbex ctilishiga qarab ham guruhlash mumkin. Tijorat banklarini belgilariga qarab quyidagi turlaiga bo'lish mumkin. Mulkchilik shakliga qarab banklar: davlat bankiga, aksiyador banklarga, kooperativ, xususiy, mintakaviy. aralash mulkchilikka asoslangan bankka bulinadi. Aksiyador banklar aksiyador jamiyat kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi aksiyador banklar bo'lishi mumkin.

Aksiyadorlar safiga kirish aksiyalarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Yuridik va jismoniy shaxslar banklarning aksiyalarini sotib olishi va aksiyadorlar

bo'lishi mumkin. Aksiyador tijorat banklarining yuqori organi - aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Har yili aksiyadorlarning yig'ilishi ustavdagi va ustav kapitalidagi uzgarishlarni, yillik faoliyat va uning natijalarini, bank daromadlarini tasdiqlash, bank kengashi tarkibini savlash bankning shu'ba muassasalarini tashkil qilish va bekor qilish kabi masalalarni ko'rib chiqishi mumkin. Ba'zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdagi banklarning qatnashchilari ham yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Xususiy banklar - jismoniy shaxsning pul mablag'lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi. Joylashish belgisiga qarab tijorat banklar: xalkaro, respublika, mintakaviy, viloyat banklariga bulinishi mumkin. Bajaradigan operatsiyalariga qarab tijorat banklar - universal va maxsus banklarga bo'linadi. Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, har xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo'ladi. Maxsus banklar ma'lum yunalishlarga xizmat kursatib, uz faoliyatini shu yunalishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag'ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat kursatuvchi banklar, eksportimport operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investisiyabanklari, ipoteka-zamin banklari kirishi mumkin. Banklami intutitsional tuzilishi bilan bo'yicha guruhleri bir qancha unsurlami majmuini bevosita va bilvosita bank faoliyati bilan shug'ullanuvchilami, ularni tuzilishini, vazifalari, funksiyalari, muhitdagi operatsiyalarini o'zaro aloqadarlikda o'z ichiga oladi (tashkilot va korxonalar). Tashqiliy tuzilish bo'yicha guruhlash ushbu davlatda faoliyat olib boradigan kredit turiari va shakllarini, bunda ishtirok etadigan banklarning turlarini o'z ichiga oladi. To'zilma kredit shakllari va bank ishtiroki belgilariga qarab tuziladi.

2.2. Davlatni pul-kredit siyosati va banklami uni amalga oshirishdagi roli

Bugungi kunda banklami va boshqa moliya-kredit tashkilotlari orasidagi farqini yo'qotishni mamlakatdagi kapital harakatini markazlashuvuni va jamg'arlishi bilan bevosita bog'liqdir. Bunday harakat natijasida o'zaro yaqin va o'xshash bo'lmagan kredit tashkilotlarini yo'qolib ketishi yoki kushilishi jarayoni amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga banklarning universallashuvi makroiqtisodiy omillarga bog'liqdir. Ammo bu faoliyat uzoq muddatni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda farqlarning yo'qolishi va banklar tomonidan funksional va yuridik xususiyatlamini bekor bo'lishi asosan yirik tijorat banklarida sezilarli amalga oshmoqda. Shuni qayd qilish lozimki yirik banklarning universallashuvi va global yo'nalishlarining olib borilishi kichik banklarning, maxsus kredit tashkilotlariga yani ma'lum turdagi operatsiyalarga moslashgan tashkilotlarga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa ko'pgina mamlakatlarda faoliyot ko'rsatayotgan ko'p bosqichli bank tizimiga hos xususiyatdir. Bozor iqtisodiyoti va jahon xo'jaligi rivojlanishi bilan bank tizimi ham rivojlana bordi. Hozirgi sharoitda banklar tobora ko'prok faqat sof bank operatsiyalarini bajaradigan emas.

Tijorat banklari qo'yidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;

- aktiv ssuda operatsiyalari;
- bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;
- bankning uz mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshqalar.

Shu bilan birga banklar moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan moliyaviy muassasalaiga aylanmoqda, bu bank balansida aks ettirilmaydi, lekin juda kata daromad keltiradi. Pul-kredit siyosati usullari umumiy bo'lishi mumkin, yani mamlakatdan kredit munosabatlar holatiga umumiy ta'sir ko'rsatuvchi, yoki selektiv, yani alohida olingan kredit turlariga ta'sir ko'rsatish uchun yo'naltirilgan hamda alohida korxonalar, jumladan tarmoqlarni kreditlash uchun yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Pul-kredit siyosatining umumiy usullariga:

- Markaziy bankning hisobga olish siyosati yoki foiz stavkalarini tartibga solish siyosati;
- ochiq bozordagi operatsiyalar, yoki davlat qimmatbaho-qog'ozlarini sotib olish va sotish;
- majburiy zahira normalari o'zgartirishlar kiradi.

Hisobga olish siyosati Markaziy bankning tijorat banklari uchun oxirgi navbatdagi zahirasi sifatida kreditoriga aylanishi bilan bog'liq. Majburiy zahira normalari tartibga solish hukumat talabi asosida tijorat banklarining belgilangan miqdordagi pul mablag'larini Markaziy bankdagi foizsiz hisob varag'iga o'tkazilishidir. Ochiq bozordagi operatsiyalar markaziy bankning tijorat va gazna obligatsiyalari va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni bozor kursi yoki oldindan e'lon qilingan kurs bo'yicha sotib olish va sotish, hamda qayta kelishuvlaridir.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati selektiv usullariga:

- limitlar, kvotalar umatish orqali kredit miqdorini yoki veksellarini hisobga olishni to'g'ridan-to'g'ri qisqartirishdir;
- kredit operatsiyalarini o'sish darajasini pasaytirish;
- alohida olingan turdagi kreditlar ustidan nazoratni umatish, ismol krediti ustidan;
- alohida olingan jamg'armalarga yuqori foizlarni o'rnatish yoki umuman

foiz stavkalarini tartibga solish va boshqalardir. Banklar va uning krediti yordamida mavjud kapital tarmoqlar o'rtasida, ishlab chiqarish va muomala sohasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Sanoat, transport, qishloq xujaligi sohasida qushimcha investisiyaga bo'lgan talablarni moliyalashtirib, banklar xalk xujaligida progressiv yutuqlarga erishishni ta'minlashi mumkin. Oxirgi yillarda tijorat banklarining soni, ular bajaradigan operatsiyalar, ularning ustav fondi va qo'yilmalar salmogi oshib bormoqda. Tijorat banklari o'z faoliyati bilan bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda ishlay oladigan tashkilotlarni o'z vaqtida mablag' bilan qo'llash va bunday tashkilotlarni aniqlash kabi muhim bir vazifani amalga oshirmoqda. Tijorat banklari kreditlash jarayonlari orqali mamlakat iqtisodiyotning rivojlanishiga ham juda katta xissa qo'shmoqda. Tijorat banklarining yana bir muhim funksiyasidan biri hisob to'lovlarini amalga oshirish funksiyasidir. Bugungi kunda korxonalar va xo'jaliklarni o'rtasidagi hisob-kitoblarning asosiy qismi pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda tijorat banki vositachi sifatida to'lovlar o'tkazish jarayonini bajarmoqda. To'lov hujjatlarining o'z vaqtida o'tishi hamda hisob-kitob jarayonlarining uzluksizligini taminlash zaruriyati bugungi kunda banklardan

hisob-kitoblarni tashkil qilish va nazorat qilishning mukammal metodlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Hisob-kitoblarni tezlashtirish, jarayonlarni ishonchligini taminlash hamda bu jarayonlar bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish maqsadida tijorat banklari bugungi kunda komputer texnikasi bilan jihozlanmoqda. Tijorat banklarining to'lovlarini amalga oshirish funksiyasi orqali bugungi kunda yuridik shaxslarning davlat budjetiga bo'lgan majburiyatlari nazorat qilinmoqda.

Bugungi kunda tijorat banklari yetarli darajada texnik jihozlanganligi hamda kerakli axborot bazalariga va malakali kadrlarga egaligi banklari o'z navbatida qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy ishtirokchilaridan biri qilib qo'yilmoqda. Qimmatbaho qog'ozlar bozorida banklar bir vaqtning o'zida ham investor ham emitent sifatida qatnashmoqda. Banklarning boshqa xo'jalik subektlariga nisbatan stabil moliyaviy holatga egaligi qimmatbaho qog'ozlar bozorida operatsiyalarda qatnashishga imkon bermoqda. Respublikada tijorat banklarning qimmatbaho qog'ozlar bozorida aktiv ishtirok etishini sabablaridan yana biri banklarning nizom kapitalini oshirish sohasida o'z aksiyalarini sotishga bo'lgan intilishidir.

Bugungi kunga kelib tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlar bozorida aksiyalardan tashqari depozit va jamg'arma sertifikatlar bilan ishlashni ham yo'lga qo'yilmoqdalar. Bundan tashqari banklar o'z mijozlariga moliyaviy broker sifatida ham xizmat ko'rsatmoqda. Banklarning bunday funksiyalarni bajarishlari korxonalar tashkilotlarning qimmatli qog'ozlar bozori operatsiyalarida qatnashishlari uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Bugungi kunda, Respublika davlat mulkini xususiylashtirish bilan bog'liq jarayonlar keng o'rin olganligi sababli, korxonalariga tegishli, qimmatli qog'ozlar bozoriga nisbatan, davlat qimmatli qog'ozlar bozori aktiv harakat qilmoqda. Bu bozorda asosiy qatnashchilar sifatida tijorat banklari maydonga chiqmoqda. Bu bozorda tijorat banklari o'zlarining brokerlik funksiyalarini amalga oshirish bilan bir qatorda mavjud mablag'larini hech qanday tavakalchilikka bormagan holda qisqa muddatlarga joylashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

2.3. Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatini tartibga solishdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklari Markaziy bankdan litsenziyani olgandan so'ngina davlat qimmatbaho qog'ozlari bilan operatsiyalarni amalga oshirilishi mumkin. Ularga qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalar qilish uchun, to'lov xarajatlari funksiyasini bajaruvchi qog'ozlar uchun (veksel-chek) yoki pul mablag'larini jamg'armalarga va bank raqamlariga jalb qilishlarini tasdiqlovchi qog'ozlar (depozit va jamg'arma sertifikatlari) uchun maxsus litsenziya olishlari shart emas.

Bugungi kunda banklarning ko'p pog'onali bo'lishi ularning tashkiliy tuzilishiga bog'liq. Ammo, rivojlangan mamlakatlarga bir yoki ikki pog'onali bank tizimi xosdir. Bir pog'onali bank tizimi varianti mamlakatda yagona markaziy bank xali mavjud bo'lmasa yoki bitta markaziy bankdan iborat bo'lsagina rasal (haqiqatda) mavjud bo'lishi mumkin.

Ammo tsivilizatsiya darajasidagi bozor iqtisodiyoti sharoitiga ikki pog'onali bank tizimi hos. Bunda birinchi pogona banklari Markaziy bank, ikkinchi quyi pog'ona esa-tijorat banklari va kredit tashkilotlaridir. Markaziy bank tizimi mavjud bo'lgan barcha davlatlar pul-kredit tizimining asosini tashkil qiladi. Markaziy bankning moliya bozoridagi o'rni mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasiga va xususiyatiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida ikki pogonali bank tizimini shakllanishiga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Chunki buning tepasida Markaziy bank bo'ladi. Ikki pogonali bank tizimining zarurli bozor munosabatlarining qaramaqarshiliklaridan kelib chiqadi. Bir tomondan, bu xususiy moliya mablag'laridan erkin foydalanish huquqini talab qiladi. Bu quyi pog'ona banklar-tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, bu munosabatlarni ma'lum miqdorda tartibga solish nazorat qilish maqsadli yo'naltirish zarur. Bunday maxsus institut sifatida Markaziy bank yuzaga chiqadi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek bank faoliyatini maxsus litsyenziya asosida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Biz aytganimizdagi O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan litsyenziya asosida faoliyat olib boradilar. Ularga qo'shimcha retsyenziya zarur emas (faqat valuta operatsiyalaridan tashqari).

Shuni takidlash lozimki Respublika Tijorat banklarining moliyaviy holati bugungi kunda barqaror emas. Shu sababli Respublikada bii qancha banklarning litsyenziasini chaqirib olindi, bu esa ularni haqiqatda bankrotlikga uchraganligidan darak beradi.

Bank retsyenziasini chaqirib olinish jarayonidan likviditsion komissiya to'zildi.

Ular qiyin va uzoq muddatli murakkab faoliyat olib boradilar.

Kredit moliya-tizimining barqarorligining taminlash, uning alohida bo'g'inlarining birinchi navbatda tijorat banklari faoliyatini barqarorligini taminlash mamlakat markaziy bankning asosiy vazifasi hisoblanadi. Markaziy bankning yana bir asosiy vazifalaridan kredit organlarini (tizimini) faoliyatini tartibga solish va umumlashtirishdan iboratdir.

Uzoq yillar mobaynida tijorat banklari va emission banklarining bajaradigan funksiyalari qushilib ketdi. Bular qatoriga banknotlarni emissiya qilishning markazlashuvi bir qo'lda yoki bir necha banklarning qo'lida yani davlatning maxsus qonuniy dalolatnomalari bilan qo'llab-quvatlanadigan banklar qo'lida ushlab turishi, keyinchalik esa ular orasidan yiriklarini ajratib so'ng emissiya chiqarish huquqini berilishini, yoki alohida markaziy emission banklar deb norlanuvchi banklarning paydo bo'lish jarayonlarini misol qilib keltirish mumkin.

Turli mamlakatlarda Markaziy banklarga turli funksiyalarni belgilab berilishi mumkin. Lekin Markaziy bank doimo Davlat va bank belgilarini o'zida mujassamlashtirilgan o'zida Davlatning tartibga soluvchi organi bo'lib qoladi.

Mamlakatning Markaziy Banki davlat bank tizimining asosiy qismi bo'lib hisoblanadi. Markaziy bank birinchi urinda davlat va iqtisodiyot o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Ammo Markaziy bank o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'yinaydi. Markaziy bank funksiyalari uzoq yillar mobaynida deyarli o'zgarmay aniq modifikatsiyalangan ko'rinishga egadir. Turli iqtisodiy adabiyotlarda va o'quv darsliklarida Markaziy bank funksiyalari turlicha talqin qilinadi.

Masalan V.M. Usoskinining fikriga ko'ra Markaziy bank funksiyalariga:

- kredit pullari (banknotlar) emissiyasi;
- banklar uchun va boshqa kredit tashkilotlari uchun turli xizmatlarni amalga oshirish;
- hukumatning moliyaviy agenti funksiyasi;
- markazlashgan oltin-valuta zahiralarini saqlash;
- pul-kredit siyosati tadbirlarini o'tkazish kabilar kiradi.

"Moliya, pul muomalasi, kredit" kitobining mualliflari fikricha Markaziy bankning asosiy funksiyasi: - "muomalaga kredit pullari - banknotalarni chiqarish va pul muomalasini tartibga solishdan iboratdir".

Shunday qilib, Markaziy banklar - "banklar banki"ga aylantirib yuborildi, yani ularning mijozlari bo'lib tijorat banklari hisoblanadilar. Markaziy banklar o'zlarining joriy (depozit) raqamlarida tijorat banklarining pul mablag'larini aks ettiradilar, ularning naqd pullarini tularishga bog'liq operatsiyalarni amalga oshiradilar, tijorat banklariga kreditlar beradilar. Markaziy banklar ko'p hollarda Davlatning bankirlari hisoblanadilar. Shu bilan barcha emission banklarning yana bir asosiy funksiyalariga ochiq bozordagi operatsiyalar va deviz operatsiyalari kiradi.

Ular davlatning qimmatbaho qog'ozlarini sotish va olish, xorijiy valutilarni hamda milliy valuta kurslarini ushlab turish maqsadida sotadi va sotib oladi. Lekin, umuman olganda Markaziy banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar quyidagi turt guruhga (turga) bo'linadi:

1. Banknotlarning monopol emissiyasini amalga oshirish;
2. Markaziy bank- banklar banki hisoblanadi;
3. Markaziy bank- hukumat bankiri hisoblanadi;
4. Markaziy bank pul- kreditni tartibga soladi va bank nazoratini amalga oshiradi.

Markaziy banklarga davlat vakili sifatida qonuniy tarzda banknotalarni monopol ravishda emissiya qilish birlashtirilgan, yani umummilliy kredit pullarini bosib chiqarish yuklatilgan. Tarkidlash kerakki, sanoati rivojlangan mamlakatlarda banknotalar pul massasining sezilsiz qismini tashkil etadi, shuning uchun Markaziy bankning monopol emissiya funksiyasi birmuncha pasaytirilgan. Biroq banknotalarni chiqarish funksiyasi mamlakatdagi pul zahiralarini tashkil qiluvchi, chakana pul muomalasini naqd banknotalar bilan taminlash va kredit tizimini likvidligini taminlash vositasi hisoblanadi. Bu funksiyalar naqd pul muomalasi ulushi sezilarli bo'lgan mamlakatlarda katta ahamiyatga egadir. Markaziy bank bevosita tadbirkorlar va aholi bilan hech qanday faoliyat olib borraydi. Uning asosiy mijozlari bo'lib tijorat banklari hisoblanadi. Tijorat banklari Iqtisodiyot va Markaziy bank orasida (o'rtasida) vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Markaziy banklar banki sifatida tijorat banklarining zahiralarini saqlaydi, jumladan, majburiy zahira talablari shaklidagi pul mablag'larini saqlaydi, ularning kreditorlari sifatida ishtirok etadi, tijorat banklarining Markaziy bankda ochadigan hisob varaqlari orqali (O'zbekiston Respublikasi hisob-kassa markazi) mamlakat miqyosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiradilar, banklar va boshqa kredit institutlari ustidan nazoratni olib boradilar.

Yuqorida aytib o'tilganlardan, umuman olganda, Markaziy bankning barcha funksiyalari o'zaro bog'liqdir. Davlatga kredit berish orqali, Markaziy bank kredit

muomala vositalarini yaratadi. Hukumatning majburiyatlarini chiqarish va qoplash orqali, u ssuda foiziga ta'sir ko'rsatadi. Sanab o'tilgan funksiyalari orqali Markaziy bank o'zining asosiy mamlakat pul-kredit tizimini tartibga solish funksiyasiga asos yaratadi va iqtisodiyotni tartibga soladi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati umumiy iqtisodiy infratuzilmalarni tartibga solishning, bozor konyukturasini yuqori darajada ushlab turish, bandlikka ta'sir o'tkazish, inqirozli tushumlarni oldini olishning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib pul-kredit siyosati muomaladagi pul mablag'lari miqdorini, bank kreditlari hajmini, foiz stavkalarini, valuta kurslarini, to'lov balansini va o'z navbatida bevosita mamlakat iqtisodiyoti holatini o'zgartirish uchun yo'naltirilgan tadbirlar majmuasidir.

2.4. Bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish muammolari

Jahon banklari ish faoliyatida axborotlarni sotish va moliyaviy maslahatlar kabi xizmatlar ham keng o'rih olgan. Bizning oldimizda turgan masalalardan biri ham sohani o'rganishdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror va samarali ishlovchi bank tizimini yaratish mustaqillikning birinchi kunlaridan O'zbekistonda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

"O'zbekistonning moliyaga doir yordamchi tarmoqlarini, mamlakatning bank tizimini takomillashtirish biz uchun birinchi navbatdagi vazifadir":, - deb etirof etgan edi Prezident I. Karimov. Chunki Mustaqillik e'lon qilingunicha mamlakatda mustaqil bank tizimi mavjud emas va mavjud bank muassasalari sobiq ittifoq bank tizimining tarkibiy qismi hisoblanardi.

Каримов И А Биздан обод ва озод ватан қолсин. 2-том. -Т.: "Ўзбекистон", 1996. Bank tizimida yuzaga kelayotgan holatlar, bugungi kunda bank menejmenti va marketingini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda. Banklar sonini ko'payishi bu raqobatning kuchayishidir. Malumki, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida iqtisodiyotni boshqarish borasida boy tajriba to'plangan. Shu tajriba asosida boshqaruv sohasi rahbarlari va mutaxassislarining yangi avlodini tarbiyalash respublikamizda ham tobora keng yoyilmoqda. Jahon bank tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, MDH mamlakatlari bank tizimiga ham tobora ko'proq ta'sir ko'rsatayotir. Xo'sh, gap qaysi o'zgarishlar to'g'risida bormoqda?

Birinchidan, bu o'zgarishlar to'lovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori sur'atlar bilan shakllantiradigan bank operatsiyalarini komputerashtirishning texnologik inqilobi bilan bog'liq. Bu jarayonlar talaygina moliyaviy xarajatlar talab qiladi, bank ishi qimmatlashadi, biroq uning samaradorligi va uning tezkorligi oshadi, bu esa xarajatlar o'sishini qoplaydi.

Ikkinchidan, bank ishida o'sib borayotgan raqobat banklarning ko'shilib ketishiga olib keladi, bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi. O'zbekistonning bank tizimi unga kam quvatli talay banklar kirganligi sababli, yaqin vaqt ichida bu ta'moyilning ta'sirini boshdan kechiradi. Bu hodisaga respublika bank xizmati bozorida anchagina raqobatbardosh

va samarali bo'lgan chet el banklarining paydo bo'lishi ham yordam beradi. Uchinchidan, bu an'anaviy bank xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan bankdan tashqari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi.

Jumladan, aholiga kredit kartochkalari bilan xizmat ko'rsatish sohasida turli xildagi tijorat to'zilmalari faoliyat ko'rsata boshlaydilar. To'rtinchidan, bank ishlariga bu xizmatlarning ko'p sonli iste'molchilari ta'siri ortadi. Iste'molchi operatsiyalarining tezligi va sifati, hisob-kitoblarning qo'layligi, mijozlarning ehtiyojlariga o'tkazish-e'tibor qaratilishiga nisbatan banklarga tobora qattiq talablar boshlaydi. Bank tizimi hozir hal qilinishi qiyin bo'lgan dilemmaning keskinlashuvi sharoitida turibdi. Qo'yilmalarni jalb qilishda banklar ekspansiyasi va omonatchilarni zararlardan kafolatlash o'rtasida asosiy muvozanatsizlik mavjud. Kafolatlar moliya institutlariga qo'shimcha qo'yilmalarni jalb qilish imkonini beradi. qo'yilmalar faoliyatining omonatchilar tomonidan boshqarilmasligi esa, banklarga bu qo'yilmalardan foydalanishda keng imkon yaratib beradi. Bu ikki o'ringa o'zaro uygunligi kreditlash hajmlarining o'sishi uchun sharoit yaratadi. Biroq bu boshqarilmaslik kuchayishi bilan xavf-xatar va kompensatsiya o'rtasidagi muvozanatsizlik ortadi. Shuning uchun ham bank tizimini rivojlantirish va boshqarishga nisbatan samarali siyosat olib borish zarur. Bu vazifalarning barchasi bank menejmenti bilan bog'liqdir. Menejment - tashkil etish va boshqarishning tizimini to'g'riroq olib borishi haqidagi ilmiy bilimdir. Menejment tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati turlicha tushuniladi. Qisqacha ma'noda menejment so'zi - jamoani tashkil qilish va boshqarish bilan bog'liq bo'lsa, keng ma'noda menejment - bank faoliyatini va uning ishchilarini shakllantirishni boshqarish tushuniladi.

Menejment asosini inson omili, o'z ishini biluvchi, shaxsiy hamda jamoa mehnat faoliyati tashkil etadi. Bu borada boshqaruvchi - kasbiy bilimga va shaxsiy sifatlarga: yuqori bilimli, o'ylash qobiliyati chuqur va zehni, xavfni boshqara oladigan hamda rejalashtirgan ishlarni qo'rkmasdan amalga oshira oladigan shu bilan birga jamoasi orasida yetakchilik qila oladigan shaxs bo'lishi shartdir.

Menejmentning asosiy maqsadi boshqarishning ratsional usuli orqali foyda olishdir. Lekin respublikamizning hozirgi iqtisodiy sharoitida bank menejmentining asosiy maqsadi faqatgina foyda olish emas, balki jamiyatning ijtimoiy iste'mol talablarini qondirishdan ham iboratdir. Oxirgi yillarda bank menejmentining maqsadlariga - jamoaning ijtimoiy muammolarini ham hal qilishdan iborat bo'lgan masalalar turibdi.

Busiz inson o'z potensialini namoyish eta olmaydi va mehnat qila olmaydi.

Shu bilan bank menejmentining yana bir xususiyati bank biznes xususiyatiga bevosita bog'liqdir. Bank biznesi boshqa tarmoqlarga qaraganda uning farqi maxsus "tovar" "pul" bilan faoliyat ko'rsatishidir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda bank menejmentining o'ziga xos xususiyatlarni va maqsadlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu xususiyatlarga:

- pul bozori sharoitida xo'jalik subyekti sifatida bank ishini rentabelligini ta'minlash;
- kreditor va jamgarmachilar qiziqishini ta'minlash maqsadida, bankni ishonchli sherik sifatida uning balansi likviditligini ta'minlash;

-bank mijozlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarini hajmi, turi, sifatini yaxshilagan holda ular orasidagi aloqalami doimiyligini ta'minlash uchun mijozlar talablarini maksimal qondirish;

-jamoaning ishlab chiqarish, tijorat hamda ijtimoiy muammolarni birgalikda hisobga olgan holda hal qilish; -mutaxassislarining potensialidan to'laroq foyda olish maqsadida ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni joylariga qo'yish. Bu maqsadlarga erishish uchun bank menejmenti miqdoriy va sifat hamda ijtimoiy ko'rsatkichlarga tayanadi.

Miqdoriy ko'rsatkichlar bank menejmentining barcha sohalariga tegishlidir.

Miqdoriy ko'rsatkichlarga: bank mijozlari va raqamlari soni, depozit hajmi, kredit qo'yilmalari, operatsiya va xizmatlar hajmi va boshqalar misol bo'la oladi. Sifat ko'rsatkichlariga esa bankning daromad va xarajat ko'rsatkichlari mablag'larning aylanish tezligi, operatsiyalarni amalga oshirish xarajatlari va mehnat hajmi, hujjatlarni qayta ishlash kabilar kiradi. Hozirgi kunda bu masalalar kundankunga hal qilib borilmoqda. Axborot tizimi, elektron to'Mov tizimi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bank menejmentining ijtimoiy ko'rsatkichlarini uch guruhga ajratib ko'rish mumkin. Bular:

-jamoaning a'zolarining kasbiy tayyorgarligi;

-ularning mehnatga munosabati;

-ijtimoiy muammolarni farq qilish darajasi.

Bank menejmentining asosiy xususiyatlaridan yana biri, bu mas'ul masalarni hal qilishda jamoa umiyatiga ega bo'lishidir. Hozirgi davrda bankning mijozlarini aniq yo'nalishi qanday? Ularni ikkita yirik yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchi guruh savollariga, bankni ixtiyorida bo'lgan iqtisodiy muammolarni boshqarishni tashkil etish. Ikkinchi guruh savollariga bank jamoasini boshqarishni tashkil etishdan iboratdir. Bularning har biri alohida yo'nalishlardan iborat. Lekin biz ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqa olmaymiz. Ammo ba'zi hirlari bilan tanishib o'tishga harakat qilamiz. Bank marketingi - bu bozorda bo'layotgan jarayonlarni to'la hisobga olgan holda kompaniya va firma faoliyatini bajarish va tashkil etish tizimidir. Bank marketingi esa shu ma'lum bir regionda va regiondan tashqarida bank xizmatlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, bank xizmatlariga bo'lgan talabni boshqarish va qondirish. turli banklar tomonidan amalga oshirilayotgan bir turdagi operatsiyalar xarajatlarni taqqoslash, reklamani amalga oshirish tizimidir.

Bank marketingi birinchi navbatda bankning potensial mijozlarini qidirib topishini bildiradi. Bank mijozni hamda o'zining iqtisodiy potensialini birgalikda qo'shib o'rganadi. Bank xizmatini yangi turlariga bo'lgan talabni o'rganish hozirgi zamon banklarining eng dolzarb masalasidir. Oxirgi yillarda bankning faoliyatiga kiritilgan, Faktoring, lizing, ishonch (trast), vositachilik xizmatlari va ularga bo'lgan talabni o'rganib chiqish shular jumlasiga kiradi. Tijorat banklarining maslahat xizmati qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalari ham bundan mustasno emasdir.

Bankning o'z marketing xizmatini olib borishi bir necha usullariga ega. Bularning eng birinchisi hamda oddiy miqjizlar bilan olib boriladigan bevosita olib boradigan muvohiqatdir. Mijozni ham bank ishchisini moddiy tomonidan ragbatlantirilishi bu

vazifani hal qilishning asosiy mezonlaridan biridir. Mijozlar bilan muloqot qilish uslubiga ko'ra bank marketingi ikki turga, aktiv va passivga bo'linadi.

Aktiv marketing o'z ichiga:

-to'g'ri marketing, telefon, pochta va lelevideniycni o'z ichiga olgan marketingni;
-telemarketing, ya'ni yangi bilimdan ko'ra iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan marketing;

-konferensiyalar o'tkazish orqali bank xizmatlarini reklama qiluvchi marketingni;

-aholining keng ommasini so'roqqa to'tish orqali o'rganiladigan gap marketingni;

-bankda tashkil topadigan fokus-guruhlarining tashkiliy diskussiya bahsasluiiv guruhlarini marketingi;

-mijoz bilan bevosita niuloqotda bo'lgan marketingni oladi.

O'z navbatida passiv marketing esa matbuotda bosib chiqarish yo'li bilan bank xizmatlarini reklama qilish usuliga bo'linadi. Bank marketingining tashkiliy qismlari bo'lib:

Axborotni to'plash (bozorni o'rganish uchun):

Tovarni o'rganish va bahosini aniqlash (tovar-baho):

Xizmatlarni jo'natishni (sotishni) tashkil etish kabilar hisoblanadi.

Bank tizimi - lashkiliv tuzilma sifatida yirik tizim bo'lib - mamlakatning iqtisodiy tizimiga kiradi. Menejment - tashkil etish va boshqarishning tizimini to'g'riroq olib borishi haqidagi ilmiv bilimdir. Menejment so'zi - jamoani tashkil qilish va boshqarish bilan bog'liq bo'lsa. keng ma'noda menejment - bank faoliyatini va lining ishchilarini shakllantirishni boshqarish tushuniladi.

Qisqa xulosalar

Bank tizimi - lashkiliv tuzilma sifatida yirik tizim bo'lib - mamlakatning iqtisodiy tizimiga kiradi. Menejment - tashkil etish va boshqarishning tizimini to'g'riroq olib borishi haqidagi ilmiv bilimdir. Menejment so'zi - jamoani tashkil qilish va boshqarish bilan bog'liq bo'lsa. keng ma'noda menejment - bank faoliyatini va lining ishchilarini shakllantirish ni boshqarish tushuniladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Bank" tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati
2. Banklar - xo'jalik yurituvchi korxonalar sifatida
3. Bozor iqtisodiyotida kreditning ijtimoiy funksiyalari xususiyatlari
4. Markaziy bank funksiyasi
5. Bank aksioner tashkiloti sifatida
6. Bank tizimi nima?
7. O'zbekiston tijorat banklarida menejmentni rivojlantirish
8. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi holati va rivojlanish istiqbollari
9. Banklarning operatsiyalari va ularning tuzilishi
10. Aholi pul daromadlari va xarajatlarini muvozanatlashtirish muammolari

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаев Ё, Абдуллаева Ш.З. Банк иши, Т.: 2003.
2. Жарковская Е. Банковское дело. Курс лекций. М.: "Омсга-Л". 2003.
3. Лаврушим О.И. и др. "Банковское дело". М. Ф и С. 2003.
4. Тожиев Р., Жумасв Н. Марказий банкининг монетар сиёсати. Т.: ТДИУ. 2002.
5. <http://www.bankofengland.co.uk/market/money/index.htm>
6. <http://www.bankofengland.co.uk/coreprocesses.htm>

MAVZU: BANK RESURSLARINI TASHKIL QILISH, BANKLARNING PASSIV OPERATSIYALARI, BANKLARNING KREDIT POTENSIALI

Reja:

- 3.1. Bank resurslarini shakllantirish va foydalanish tartibi**
- 3.2. Bank kredit potentsiali manbalarining tuzilishi va ulaming tavsifi**
- 3.3. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining mablag ta'minoti**
- 3.4. Banklarning depozit operatsiyalari**
- 3.5. Banklarning nodepozit mablag'lari manbalari**
- 3.6. Depozit sertifikatlari bozori va uni O'zbekistonda rivojlanish istiqbollari**

3.1. Bank resurslarini shakllantirish va foydalanish tartibi

Banklarning iqtisodiy faoliyatidan kelib chiqadigan bo'lsak bank faoliyatida ham o'ziga yarasha extiyojlar va talablar mavjud. Ushbu bobda bank faoliyati yuritish uchun zarur bo'lgan "resurslar" tushunchasi va ulaming tarkibi hamda mohiyati bilan tanishamiz. Banklar faoliyati ham boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar singari o'z faoliyatini olib borishi uchun yetarli darajada pul va moliyaviy resurslari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak, chunki ularning asosiy taklif etadigan va ko'rsatadigan xizmatlari ham pul mablag'lari yoki moliyaviy resurslarda tashkil topadi.

Tijorat banklari resurslari makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qatoriga kiradi va bankning likvidligiga va darornadligigiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Tijorat bankning faoliyati ko'rsatish qamrovini oladigan bo'lsak ular oladigan foydalar bank resurslarini qanday shakllantirganligi va qanday shartlar va turiari bo'yicha jalb qilganligiga juda ham bog'liqligini juda yaxshi bilamiz. Shuning uchun banklar o'rtasida ham mablag'lami jalb qilishda ham katta raqobat muhiti yuzaga kelganiligini ko'rishimiz mumkin. Bank resurslarini shakllantirish jarayoni bu faqatgina yangi mijozlarni bankga jalb qilishning o'zi emas balki bank mablag'lari tuzilishining doimiy ravishda o'zgarib turishi va tarkibidagi passivlaming holatiga qarab o'z aktivlarini boshqarishi ham tushuniladi. Buning uchun esa samarali passivlami boshqarish tizimi yoki samarali depozit siyosatini yuritilishini talab etiladi. Mijozlar oldidagi talabni doimiy qondirish hamda barqaror holatni saqlab qolish uchun banklar kerakli darajada likvidlik talablarni bajarishi kerak. Likvidlik normasini ko'rsak, bugungi kunda u barcha talab qilib olguncha depozitlarga nisbatan 30% kam bo'lmagan miqdorida mablag'lami likvid holda ushlab turishi shart. Resurslarning chegaralanganligi bu banklarning rivojlanayotganligini va bankning mijozlarga bog'lanib qolishini hamda banklar o'rtasida mijozlar uchun kuchli raqobat muhiti yuzaga kelayotganligini ko'rmoqdamiz. Shuning uchun bank resurslarini barqarorligini ta'minlash uchun aniq strategik rejalar bilan asoslangan depozit siyosati yuritishi asosida depozit portfelining diversifikatsiyalanganligi hamda yuritilayotgan depozit siyosatining samaraliligiga erishish lozim. Chunki bugungi sharoitda resurslar jalb qilish bilan birgalikda ulami optimal tarzda taqsimlash va kerakli bo'lgan maqsadlarga erishish, ya'ni davlat ahamiyatidan ham bank hamda mijoz

manfaatini ham ko'zlashi kerak. Chunki banklar o'z to'lov qobiliyatini saqlashi yoki likvidligini saqlab turishi bank uchun ham mijoz uchun ham eng muhim bo'lib, uchinchi tomondan nazorat qiluvchi muassalarning ham qarashlarini qondiradi.

Ikkinchi tarafdin likvidlik hamda daromadlilik bir biriga nisbatan teskari proporsional. Shulami hisobga olgan holda bank jalb qilinayotgan manbaalarning sifatiga shu bilan birgalikda yo'naltirilayotgan sohalar ishonchliligiga kuchli e'tibomi qaratishlari kerak. Bankning depozit siyosati o'z ichiga hamma ijtimoiy darajadagi shaxslar - nafaqaxo'rlar, yoshlar va yoshi kattalar hamda kam ta'minlanganlar va kam daromadlilarning ham hisobini olishlari kerak. Har bir mijoz bilan iloji boricha uzoq muddatli aloqalami yo'lga qo'yishi kerak va buning uchun mijozlarning talablarini oldindan bilishlari hamda ular uchun kerakli xizmat turlarini o'z vaqtida berishlari kerak. Aholining real pul daromadlarini o'sishi ist'emol talabini ko'payishiga va chakana savdo oborotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga bank tizimiga ishonch ortishi tashkillangan jamg'armalar o'sishini rag'batlantirdi. Bu omillar banklarning depozit operatsiyalarini kengaytirishga va banklarning bu boradagi xizmatlari doirasini yanada rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishlariga majbur etmoqda. Chunki banklarning faqatgina chakana xizmatlari evaziga ularning 20 foizdan ortiq resurslari shakllanadi.

Yuqorida ko'rib o'tilganlar shuni ko'rsatadiki, bank resurlarining shakllanishi va ulami barqarorligini ta'minlashda quyidagilar asosiy bo'lib qolmoqda:

- Bugungi kunda banklarning asosiy mablag'lari o'sishi aksiyadorlarni jalb qilish va ularning mablag'larini joylashtirish hamda olingan daromadlardan ajratmalar ajratish, zahira fondlar yaratish va maqsadli zahiralar tuzish orqali amalga oshirilmoqda.

- Bankning passiv operatsiyalarini yuritish orqali, ya'ni depozitlarga jalb qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha va jamg'arma, muddatli omonatlariga, vaqtincha yoki talab qilib olguncha shartlari bo'yicha joylashtirish orqali olib borilmoqda.

Bankning o'z kapitali bank faoliyatining asosini tashkil etuvchi hamda bank passivlarining muhim manbaalaridan hisoblanadi.

Jalb qilingan va sotib olgan mablag'lar yoki qarzga olingan mablag'lar bank passivlarining katta qismini tashkil etuvchi hamda tijorat bankning vositachi tashqilot ekanligini, ya'ni vaqtincha bo'sh mablag'larni jalb qilib boshqa mijozlarni talablarini qondiruvchi ekanligini tavsiflaydi.

3.2. Bank kredit potentsiali manbalarining tuzilishi va ularning tavsifi

Bank resurslari bizga ma'lumki passiv operatsiyalarni natijasida shakllanadi.

Bankning passiv operatsiyalari - bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini ustida amalga oshirilgan amaliyotlarda yuzaga keladi. Moliya-kredit lug'atlarda berilishicha, banklarning passiv operatsiyalari bu - "Banklar kredit va boshqa aktiv amaliyotlarni bajarish uchun o'z resurslarini shakllantirish operatsiyalari" dir.

Passiv operatsiyalarning xilma-xilligi, ulami boshqarish zaruriyatini yuzaga keltiradi va hozirgi kunda ulami boshqarish bank menejmentini tashkil etuvchi asosiy kismlaridan ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bank passivlarini boshqarishdagi asosiy e'tibor bankning likvidligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lib, bu yerda passivlarning har turi alohida e'tiborga olinadi. Passivlarni boshqarishda begona pullar bilan ishlash bilan bir qatorda (ya'ni jalb qilingan mablag'lar) mijozlarni talabi ham qondiriladi.

Banklar resurslaridan samarali foydalanish uchun o'z passivlarini boshqarishni o'ta ehtiyotkorlik va qat'iy holatda olib boradi hamda bankning likvidligini va daromadlilikini ta'minlaydilar. Bank passivlarini boshqarishini quyidagilarni o'z ichiga oladi va olishi kerak.

Birinchi, passivlarni boshqarish - bankni barqaror resurslar bilan ta'minlashi.

Ikkinchi, jalb qilingan va o'z mablag'lari o'rtasida nisbatni optimal tarzda belgilashi.

Uchinchi, passivlarni boshqarish orqali kapitalning yetarlicha talablarini nazorati.

To'rtinchi, depozit turlarini salmogini ko'proq bo'lishini ta'minlashi va mulkchilik shakllarini manfaatlarini ifoda etishi.

Beshinchi, muddatli jamg'armalarga alohida e'tibor berilishi va likvidlikni ta'minlanishi.

Oltinchi, jalb qilingan resurslarni muddatlari bo'yicha joylashtirilgan aktivlarning muddatlari va summalarini mos kelishi. Yettinchi, passivlarni boshqarilishi shunday tashkil etilishi lozimki, natijaviy holatda bank foyda ko'rishi lozim. Bank passivlarini boshqarishdan maqsad bankni barqaror resurslar bazasi bilan ta'minlash bo'lib, bankning olib borayotgan yoki olib borishi lozim bo'lgan depozit siyosatiga bog'liq bo'lgan holda ularga qo'yiladigan talablarni keying qismlarda ko'rib chiqamiz.

Bank resurslarining iqtisodiy mohiyatini o'rganadigan bo'lsak, bu yuzasidan taniqli iqtisodchi olim Lavrushin O. I., quyidagicha ta'rif beradi: "Tijorat banki resurslari yoki "bank resurslari", aktiv amaliyotlarni amalga oshirish uchun o'z ixtiyoriga jalb qilingan va o'z mablag'larining jamlamasidir". Maslechenqov Yu.S. ham o'z kitobida "Bank resurslari o'z va jalb qilingan mablag'laridan tashqil topadi" deydi. Taniqli iqtisodchi olim Usoskin V.M. ham bank passivlarini ikkita katta guruhga bo'lib o'rganadi:

- Bank kapitali va unga tenglashtirilgan moddalar

- Jalb qilingan mablag'lar, depozit va nodepozit

Bizning fikrimizcha ham bank resurslariga, bankning o'z kapitali, qarzga olingan va jalb qilingan mablag'lari kirib, ulardan bankning aktiv amaliyotlarini amalga oshirishda foydalaniladi, ya'ni mablag'larni daromad olish maqsadida sohalarga joylashtirish tushuniladi. Bank resurslarining asosiy manbai sifatida uning tashkiliy tuzilishi va strategik yo'nalishidan kelib chiqqan holda bugungi kungi amaliyotda ularning salmoqli qismini jalb qilingan mablag'lar tashqil qiladi. Bankning o'z mablag'lari esa ja'mi resurslarning kichikroq ulushini tashkil qilgani holda yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajaradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek bank resurslarining tarkibida, jalb qilingan mablag'lar ham yetarli darajada katta o'rinni egallaydi. Jalb qilingan mablag'lari bank resurslari tarkibida 50% va undan ham ko'proq ulushni tashkil etishi mumkin. Banklarning rivojlanish taraqqiyotida shuning bilan birgalikda an'anaviy va xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda jalb qilingan mablag'larning tarkibida uni tashkil etuvchi manbaalarda bir qator o'zgarishlar yuzaga

kelgan, ya'ni bugungi kunda jalb qilingan mablag'lar depozit va nodepozit manbalar hisobiga shakllanayotganligini ko'ramiz. Bank resurslarining depozit va nodepozit manbaalar ham o'z o'mida bozor tizimidagi bank faoliyatining bir necha iqtisodiy unsurlardan tashkil topganligini ko'rishimiz mumkin. Bankning resurslari tarkibini ikki qismga jalb qilingan va o'z mablag'lariga bo'lib o'rganar ekanmiz, ular ham o'z vaqtida bir necha iqtisodiy unsurlarda tashkil topganligini ko'ramiz. Bulardan, bankning o'z mablag'lari umumiy olganda o'z aksiyalarini joylashtirish, shuningdek rezervlar shakllantirish, har hil fondlar tashkil etish, va taqsimlangan foyda hisobiga shakllanadi. Shuningdek banklarda boshqa nomoliyaviy tashkilotlardan farqli o'laroq, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik ozroq bo'ladi. (Boshqa nomoliyaviy tashkilotlarda 50% dan yuqori, banklarda esa 10% atrofida) Bank o'z mablag'lari tarkibi,

- 1) Aksiyadorlik kapitali (Oddiy, Imtiyozli)
- 2) qo'shimcha kapital,
- 3) zahira kapitali (Zahiralar va maxsus fondlar, devalvatsiya)
- 4) Taqsimlanmagan foyda
- 5) qayta baholash ortiqchasidan iborat.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'z mablag'lari ustav kapital, rezerv kapital, maxsus fondlar, o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydalar, rezervlar, qayta baholash natijalaridan iborat.

Shundan, bank ustav kapitali ular tomonidan chiqargan aksiyalarning nominal qiymatiga teng bo'lib, bankning boshlangich ish faoliyatida bank faoliyatini yuritishi uchun kerakli darajada mablag'ga ega bo'lish maqsadida o'zi uchun yetarli bo'lgan miqdorda joylashtiriladi. Shuningdek rivojlangan mamlakatlarda Fond bozorlariga joylashtirilgan aksiyalarning nominalidan yuqori bo'lgan bozor narhlari qo'shimcha ravishda nominalidan ortiqcha qismi qo'shimcha kapitalda hisobga olinadi. Bankning rezerv kapitali foydadan ajratmalar ajratish hisobiga maqsadli tarzda shakllantirilib uning tarkibiga, har biri yaratilgan maqsadli fondlar va zahiralar, shuningdek ko'zda tutilmagan xarajatlarni, ssudalardan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun yaratilgan zahiralar kiradi. Zahiralarning zarurligi shundan kelib chiqadiki, umidsiz bo'lgan qarzlarni qoplash va hamma kredit uchun noto'lovlarni oldini oladi. Bizning amaliyotda bank zahiralarini xarajatlarni oshirish evaziga amalga oshiriladi. Shuningdek kapitalga faqatgina jami xatarga tortilgan aktivlarga nisbatan 1,25% gina qo'shiladi. Kapitalning navbatdagi elementi bo'lib, taqsimlanmagan foyda kiradi. Bu bank egalarining ixtiyorida qoladigan mablag' hisoblanib, yil yakuni bo'yicha zahiralarga ajratish, soliqlarga to'lovlar va dividendlar uchun o'tkaziladi.

Bank kapitali yoki o'z mablag'larining jami bank resurslari tarkibida ulushi kamroq bo'lishiga qaramay, bir qator funksiyalarni bajaradi.

Ular bugungi kunda keng tarzda e'tirof etilayotgan uchta asosiy funksiyalarga:

himoya, tezkorlik va nazoratga bo'linadi. Bank aktivlarning sezilarli qismi jamg'arimachilar tomonidan moliyalashtiriladi, shuning uchun o'z mablag'lari jamg'arimachilar manfaatini ta'minlovchi himoya vazifasini Bank kapitali, o'z o'mida bank uchun "yostiqcha" vazifasini bajaradi yoki bank faoliyatini ko'zda tutilmagan xarajatlarni va zararlardan saqlanish uchun ishonch vazifasini o'taydi.

Kapitalning tezkorlik funksiyasidan o'z o'mida, bankning boshlangich faoliyatida kerakli bo'lgan bino va asosiy vositalarga manba sifatida foydalaniladi. Kapitalning nazorat funksiyasi ommaning qiziqishi va e'tiborida bo'lib bankning samarali ishlash faoliyati nazoratini ta'minlaydi. Kapitalning nazorat funksiyasi orqali davlat organlari bank faoliyatiga baho beradi va u orqali bank faoliyatiga ta'sirini o'tkazadi. Odatda kapitalga qo'yiladigan minimal miqdor va ularga belgilanadigan cheklovlami hamda ulaiga nisbatan bankning boshqa ko'rsatkichlarini nazorat qilish yoki unga nisbatan shakllantirish foydalidir. Markaziy bankning tijorat banklari nchnn belgilagan avrim iqtisodiy normativlari ham bank kapitaliga nisbatan belgilanadi va ular kredit va investitsiyalami hamda qimmatii qog'ozlar bilan operatsiyalar olib borishning maksimal miqdorini belgilaydi.

Bugungi kunda bank kapitaliga nisbatan nazorat va uni o'rganish ikki asosiy guruhlash asosida olib boriladi va ular quyidagi turlarga bo'linadi, shundan:

I darajali kapitalga:

- Muomaladagi aksiyalar
- qo'shimcha kapital
- Zahiralar
- Taqsimlanmagan foyda

II darajasi kapital

- Joriy yil sof foydasi
- Subordinar qarzlari

Bu yerda I darajali kapital ja'mi kapitalning 50% dan ko'p bo'lishi talab qo'yilgan.

Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan hamma funksiyalar bank faoliyatida xatar darajasini kamaytirishga qaratilgan bo'lib, bankni samarali boshqarish sharoitini yuzaga keltiradi.

3.3. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining mablag' ta'minoti

Bank resurslarini barqarorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri ulami samarali boshqarishdir va boshqarish quyidagi turlarini ko'rishimiz mumkin. Birinchisi yuqorida ko'rib o'tganimizdek, bankda yuzaga kelgan likvidlik muammosini qo'shimcha pul mablag'larini kapital bozorida sotib olgan holda jalb etishning nodepozit usullaridan foydalanib hal etib borish mumkin.

Ikkinchisi - tijorat banki o'z likvidligini Markaziy bankdagi keng miqyosdagi qarzga beriladigan pul mablag'laridan yoki boshqa banklardan qarzga olinadigan qarzlardan foydalanib ta'minlashi mumkin. Keyingi yillarda banklar o'z barqarorliklarini ta'minlash uchun keng miqyosda qarz olishdan foydalanmoqdalar.

Bank resurslarining muhofazasining ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan ham bir qator tadbirlar ishlab chiqilganligini ham inobatga olgan holda.

ayrim amaliyotlarga cheklovlami ham keltirib o'tishimiz mumkin, masalan dahldor shaxslar bilan amaliyotlar hamda bir kredit oluvchiga nisbatan kreditning maksimal miqdorini belgilanishi, hamda kapitalning adekvatligiga qo'yiladilar talablarni ham shu yulda qilingan ishlar qatorida olishimiz mumkin.

Resurslar barqarorligi masalalarini ko'rayotganda omonatlamini kafolatlanishiga

ham e'tibor qaratish lozim. Chunki ushbu holatning borligi mijozlarning banklarda mablag' saqlash psixologiyasiga ta'sir etuvchi eng zarur omil hisoblanadi.

Shuningdek, hamma rivojlangan davlatlarda o'ziga xos omonatlar ta'minlash tizimlari bor, masalan Amerika, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarda ham omonatlarining sug'urtalari federal tarzda yoki umumijburiy hamda chegaralangan amaliyotlar uchun sug'urta tizimi mavjud. Ayrim davlatlarda esa nafaqat omonatlar balki butun bank aktivlariga nisbatan sug'urta amaliyotlarini olib borilishi ham ko'zda tutilgan. Bu esa bank tizimida iqtisodiy inqirozlarning olinishi, omonatlarining tijorat banklariga ishonchini saqlab qolishda o'z ahamiyatini ko'rsatmay qolmaydi.

Shuningdek, bizning amaliyotda ham Banklar omonatlarini himoya qilish (jismoniy shaxslarni) maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2002 yildagi 326 sonli qarori bo'yicha "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi" tashkil etilgan. Fond faoliyatining maqsadi, bankning bank operatsiyalarining amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasi Markaziy bank tomonidan chiqarib olingan taqdirda fuqarolarning banklardagi omonatlariga ham to'lanishini qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarda va miqdorda kafolatlashdan iboratdir.

Fuqarolar omonatlari sug'urtasi bo'yicha qilinayotgan ishlarni o'z vaqtida qilingan ijobiy ish ekanligini ta'kidlab o'tish e'tiborga loyiqdir. Hukumat tomonidan yaratilgan yuqoridagi imtiyozlar yaratilganligi tijorat banklariga yana bir bor o'z faoliyati aktivlikni oshirishni talab etadi. Shuning bilan birgalikda banklar uchun hoziq iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqan holatda bank resurslarini shakllantirishda qimmatli qog'ozlar faoliyatini yanada rivojlantirishlari maqsadga muvofiqdir, chunki ular banklar likvidligiga ta'sir ko'rsatadi, to'lov tizimida yengilliklar olib keladi hamda Markaziy bankdan hisobga olish amaliyotini oshirish orqali pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanish osonlashtiradi.

Plastik kartalar amaliyoti ham bank resurslarini shakllantirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi, chunki ular doimiy jamg'arish vositasi sifatida ko'proq ishlatilishi bir tarafdin bank resurslari mustahkamligini ta'minlaydi, ikkinchi tarafdin iqtisodiyotdagi pul - kredit siyosatini olib borishda oz bo'lsada yengillik berar edi.

Bank o'z faoliyatida omonatning bir qator turlarini amaliyotga tadbiiq etgan, lekin shuni aytish kerakki, shunday bulsa ham aholi omonatlari bo'yicha olib borilayotgan ishlar ta'lab darajasiga bormay qolmoqda, chunki aholi jamg'armalarining ulushi o'rtacha hisobda 6-7 foizdan oshmay kelmoqda. Fikrimizcha bank ko'proq sertifikatlar bilan ishlarni amalga oshirishni ko'paytirishi kerak, chunki u bu yerda ortiqcha hujjatli ishlarni kamayishi hamda mijoz uchun qulayligi hamda bank uchun esa buning uchun hech qanday majburiy zahiralarni to'lovi amalga oshirmasligi va uning hisobiga kredit potensialni oshirishga olib keladi.

Shuning bilan birga bank o'z faoliyatini quyidagilar bilan to'ldirishi lozim.

Depozit, kredit va boshqa operatsiyalarini bankning barqarorligini ta'minlashi bo'yicha bog'liqligini yanada kuchaytirishi.

Risklarni kamaytirish uchun resurslarni diversifikatsiya qilinish lozim.

Depozit portfelni turkumlash (mijozlar bo'yicha);

Mijozlarni turidari bo'yicha individual yo'nalish olib borish; xizmatlarning raqobatbardosh bo'lishi.

Bu holat bo'yicha banklar o'rtasidagi kredit resurslari bozorini "O'zbekiston Valyuta biijasida emas, balki soddaroq shaklda va o'rta banklar ham kira olishi mumkin bo'lgan sharoitlarda "O'zbekiston Banklari Assosasiyasi qoshida yuritilishi hamda unifikatsiyalashgan shartlar tizimini tashkil etish yoki banklar uchun resurslarning elektron bozorni tashkillashtirish choralarini ko'rilsa, bu ko'proq bank resurslariga bo'lgan talab va taklifni optimal tarzda shakllantirilishiga hamda bank tomonidan ularning diversifikatsiyasiga va foydalanish samaradorligini ortishiga olib kelar edi.

3.4. Banklarning depozit operatsiyalari

Depozit - lotincha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda saqlash uchun topshirilgan buyum ma'nosini bildiradi. Iqtisodiyotda esa mijozning o'z mablag'ini vaqtincha foydalanish uchun bankga topshirish natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatni tushuniladi.

Respublikamizda banklarning depozit va unga bog'liq amaliyotlari quyidagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi:

- "O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" qonun, 1996 yil 25 aprel

- "Banklarning depozitlari to'g'risida" nizom, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki" 28.03.1997 y, № 319

- "Bank depozit sertifikatlarining chiqarish, ro'yxatga olish va muomalasi tartibi" to'g'risida "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 24.12.1994, № 103, "O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, 09.11.1998, № 522

- "Markaziy bank depozit sertifikatlari ni chiqarish to'g'risida" nizom, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 26.12.1998, № 434, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 09.02.1999 № 624

- "Vakolatli banklariga erkin ayriboshlanuvchi valutada taqdim etuvchiga depozitlarni mukammallashtirish to'g'risida" nizom, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 20.02.1999 N9 439, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 15.03.1999 y № 673

- "Banklarning veksellar bilan operatsiyalar o'tkazish" to'g'risida tartib "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 30.05.1995 y.

Talab qilib olguncha depozitlar yoki tranzaksion hisoblar, bankning nozarqaror resurslar manbasi turkumiga kiritilib, ular hisobidan jamg'armachi va hisob varaq egalari to'lovlarni amalga oshirish yoki undagi qoldiqlar uchun chek olish huquqini beradi. Bundan tashqari, ushbu depozitlarning egasi o'z talabiga ko'ra belgilangan tartibda naqd pul ham talab qilib olishi mumkin. Ushbu depozitlarning tarkibiy qismini hamda tashkil qiluvchi asosini davlat, qorxonalar va tashkilotlar hamda firmalar, individual shaxslarning saqlayotgan mablag'lari kiradi. Talab qilib olguncha depozitlar bank jalb qilingan mablag'lari tarkibida ko'proq qismini tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda ushbu depozitning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ulardagi mablag'lar egalari tomonidan istalgan vaqtda talab qilib olinishi va o'z ehtiyojlari uchun ishlatilishi mumkin. Shuning uchun ushbu depozit turi banklar uchun tashkiliy xuquiy asosiga ko'ra boshqalariga nisbatan ancha arzon resurs turi hisoblanib, bugungi kunda

ushbu omonat turi bo'yicha ulaming egalariga banklarning depozit siyosatlaridan kelib chiqqan holatda turlicha belgilanib ulardagi qoldiqlar uchun o'rtacha yillik 10% atrofida foiz to'lanmoqda.

Muddatli depozitlar o'z nomidan kelib chiqqan holda mijozlarning ma'lum muddatlarga saqlash va foiz shaklida daromadlar olish uchun banklarga qo'ygan mablag'larini tushunish mumkin. Uni tashkil etuvchi mablag'lar bank va mijoz o'rtasidagi tuziladigan depozit shartnomasi asosida oldindan belgilangan va kelishib olingan aniq muddatlarga qo'yiladi, shuningdek ularning qabul qilinish va amalda bo'lish shartlari va turiari o'z mohiyatidan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin.

Buning boshqa depozit turlaridan ustunlik tomonlari mijozlarga qo'ygan mablag'lari uchun muddatlari va hajmlaridan kelib chiqqan holda bank tomonidan oldindan shartnoma shartlariga asosan ma'lum qat'iy yoki o'zgaruvchan foizlar to'lanadi.

Depozit bazasi mustahkamligini ta'minlashda banklar tomonidan hamda tashkiliy me'g'riy asoslaridan kelib chiqib ushbu depozit turining quyidagi turlarga ajratib olingan bo'lib, bo'lar quyidagicha tavsiflanadi:

30 kungacha bo'lgan depozitlar;

90 kungacha bo'lgan depozitlar;

180 kungacha bo'lgan depozitlar;

1 yilgacha va undan yuqori bo'lgan depozitlar;

Depozitlarning bunday tabaqalanishi xalqaro amaliyotda hamda "O'zbekiston banklari amaliyotida keng qo'llanib kelinmoqda. Shuningdek 1 yildan yuqori bo'lgan depozitlarga alohida e'tibor qaratiladi, chunki ushbu depozitlar bank uchun barqaror resurslar tarkibiga kiradi va bank uchun uzoq muddatga mablag' investitsiya qilish uchun o'ziga xos sharoit yaratib beradi. Iqtisodiy holatdan kelib chiqqan holda ayrim davrlarda ushbu depozit turi bo'yicha mijozlar uchun qo'yish u darajada foydali bo'lmasligi mumkin. chunki o'sha davrdagi iqtisodiyotdagi inflyatsiya sur'ati va pulning qadrsizlanishi pulning to'lov qobiliyatini yoki qiymatini tushirib yuborishi mumkin. Lekin ushbu holati bo'yicha bizdagi muammo to'liq yodilgan va omonatchilar o'z mablag'larini banklarga ishonishi mumkin. Bugungi kunda ja'mi muddatli depozitlarning qoldig'i bank jalb qilgan mablag'larga nisbatan ulushi 10-20% foizni tashkil etgani holda hozirda hamma tijorat banklarida ushbu holatni kuzatishimiz mumkin.

Depozitlarning yana e'tiborli turlaridan jamg'arma depozitlari hisoblanadi, bo'larga aholining yoki korxonalarining jamg'arish va saqlash maqsadida banklarga qo'ygan mablag'lari kiradi. Buning depozit turining e'tiborli jihati shundaki ularning belgilangan aniq muddatlari bo'lishi yoki bo'lmasligi ham mumkin. "O'z nomidan kelib chiqqan holda aniq maqsadlar uchun yoki bank tomonidan taklif etilgan jamg'arma turi mablag' qo'yilishi amalga oshiriladi. Bu yerda aholi uchun alohida e'tiborli tarafi uning hisobi mijozning jamg'arma kitobchasida yuritilib u asosida pul mablag'larining hisobi olib boriladi va u kitobchada ushbu depozit turi bo'yicha hamma amaliyotlar yuritiladi. Jamg'arma depozitlar - Bank udum resurslari bazasini mustahkamligini ta'minlovchi hamda resurslar sifatida ishlatilishi yengillashtiruvchi asosiy manbaalardan biri hisoblanadi va jamg'armachi uchun o'z jamg'armalarini

to'plash va ulami jamg'arish bilan birga salmoqli darajada foiz daromadlaiga ega boiishini ta'minlaydi.

Ushbu depozit turini bankning depozit siyosatidan kelib chiqqan holda xalqaro va an'anaviy tajribalardan kelib chiqib jalb qilishning turli usullariga taqsimlashimiz mumkin: Muddatli Taqdim etuvchiga Yutuqli Plastik kartalari bo'yicha boshqa maxsus jamg'armalar Depozitlar bankning asosiy resurs manbasi sifatida tavsiflanadi, shu bilan birgalikda ular tashkil etish jarayonida o'ziga xos muammolami yuzaga keltirishi mumkin. Masalan ularni jalb qilish o'ziga yarasha marketing ishlari va ular bilan bog'liq bo'lgan xarojatlami keltirib chiqarishi mumkin. Boshqa tomondan qaraganimizda bank uchun ko'zda tutilgan aktiv operatsiyalardan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan y o 'q o tish larn i oldini olish yoki ma'lum maqsadli investitsiya jarayonini amalga oshirish istalgan vaqtda kerakli resurslami yig'ib olish imkonini bermaydi. Shu jumladan pul mablag'larini jamg'armalarga jalb qilish ko'p hollarda bankga emas, balki mijozga bog'liq bo'ladi. Uni kerakli darajada va ko'zlangan miqdorda jalb qilishga ta 'sir etuvchi omillar sifatida raqobatdosh banklarning taklif etayotgan foizlar yoki boshqa sabablarini ko'rsatish mumkin. Bunday hollarda banklar banklararo qarzlar yoki boshqa nodepozit instrumentlarga murojaat qiladilar va buni ko'rib o'tamiz.

3.5. Banklarning nodepozit mablag'lari manbalari

Bank resurslari tarkibida yoki banklarning passiv operatsiyalarda tijorat banklarining banklararo depozitlar ham muhim o'rinni egallaydi. Xususiyatiga ko'ra banklararo depozitlar muddatli yoki muddatsiz bo'lishi mumkin, ular yirik miqdordagi aktiv operatsiyalami amalga oshirish uchun ishlatilib, turli maqsadlar hisobiga shakllantiriladi. Banklararo depozitlar tarkibiga yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda banklar tomonidan o'zaro yuritiladigan korrespondent hisob kitoblami ham kiritish mumkin, chunki o'zaro hisob kitoblami amalga oshirishlari hamda bir birida depozit qoldiqlariga ega bo'lishlari o'zaro hisob kitoblami yanada soddalashtiradi. Yuqoridagilarni ko'rib chiqqan holda, bank resurslari tarkibining ikkilamchi manba bilan tanishib o'tamiz. Ulaming e'tiborli xususiyati shu yerdaki ular asosan ikkilamchi yo'llar bilan jalb etiladi va aniq maqsadlar bank likvidligini saqlab qolish, yirik maqsadli investitsiyalami tez muddatlarda amalga oshirish uchun qo'llaniladi. Ularning turiari tashkiliy tuzilmasi quyidagi chizma (2) da keltirilgan.

Chizma (2) da ko'rsatilgan instrumentlar bankga resurslarini jalb qilishning ikkilamchi yoki nodepozit usuliga kiradi, ya'ni depozit sertifikatlarini chiqarish, obligatsiyalar, bank veksellari va boshqa qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar olib borish.

Bular depozit manbalardan farqli o'laroq o'z egasiga ya'ni mablag* joylashtiruvchiga mablag' qo'yganligini tasdiqlovchi egalik huquqi to'g'risida maxsus hujjatlari asosida ta'minlanishi yoki ko'zda tutilgan shartnomalar asosida sotib olinishi mumkin.

Banklarning pul bozoridagi marketing tadqiqotlarini olib borish bilan birga, resurlar bozoridagi talab va taklif asosida shakllangan pul mablag'larini bank omonatlariga jalb qilishning zamonaviy usullari deb qarashimiz mumkin. Bu usullardan biri

qimmatli qog'ozlar toifasiga kiruvchi yoki uning bir ko'rinishi bo'lgan bank depozit sertifikatlaridir.

Mablag' jalb etishning nodepozit usullaridan yana bir turi banklararo kreditlar hisoblanadi. Banklararo kreditlar - Markaziy bank yokivaqil bankdan qarz olish zahiralaming holatini tuzatish va likvidlikni saqlash uchun mablag'lami safarbar etishning "hisob oynasi" deb nomalangan bir usulidir. Zahiralarni barobarlashtirib borishning usuli keng yig'ilmagan bo'lsa-da, bunday qarzlar Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi.

Mablag' joyUshtirishdan naf ko'rishdan tashqari, kreditor banklar bank faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha ham amaliy sheriklik munosabatlari o'rnatish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Moliyaviy barqaror banklardan tashqari, tashkil qilinish va rivojlanish bosqichida turgan banklar bo'sh kredit resurslariga ega bo'ladilar.

Kredit resurslarining o'mini qoplash muddatlari turlichadir. Xalqaro amaliyotda 1,3 va 6 oy muddatlardagi depozitlar, bir kundan bir necha yilgacha eng yuqori muddatlilar ko'proq tarqalgan. BAK (Banklararo kreditlar) bo'yicha stavka odatda, xo'jalik yurituvchilarga berilgan kreditlar bo'yicha belgilanadigan foiz stavkalaridan pastroq bo'ladi va Markaziy bankning rasmiy hisobga olish stavkasiga muvofiq ravishda tuzatiladi. Qarz oluvchi bank boshqa banklardan kredit resurslari jalb etishga uning o'z mijozlarining qarz majburiyatlariga bo'lgan extiyojlarini qondirish, ya'ni o'z kredit qo'yilmalarini kengaytirishi hamda bank likvidligini tartibga so lib borish zaruriyati sabab bo'ladi. BANK jalb etish ikkita usulda, mustaqil ravishda, to'g'ridan to'g'ri muzokaralar yo'li bilan yoki moliyaviy vositachilar orqali amalga oshiriladi.

rasmiylashtiriladi. Kredit resurslarini qarzga olgan bank ulaming qaytarish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u boshqa banklarning muddatli qarzlardan foydalanadi.

Zahira fondlarni olish - likvidlikni ta'minlash maqsadida kreditlar foydalanishning keng tarqalgan usullaridan biridir. Ushbu fondlar Markaziy bankdagi hisob varog'larda saqlanadigan depozit qoldiqlaridir. Kutilmaganda qo'yilmalar oqimi kela boshlagan yoki ssudalar qisqargan taqdirda tijorat banklarida ortiqcha zahiralar yuzaga kelishi mumkin. Bu mablag'lar daromad keltirmasligi sababli, banklar ulaming qisqa muddatga boshqa banklarga foydalanish uchun berib qo'yadilar. Zahiralar majburiy hajmni tiklash yoki aktivlar sotib olish uchun mablag'ga muxtoj bo'lgan banklar esa ushbu ortiqcha mablag'lami bajonidil sotib oladi.

Zahira fondlariga oyi bir kunlik operatsiyalar o'z mohiyatiga ko'ra, ssudalar bilan ta'minlanmagan bo'ladi. Ba'zan banklarning biri boshqasiga davlatning qimmatli qog'ozlarini sotadigan bo'lsa, bitim qaytarib sotish to'g'risidagi bitim shaklini kasb etadi. Qaytarib sotib olish to'g'risida bilimlar - Zahira fondlariga oid banklararo operatsiyalaiga qo'shimcha ravishda banklar bilan davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha dilerlar hamda boshqa investorlar o'rtasida shularga o'xshash bitimlar amalga oshiradi. Bular oddiy qilib "REPO" deb nomlanadi. Bunday bitimlarda aktivlami qaytarib sotib olish shartlari asosida belgilangan kunda va oldindan kelishilgan narxda amalga oshiriladi. Bunday bitimlar vaqtincha bo'sh mablag'lar uchun muhim kanal bo'lib qolgan. Chunki ular ikkala tomonning ehtiyojlariga moslashtirish oson.

Ular bir kundan bir necha oylaigacha cho'zilishi mumkin. Chunki bank zahiralari barobarlashtirishning eng yaxshi vositasi "Repo" bitimlaridir.

3.6. Depozit sertifikatlari bozori va uni O'zbekistonda rivojlanish istiqbollari

Bank depozit sertifikatlari - bank resurslar manbasiga qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilishning bozor mexanizmiga xos bo'lgan usullaridan biri bo'lib, bank tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishda va resurs bazasining mustahkamlanishida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda depozit sertifikatlar amalda bo'lish qoidalari va bozori shartlarini tashkil etish va ulaming muomalasini tartibga solish maqsadida, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan "Banklarning depozit sertifikatlarini chiqarish, ro'yxatga olish va muomalada bo'lish qoidalari" ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur tartibga asosan Respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga mo'ljallangan o'z depozit sertifikatlarini chiqarib kelinmoqda. Bank tomonidan chiqarilayotgan sertifikatlar xalqaro amaliyotda va bizning qonunchilikda belgilangan shartlar bo'yicha ikki turda chiqarilishi mumkin:

Yuridik shaxslar uchun mo'ljallangan - depozit sertifikatlari. Jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan - jamg'arma sertifikatlari. Depozit sertifikatlari - bu qimmatli qog'oz bo'lib, emitent bank pul mablag'larining omonatga qo'yilganligi haqidagi guvoxnomasidir va u omonatchiga yokiuning huquqiy vorisining depozit summasini va unga tegishli foizlarni belgilangan muddat tugagandan so'ng yokiko'rsatilgan shartlar bo'yicha oldindan olish huquqini tasdiqlaydi. Xuquqiy jihatdan yondashadigan bo'lsak depozit sertifikatlar bankning qarz majburiyati hisoblanib, u orqali jalb qilingan mablag'larga ma'lum muddatga egalik qilish hisobiga sertifikat egasiga tegishli foiz to'lovlarini amalga oshiradi. Sertifikatning chiqarilishi va muomalada bo'lish sharoitida dastavval belgilab qo'yilgan stavkalar yoki o'zgaruvchan foizlar bo'yicha to'lov amalga oshiriladi. Sertifikat bo'yicha foiz to'lovlari uning muomalada bo'lish muddati tugagandan keyin yoki sertifikatda ko'rsatilgan shartlar bo'yicha oraliq davrlarda uning egasiga tegishli foizlarni emitent - bank ushbu sertifikat qachon sotib olinganligidan qat'iy nazar to'laydi.

Bugungi kunda depozit sertifikatlarning oldi-sotdi va foiz to'lovlari faqat pul ko'chirish yo'li bilan, milliy valutamiz so'mda amalga oshirilishi shuningdek qat'iy valutada chiqarilgan sertifikatlar qonunda belgilangan tartibda xorijiy valutada to'lanishi mumkin.

Jamg'arma sertifikatlari - bankda jismoniy shaxs tomonidan omonatga pul qo'yilganligi to'g'risidagi bankning guvoxnomasidir, jamg'arma sertifikatning egasi jismoniy shaxs bo'lib, bankning unga naqd pul ko'rinishida qo'yilgan jamg'armalari bo'yicha majburiyatlaridir. Jamg'arma sertifikatining o'zgachaligi u faqatgina aholi uchun chiqariladi va uning egasi aholi bo'lishi mumkin. U bo'yicha foiz to'lovlari ham depozit sertifikatlarda ko'rib o'tilgan shartlar asosida amalga oshiriladi.

Depozit sertifikatlari 1 yilgacha (sertifikat chiqarilishi sanasidan toki sertifikat egasi sertifikat bo'yicha omonatni talab qilish huquqini olgan sanagacha) bo'lgan muddatga

chiqariladi. Jamg'arma sertifikatlari esa 3 yilgacha muddatga chiqarilishi mumkin. Agar sertifikat bo'yicha depozitni yoki omonatni olish muddati o'tib ketgan bo'lsa, bunday sertifikat talab qilib olinadigan hujjat hisoblanadi va o'tib ketgan darv uchun bank unga foizlar to'lash majburiyatini olmaydi va bank ushbu hujjatda ko'rsatilgan shart bo'yicha egasining birinchi talabi bilan to'lash majburiyatini oladi.

So'nggi vaqtlarda depozit sertifikatlari banklar uchun juda ham o'zgaruvchan resurs sifatida qaralmoqda, chunki ularga to'lanadigan foizlar kreditlarga to'lanadigan foiz stavkalari bilan birgalikda o'zgarib turadi. Shuning uchun depozit sertifikatlariga xalqaro amaliyotlarda boshqariladigan passivlar sifatida qaralmoqda.

Qisqa xulosalar

Depozit - lotincha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda saqlash uchun topshirilgan buyum ma'nosini bildiradi. Iqtisodiyotda esa mijozning o'z mablag'ini vaqtincha foydalanish uchun bankga topshirish natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatni tushuniladi. Depozit sertifikatlari - bu qimmatli qog'oz bo'lib, emitent bank pul mablag'larining omonatga qo'yilganligi haqidagi guvohnomasidir va u omonatchiga yoki uning huquqiy vorisining depozit summasini va unga tegishli foizlarni belgilangan muddat tugagandan so'ng yokiko'rsatilgan shartlar bo'yicha oldindan olish huquqini tasdiqlaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bank mablag'lari tushugchasi va ularning tuzilishi
2. Bankning depozit operatsiyalari
3. Bankning nodepozit mablag'lari
4. Bank kredit potentsiali
5. Tijorat banklari mablag'larini ta'minoti va barqarorligini tahlili
6. Bank kredit mablag'lari. tuzilishi
7. Bank kapitali va unga qo'yilgan talablar
8. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari mablag'lariga qo'yiladigan talablar va iqtisodiy normativlar
9. Bank tizimi va aholi jamgarmalari
10. Tijorat banklari passivlarini boshqarish muammolari

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш. З. "Банк иши". -Т.: 2003.
2. Дон Патинкин. Денги, процент и цены.-М.: Экономика, 2004.
3. Лаврушин О.И. и др. "Банковское дело". -М.: Ф и С 2003.
4. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг меъёрий хужжатлари тўплами.Т.: 2003.
5. Соколов Ю.А.. Амасова Н.А. Система страхования банковских рисков. Науч изд.-М.: ООО изд Элит, 2003.
6. <http://www.bankofengland.co.uk/market/money/index.lnm>
7. <http://www.bankofengland.co.uk/coreuproses.htm>

MAVZU: MAVSUMIY XARAKTERGA EGA BO'LGAN TURLI MULKKA ASOSLANGAN TARMOQLARNI KREDITLASH

Reja:

- 4.1. Mavsumiy xarakterga ega ishlab chiqarish tarmoqlari kapitalining aylanish xususiyatiari
- 4.2. Qishloq xo'jaligiga kredit berish tartibi
- 4.3. O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari va bunda banklarning o'rni

4.1. Mavsumiy xarakterga ega ishlab chiqarish tarmoqlari kapitalining aylanish xususiyatiari

Qishloq xo'jalik korxonalarini kengaytirilgan talablar ishlab chiqarish zaminida rivojlantirish uchun saqlanayotgan barqarorlik maqsadiga aylanish xususiyatiari hisoblanadi. Qishloq xo'jalik korxonalaridagi mavsumiy mablag'larning mohiyati va shakllanish manbalarini mantiqan quyidagicha turkumlash mumkin.

Korxonaning mavsumiy mablag'larga bo'lgan talabi Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanishi maqsadga muvofiqdir. Lekin o'tish davrining hozirgi bosqichida korxonalar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar buzilishi oqibatida ularning mavsumiy mablag'larga bo'lgan yuqori darajadagi talabi o'z va unga tenglashtirilgan hamda qayta taqsimlash natijasida shakllantirilayotgan mavsumiy mablag'lar hisobidan to'liq qondirilayotgani yo'q. Shuning uchun aksariyat qishloq xo'jalik korxonalarini vaqtincha bo'sh bo'lgan mavsumiy mablag'larni chetdan jalb etishga, ulardan oqilona, samarali foydalanishga katta e'tibor berilmoqdadir. Hozirgi davrda mavsumiy mablag'lar tarkibida bank kreditlari eng muhim va ahamiyatli o'rin tutadi.

Ular faoliyat ko'rsatayotgan xo'jaliklar uchun samarali natijalarga erishish vositasi hisoblanadi. Korxonalarining o'z mavsumiy mablag'lari hamda chetdan jalb etilgan mavsumiy mablag'larining aksariyat qismi ularning aylanma kapitalini to'ldirishga va kengaytirilgan takrorishlab chiqarishni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

Aylanma mavsumiy mablag'larining tarkibi va tuzilishi turli omillar ta'sirida vujudga keladi.

Ular xo'jalikning ishlab chiqarish yo'nalishi, ixtisoslashuvi, iqlim sharoitlari iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, yetishtirgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarini realizatsiya qilish jarayonlari hamda shu kabi faoliyat natijalariga bog'liq bo'ladi.

Korxonaning qo'shimcha aylanma mavsumiy mablag'larga ehtiyojini o'z manbalari hisobidan moliyalashtirish mumkin, biroq joriy moliyalashtirishning eng qulay va tez moslasha olishi qisqa muddatli kreditdan foydalanish hisobiga ta'minlanishi mumkin. Joriy moliyalashtirish manbalariga ehtiyojni aniqlash uchun aylanma mavsumiy mablag'lar ikki kismga bo'linadi:

B doimiy aylanma mavsumiy mablag'lar (aylanma aktivlarning muntazam qismi). unga ehtiyoj butun operatsion davr davriy bo'yida nisbatan o'zgannasdir:

o'zgaruvchan aylanma kapital (joriy aktivlarning o'zgarib turuvchi qismi), unga ehtiyoj u to'liq yo'q bo'lishiga qarab sezilarli bo'lmagan darajada o'zgaradi.

Bu bo'linish joriy aktivlarni moliyalashtirishning to'rtta taniqli modellari asoslariga qurilgan bo'lib, ular korxonaning joriy moliyalashtirishda qisqa muddatli inajburiyailarning roli nuqtai nazaridan o'zaro farq qiladi. Qarz berish shartnomalari asosida qarz pullar va mablag'lar jalb etiladigan moliyaviy veksellar pul, kreditbozorining mustaqil sementini o'zida ifodalaydi.

Odatda iqtisodiy jihatdan o'zaro ta'minot, texnologik zanjir bilan o'zaro bog'lik bo'lgan korxonalar kreditlar bilan ta'niinlanadi. Bunda aynan xo'jalik vazifalari, masalan ta'minot yoki sotishning kafolatlanganligi -hal etiladi, shuning uchun kredit yuzasidan to'lov turli kredit bitimlarida sezilarli darajada o'zgartirilishi mumkin, shunga qaramay pul bozorida umumiy vaziyat, qayta moliyalash Stavka darajasi ham hisobga olinadi. Xo'jalik kreditining o'ziga xos turi qarz berish shartnomasi asosida jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb etishdan iborat.

4.2. Qishloq xo'jaligiga kredit berish tartibi

Agrar sektorini isloh qilish yoki ta'minotni rivojlantirish strategiyasini belgilashda dehqon o'zining ijtimoiy va ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan eng asosiy o'rinda turishi lozim. Prezidentimizning 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmonida dehqonning barcha muammolari bosh mezon qilib olingan.

Yuqoridagi l - c h i z m a d a n k o ' r i n i b t u r i b d i k i , r e s p u b l i k a n i n g y e t a k c h i muassasalari, idoralari va tashkilotlari agrar soha bilan bog'liqdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning ustivor yo'nalishlaridan biri -bu kichik dehon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishdir. xo'jaliklariga qulayliklar yaratilmoqda va imtiyozlar berilmoqda. Xususan yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari ikki yilgacha barcha turdagi soliqlardan ozod etilganini ularga boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun kreditlar ajratilayotgani soharivojida muhim omil bo'lmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 maydagi 195-sonli "Tijorat banklarining kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 195-sonli qarorida banklar foydasining 25 foizigacha miqdorini ajratish hisobiga imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi tashkil etilishi qayd qilingan. Shu bilan birga, qarorda tijorat banklarining mazkur jamg'arma hisobidan kreditlash evaziga olgan daromadlari imtiyozli kreditlash jamlannasini ko'paytirishga yo'naltirilgan takqirda 5 yilgacha soliqdan ozod qilishdek rag'batlantirish mexanizmi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi kredit turiari mavjud:

1. Dastlabki (boshlang'ich) kapital (sarmoyani) shakllantirish krediti. (366.10.09.2001)

Manbasi- 1) Biznes fond mablag'i - 50 % 2) DFX qo'llab-quvvatlash jamg'armasi

50 % gacha Sharti - davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng 6 oygacha - Mikrofirma va dehqon xo'jaliklariga (yuridik shaxs maqomiga ega) - 150 minng ish haqi. Kichik korxonalar va fermerlarga - 300 baravar miqdorida. Muddati - 3 yilgacha. Foizi - MB

qayta moliyalashtirish stavkasining oltidan bir qismi. Foizlami 12 oyga kechiktirish va asosiy qarzni 18-24 oy o'tgach qaytarish.

II. Tijorat banklari foydasining 25 % mikrofirmalar, kichik va DFX – imtiyozli kreditlash. Ushbu kreditlardan olinadigan daromadlar 5 yilga daromad solig'idan ozod qilinadi va yana maxsus jamg'armaga yo'naltiriladi (2000.04).

Depozit stavkasi (50 % MB Qayta Moliyalash stavkasi (75 % bo'lishi kerak.

Tijorat banklari tomonidan aholidan, DFX qishloq xo'jalik mahsulotlari

Узбекистон Республикаси Маркази й банки мсърнй хужжатллри туплами. -1:2 xarid qiluvchi tayyorlov tashkilotlarga hisob-kitob uchun mahsulot hajmini 100 % miqdorida naqd pul berishi mumkin.

Agarda tayyorlov tashkilotlarida xarid qilish bo'yicha shartnomalar tuzilgan bo'lsagina banklar pul mablag'larini beradilar.

III. (902. 29.02.2000) Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarini (milliy va chet el va lyutasida mikrokreditlash) Kredit miqdori - 5000 \$ - bozor ko'rsida.

Muddati - 3 yil. 50 % 1,5 yil ichida. Berish tartibi - naqd pulsiz va naqd pul.

Foizi - kelishuv asosida, biroq Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi miqdoridan oshmasligi kerak.

Ta'minoti –

1) Mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi

2) Bank yoki sug'urta tashkiloti kafolati

3) Uchinchi shaxsning kafilligi

4) Sug'urta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytaraolmaslik xatarini sug'urta qilinganligi to'g'risida sug'urta polisi

5) Fuqarolar yig'inlarining mahalla, qishloq, ovul kengashlari kafUligi.

Tijorat banklari tomonidan chet el valutasidagi mikrokreditlar o 'z kredit resurslari va chetdan jalb qilingan kredit mablag'lari, jumladan, xorijiy banklarning kredit liniyalari hisobidan amalga oshiriladi.

IV. (903. 29.02.2000) Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan fermerlik xo'jaliklari va kichik biznesning boshqa subyektlarini milliy va chet el valutasida mikrokreditlash.

Miqdori - 10000 \$ AQSh (bozor kursi bo'yicha) milliy valutadir. Muddati - 3 yil.

Berilishi - naqd pulsiz va 18 oyda qaytarish sharti bilan naqd pulda.

Mikrokreditlar - bankning maxsus imtiyozli jamg'armasidan berilsa foizi imtiyozli bo'lishi mumkin. Hujjatlari:

1) Kredit olish buyurtmasi;

2) pul oqimi tahlili majburiy tarzda ko'rsatilgan biznes reja;

3) oxirgi hisobot Davlat soliq xizmatining mahalliy idorasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik balansi;

4) debitorlik va kreditorlik qarzi haqidagi ma'lumotnoma, shuningdek 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlikni solishtirish dalolatnomaldari, moliyaviy natijalari haqida hisobot.

Chet el valutasidagi mikrokreditlar banklar bilan qarz oluvchilar o'rtasida tuziladigan

kredit shartnomalarida belgilanadigan tijorat shartlari asosida naqdsiz shaklda beriladi. Chet el valutasida berilgan kreditlar bo'yicha foizlaming to'lovi, to'lov sanasidagi biiijadan tashqari valuta bozori kursi bo'yicha milliy valutada amalga oshiriladi. Asosiy qarzni to'lash chet el valutasida amalga oshiriladi, qarzdoming chet'el valutasidagi hisob raqamida mablag' mavjud bo'lmagan taqdirda - to'lov sanasidagi biiijadan tashqari valuta bozori kursi bo'yicha milliy valutada to'lanishi mumkin.

V. (907. 07.03.2000) Tijorat banklar tomonidan fermer xo'jaliklari va kichik milliy valutada kreditlash tartibi.

Kredit muddati - 1) KO' B subyektlari oborot mablag'larini to'ldirishga - 1 yil.

2) Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tashkil etuvchi fermer xo'jaliklariga (yuridik shaxs maqomiga ega) oborot mablag'larini to'ldirishga kamida 2 yilga.

3) investitsion loyihalarni moliyalashtirishga barcha subyektlariga 5 yilgacha beriladi. Berilgan kreditlarni qaytarish 12 oydan oshmasligi kerak. qishloq xo'jaligiga berilgan kreditlar esa 30 oydan oshmasligi kerak.

VI. AT'Tadbirkorbankning" kredit liniyalari hisobidan tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga kredit berish hamda lizing kompaniyalari tomonidan lizingni amalga oshirish tartibi.

VII. Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida NIZOM (2004.01)

VIII. Fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yyyetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida.

Bugungi kundagi yana bir dolzaib masalalardan biri bo'lgan "Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xom ashyod va g'alla yetishtirish bo'yicha fermer xo'jaliklarining xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlashning vaqtinchalik Tartibi" ishlab chiqildi.1 Qishloq xo'jaligi korxonalarini (jamoat xo'jaliklari, shirkat xo'jaliklari, dehqon va fermer xo'jaliklari) kreditlash alohida "kredit liniyasi ochmasdan" ssuda hisob-raqamidan ishlab chiqarish xarajatlari "Baznes-reja'si asosida berilayotgan kredit va foizlami 50 foizni so'ndirmaslik xataridan va qolgan 50 foizi notarial tasdiqlangan va Davlat kadastiri yoki BTIning tuman ko'chmas mulk xizmatlarida ro'yxatga olingan yuqori likvidli mulk garov shartnomasini sug'urta qilishga qaratilgan sug'urta polisi mavjudligi sharoitida amalga oshiriladi.

Kredit so'ndirilishi bank tomonidan kredit shartnomasida ko'zda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi. Kredit shartnomasida kredit so'ndirilishi quyidagi tartibi ko'zda tutilishi mumkin:

■ so'ndirilish muddati yetgan majburiyatlar bo'yicha ssuda qarzlami qarzdordan qaytarib olgunga qadar asosiy depozit hisob-raqamidan undirish orqali;

■ muddatidan oldin, qarzdor to'lov topshiriqnomasi bilan uning qaytarib olguncha depozit hisob-raqamidan ssuda hisob-raqamiga pul mablag'larini qoldig'ini o'tkazish orqali;

■ bank tomonidan kafillik bo'yicha olingan majburiyatlarni, sug'urta polisi bo'yicha sug'urta qoplamasini, bank va boshqa kredit tashkilotlari kafolatlarini hamda garov huquqini sotishdan olingan mablag'lami ishlatilishi orqali.

4.3. O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari va bunda banklarning o'rni

Banklar professional kredit beruvchi sifatida mijozlarga joriy faoliyatni moliyalashtirish uchun g'oyat turli-tuman kreditlarni taklif etadilar, ulaming ichida eng tez moslanuvchanlari overdraf va kredit liniyalaridir.

Tashqilot joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun muddatli byudjet yordamidan ham foydalanishi mumkin, u turli darajadagi byudjetlar tomonidan Vazirlar Mahkamasini xuzuriyadagi Xisob-kitoblar mexanizmini byudjetga tuvlavlari intizomini mustaxkamlash komissiyasining 2002 yil 17 dekabrda 70- sonli majlisi qarori.

ТДИУ ва МДХ мамлакатлари нктисодий мутахассисликлари буйича бакалаврият битирув-малакавий ишлари, магистрлик, номэодлик ва докторлик диссертацияларининг намунавий мавзулари. -Т.: 2005. quyidagi shakllarda taqdim etiladi:

- pul mablag'larining qarz oluvchiga haqiqatda berilishi;
- kreditlashning imtiyozli shartlarini ta'minlash uchun bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalaridagi farqni qoplanishi;
- bank kreditlari yuzasidan byudjet kafolatlarining taqdim etilishi;
- byudjet oldidagi majburiyatlarni vaqtincha kamaytirish vositasida kreditlash.

Byudjet krediti faqat qaytarilishi asosida avval taqdim etilgan byudjet mablag'lari yuzasidan muddati o'tgan qarzlar mavjud bo'lmagan yuridik shaxslarga berilishi mumkin. Vakolatli organlar kreditning amal qilish paytida har qanday vaqtda byudjet krediti oluvchisining tekshirish huquqiga egadirlar, shuningdek byudjet kreditidan maqsadli foydalanilishini tekshiradilar. Yuridik shaxslarga taqdim etilgan byudjet mablag'larning qaytarilishi, shuningdek ulardan foydalanganlik yuzasidan to'lov byudjetga to'lovga tenglashtiriladi.

Korxonalar aylana mablag'ni saqlab turilishi uchun soliqlarni to'lash bo'yicha muddatini uzaytirish, bo'lib-bo'lib to'lash va soliq kreditlaridan foydalanishi mumkin. Ushbu kreditlash shakllarida umumiy jihat shundan iboratki, ular byudjetga soliqlar va yig'imlar to'lash muddatlarining o'zgartirilishi bilan bog'liq.

Soliq krediti bir yoki bir necha soliqlar bo'yicha uch oydan bir yilgacha muddat bilan taqdim etilishi mumkin. Agar soliq krediti manfaatdor shaxsga tabiiy ofatlar, texnik halokatlardan zararlar va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yuzasidan taqdim etilayotgan, shuningdek agar uning tegishli byudjetdan kamroq moliyalashtirish holati mavjud bo'lsa to'lov undirilmaydi. Agar soliq krediti bir vaqtning o'zida soliq to'lanishi holatida ushbu shaxsga bankrotlik tahdid qilishi munosabati bilan taqdim etilsa, foizlar soliq krediti to'g'risida shartnoma davrida bo'lgan, Markaziy Bankning qayta moliyalash stavkasi miqdorida belgilanadi. Soliq krediti summalari to'lovning har bir muddatdagi bo'yicha teng ulushlarda yoki bir yilga foizlarni to'lash bilan mablag'larni tegishli byudjetga daromadga o'tkazish yo'li orkali kamaytirilishi lozim. Shunday qilib, korxonalar aylana mablag'larga bo'lgan qo'shimcha ehtiyoj kredit xarakteridagi turli tuman manbalar hisobidan qoplanishi mumkin. Har qanday holatda

ham qisqa muddatli kredit va korxonaning aylanma mablag'lari quyidagi ko'rinishlarga ega:

- qisqa muddatli kreditlash muddati aylanma mablag'ning aylanish muddatli bilan bog'liq bir yilga qadar;
- qisqa muddatli kredit korxonada joriy faoliyatidan tushumlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar)dan tushumlar hisobiga so'ndiriladi, aylanma mablag'lar elementlari tannarxning aksariyat qismini tashkil etishi bo'lsa aylanma kapital davriy aylanishining uzluksizligi qisqa muddatli kreditni so'ndirishning sharti hisoblanadi;
- qisqa muddatli kreditni jalb etish uchun xarajatlar buxgalteriya (moliya) hisobida xarajatlar (tannarx) tarkibiga, soliq hisobida esa o'atilgan cheklashlar doirasida kiritiladi.

Ushbu tartib Paxta bank tomonidan yuritilayotgan kredit siyosatining ajralmas qismi bo'lib, xo'jalik subyektlari va ularga xizmat ko'rsatayotgan bank filiallarini o'zaro kredit munosabatlarini tartibga soladi.

Kreditlar, xo'jalik yurituvchi subyektni qaytarib olunguncha asosiy deposit hisob raqami joylashgan joyiga qarab beriladi. Boshqa banklar mijozlariga, shuningdek zarar ko'rib ishlayotgan, nolikvid balansga ega xo'jalik subyektlari faoliyatini kreditlash man etiladi. moliyaviy keskin o'zgarishlar, xo'jasizlik va zararlarni qoplashga ishlatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Kreditlar, berilish muddatiga ko'ra, qisqa, o'rta va uzoq muddatli turlarga bo'linib, kredit shartnomasida qayd etilgan muddatda, maqsadga muvofiq ishlatilishi va ta'minlanganlik hamda foizlilik tamoyili, qaytarishlik shartlari asosida beriladi.

Qaytarilish muddatlari kechiktirilgan kreditlar - bu, so'ndirilish muddati yetib kelgunga qadar qarzdor tomonidan yozma ravishdagi asoslangan iltimosnomasiga ko'ra, bank Kredit qo'mitasi qarori asosida qayta rasmiylashtirilgan kredit hisoblanadi. Bunda kreditni so'ndirilish sanasi kechiktiriladi.

Kredit so'ndirilmaslik xataridan xoli bo'lish maqsadida qarz oluvchi ishonch kreditidan farqli o'laroq, tez sotiluvchanlik talabiga javob beradigan ta'minotga ega bo'lishi lozim.

Garov turiari va shakllari

Ta'minotning asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi: mulkgarovi, uchinchi shaxs kafilligi, banklar va boshqa kredit tashkilotlari kafolatlari, qarz oluvchi tomonidan kreditni va u bo'yicha qarzlarni so'ndirmaslik xatarini sug'urta qilinganligi to'g'risida sug'urta kompaniyalarining sug'urta polisi.

Berilayotgan kredit summasi, sug'urta bahosida, garovga olinayotgan mulk qiymatini 80 foizidan oshmasligi kerak.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo'jalik korxonalarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaminida rivojlantirish uchun sarflanayotgan barcha mablag'lar ulaming moliyaviy mablag'lari hisoblanadi. Qaytarilish muddatlari kechiktirilgan kreditlar - bu, so'ndirilish muddati yetib kelgunga qadar qarzdor tomonidan yozma ravishdagi asoslangan iltimosnomasiga ko'ra, bank Kredit qo'mitasi qarori asosida qayta rasmiylashtirilgan kredit hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mavsumiy xarakterli tarmoqlar xususiyati va ularga tavsif.
2. Turli mulk subyektlarini kreditlash tartibi
3. Qishloq xo'jalik korxonalarini kreditlash tartibi
4. Kichik va xususiy biznesni kreditlash tartibi
5. Qishloq xo'jalik korxonalarini kreditlarini qoplash tartibi
6. Kreditni qaytarilishi muammolari 1.
7. Qishloq xo'jaligiga kredit berish va qoplash tartibi.
8. Qishloq xo'jaligining alohida tarmoqlarining oborot mablag'larini tashkil qilish asoslari va xususiyati.
9. Mikrokreditlash xususiyati va tartibi
10. O'zbekiston tijorat banklari investitsion kreditlashtirish xususiyati

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.З. Банкиши. -Т.: 2003.
 2. Дон Патинкин. Денги, процент и цены. -М.: Экономика, 2004.
 3. Ефимова М.Р. Финансово-экономические расчёты. Пособие для менеджеров: Учеб. Пос.-М.: ИНФРА-М, 2004.
 4. Сухова Л.Ф. Практикум по анализу финансового состояния и оценки кредитоспособности банка-заёмщика. -М.: Финансы и статистика, 2003.
 5. <http://www.bankofendland.co.uk/market/money/index.htm>
 6. <http://www.bankofendland.co.uk/coreuproses.htm>
 7. www.Referat.ru
 8. <http://www.boj.or.jp./en/siryu.htm>
- 1 ТДИУ ва МДХ мамлакатлари иқтисодий мутахассисликлари бўйича бакалаврият битирув-малакавий ишлари. магистрлик, номзодлик ва докторлик лисгр.птяниялапининг намунавий мавзулари. Т.: 2005.

MAVZU: MOLIYAVIY BOZOR, BANKLARINING QIMMATBAHO QOG'OZLAR BO'YICHA OPERATSIYALARI

Reja:

- 5.1. Moliyaviy bozor tushunchasi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari
- 5.2. Banklarni investitsion faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish
- 5.3. Bankning qimmatbaho qog'ozlar bilan passiv operatsiyasi
- 5.4. Bankning qimmatbaho qog'ozlar bilan aktiv operatsiyasi
- 5.5. Banklarning investitsion siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari

5.1. Moliyaviy bozor tushunchasi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari

Moliya bozorlari - bu, pul oqimlarini mulk egalari qarz oluvchilarga qarata yo'naltira oladigan bozor institutlarining yig'indisidir.

Moliya bozorlari ko'p turdagi xilma-xil "kanallardan" iborat bo'lib, ushbu kanallar orqali pul mablag'lari egalari qarz oluvchilarga oqib o'tadi. Ushbu kanallar asosan 2 guruhga bo'linadi, ya'ni:

1) to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish kanallari. Ushbu kanallar bo'yicha pul mablag'lari bevosita pul egalari qarz oluvchilarga oqib o'tadi. Mazkur to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishning o'zini 2 (ikki) kichik guruhga bo'lish mumkin, a) kapitalni moliyalashtirish. Ushbu har qanday ko'rinishdagi kelishuvdan iborat bo'lib, unga asosan investitsiya qilish niyati bo'lgan pul mablag'ning egasiga firmaning mulkida ulush ishtirokiga ega bo'lish huquqi evaziga, uning pul mablag'larini oladi. Bunga yaqqol misol bo'lib, korporatsiya tomonidan oddiy aksiyalarni sotilishi hisoblanadi.

Oddiy aksiya - bu, korporatsiya mulkidagi ulushga egalik to'g'risidagi sertifikatdir hamda o'z egasiga korporatsiya tomonidan olingan foydaning bir qismiga davogarlik qilish huquqini beradi;

b) qarz (zayom) olish orqali moliyalashtirish (debt finance) - ushbu toifaga har qanday kelishuv kirib, unga asosan firma investitsiyalarni amalga oshirish maqsadida pul mablag'larini qarzga, ularni kelishilgan foizlari bilan kelgusida so'ndirish bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi. Ushbu holatda kreditor shaxs, aksiyadagiga o'xshash firma mulkidagi ulush ishtiroki huquqiga ega bo'lmaydi. Bunga, korporatsiyalar tomonidan obligatsiyalar sotilishini misol sifatida keltirish mumkin.

2. Moliyalashtirishning kanallari. Egri kanallar orqali moliyalashtirishda oila xo'jaliklaridan firmalarga oqib o'tayotgan pul mablag'lari maxsus institutlar orqali oqib o'tadi. Bunday institutlarga banklar, o'zaro fondlar, sug'urta kompaniyalari kiradi. Ushbu turdagi tashkilotlar - moliyaviy vositachilar deb ataladi.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, moliya bozori, bozor iktisodieti sharoitida pul sarmoyalarini taqsimori va qayta taqsimotini amalga oshiruvchi muhim, e'tiborga sazovor bo'lgan bo'g'inlaridan biri ekan. Bu erda, har qanday bozorda bo'lganidek, sotuvchi va sotib oluvchi bor. Lekin, boshqa bozoriardan ferqli o'laroq, moliya bozorida sotuvchi va sotib oluvchi bevosita oldi-sotti munosabatlarida

ishtirok etniydilar. Balki ulaming nomlaridan shunday oldi-sotti operatsiyalarini moliyaviy vositachilar amalga oshiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy vositachilar sifatida maydonga odatda brokerlar va dilerlar chiqadi. **Broker**, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi bo'lib, brokerlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Brokerlar sifatida bozorda jismoniy va yuridik shaxslar harakat qilishi mumkin. Fond bozoridagi professional brokerlik faoliyati maxsus tartibda olinadigan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Diler - bu, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi bo'lib (yuridik yoki jismoniy shaxs), u dilerlik faoliyatini amalga oshiradi. Yuqoridagilardan tashqari, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilaridan biri sifatida, ulami tashkil etishning aniq yuridik shaklidan qat'iy nazar, qimmatli qog'ozlarni boshqarish faoliyatining davlat litsenziyasiga ega bo'lgan boshqaruvchi kompaniyalar bo'lishi mumkin.

Ushbu faoliyat o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-egalari tomonidan mazkur boshqaruvchi kompaniyaga berilgan qimmatli qog'ozlarni boshqarish;

-qimmatli qog'ozlarga foydali joylashtirish uchun mo'ljallangan mijozlar pul mablag'larini boshqarish;

-kompaniyalar tomonidan qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat borasida olingan qimmatli qog'ozlar va pul mablag'larni boshqarish.

Moliyaviy tovar boshqa oddiy tovarlardan tubdan farq qiladi. Birinchidan, moliyaviy tovarlar tovar sifatida albatta iste'molchini hamda ishlab chiqaruvchi shaxsning ma'lum bir ehtiyojini qondiradi. Ikkinchidan, moliyaviy tovarning sotuvchisini esa pul sarmoyalariga bo'lgan vaqtincha ehtiyojini, o'ziga xos shartlar va muddatlar asosida.

Uchinchidan, boshqa tovarlar ulami ishlab chiqaruvchi shaxslarga shu zaxoti iqtisodiy samara keltirmaydi. Ushbu samara olingunga qadar ma'lum bir vaqt o'tadi.

Bozorga moliyaviy tovarlarni chiqarayotgan shaxslarni jahon amaliyatida "emitent" deb atashadi. Moliyaviy tovarlarni sotib olayotgan shaxslarni esa "investor" deb atashadi.

Moliyaviy tovarning bozordagi oldi-sotdisida bevosita ishtirok etadigan hamda sotuvchi va sotib oluvchining topshirig'ini bajaradigan shaxslar esa moliyaviy vositachilardir. Moliyaviy vositachilar, ixtisoslashgan moliyaviy tashkilotlar yoki jismoniy shaxslardir. Jahon amaliyatida moliyaviy bozorda quyidagi moliyaviy vositachilar mavjud: Investitsiya firmalari (banklari), Broker firmalari (kontoralari), Investitsiya fondlari, Sug'urta kompaniyalari va Pensiya fondlari. Jismoniy shaxslar esa brokerlar yoki dilerlar sifatida mavjuddilar.

5.2. Banklarni investitsion faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan umumiy litsenziya asosida qimmatbaho qog'ozlar bank operatsiyalarini amalga oshirishlari mumkin.

Banklar quyidagi shartlar bajarilgan holda qimmatbaho qog'ozlarga qo'yilmalarni amalga oshirishlari mumkin:

a) bankning bir korxonaning ustav kapitaliga, shuningdek ushbu korxonaning boshqa qimmatbaho qog'ozlariga qo'yilmasining miqdori I-darajali bank regulyativ kapitalining 15% oshmasligi kerak.

b) bankning barcha elementlar ustav kapitaliga va boshqa qimmatbaho qog'ozlariga qilgan investitsiyalari miqdori I-darajali bank regulyativ kapitalning 15%idan oshmasligi kerak.

v) o'ldi - sotdi uchun davlat qimmatbaho qog'ozlariga qilgan bank qo'yilmasi miqdori I-darajali bank regulyativ kapitalining 25%idan olinishi kerak.

Bank iste'mol korxonasi (moliyaviy institutlar miqdori) ustav kapitaliga 20%idan ortig'iga to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita egalik qilishi mumkin emas. Umuman olganda banklarning foyda operatsiyalariga quyidagilar kirishi mumkin:

1. Qimmatbaho qog'ozlarga asosan kreditlar (lombard).

2. Qimmatbaho qog'ozlarni o'z portfeli uchun sotib olish (investitsiya).

3. Yangi chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlarni birlamchi taqsimlash (jamlashtirish);

4. Mijozning topshirig'iga ko'ra qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish va saqlash (qimmatbaho qog'ozlar ikkilamchi muomalasiga xizmat ko'rsatish). M- vekselni sotib olish vaqtincha qo'shimcha qolgan kunlar soni.

d - Diskont foizi (%)

D- 100\$- sotib olish mumkin bo'lgan veksel bahosi.

R- vekselni sotib olish bahosi.

Diskont summasi: D-R;

Qarzdor $S=100$ mln, $t=3$ oy (90 kunga), i - ibning 720% yillik kredit bo'lsa. i stavkasi bo'yicha qaytarilgan summasi:

$S_{xizmat} = 100000000 \cdot 90 \cdot 0.72 \cdot 0.005$

$360 \cdot Y \cdot 100 \cdot 360 \cdot \pi - 100$

Agar kredit veksel yordamida berilsa y holda mijoz

$S=100$ mln.

$T=3$ oy (90 kun)

$i = 140\%$ yillik $i = 160000000 \cdot 90 \cdot 0.14 = 2016000000$

$360 \cdot x \cdot 100 \cdot 360 \cdot 100\% \text{ massasi } S1-S2-550-350-200.$

"O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida" gi qonunga muvofiq, tijorat banklarining qimmatbaho qog'ozlar bozoridagi faoliyati mavjud umumiy bank lisenziyasi asosida amalga oshiriladi. qo'shimcha lisenziya talab qilinmaydi.

qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisiga doir bitimlar amaldagi qonunchilikka muvofiq, rasmiylashtirilgan egasining nomi yozilgan ishonchnomalarga asosan tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar aksiyalari, obligasiyalar, depozit va jamg'arma sertifikatlari, veksellar, shuningdek xosila qimmatli qog'ozlar (fyucherslar va opsiyonlar) kabi turlarini chiqarishga ruxsat beriladi. Muayyan moliyaviy vosita uning emitent uchun ham, xaridor uchun ham qulay va foydaligi hisobga olingan holda, tanlab olinadi. Bank qimmatli qog'ozining nobank muassasi tomonidan chiqarilgan qog'ozdan farqi, tijorat banki faoliyatining davlat organlari tomonidan nisbatan to'liqroq tartibga solinishidan

iborat. Tijorat banki o'z faoliyatida unga balans likvidligi va kapitalning yetarlilik darajasini pasaytirtirishga yo'l qo'ymaydigan bir qancha majburiy normativlarga amal qiladi.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan bog'liq faoliyat tartibga solinishi tijorat banklari uchun emissiya prospektini chiqarish, uni ro'yxati belgilab quyilganligi ta'minlanadi. Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi qimmatli qog'ozlar va fond biijalari bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilangan.

Banklar uchun emissiya prospektlaridagi ma'lumotlar ro'yxatlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Markaziy bank bilan kelishilgan holda belgilaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "innovatsiya" so'zining ma'nosi bir qancha ma'noda ishlatiladi. Ishlab chiqarish takror ishlab chiqarish jarayonida termin kapital quyilma ma'nosini bildiradi. Bu pul mablag'larining takror ishlab chiqarish jarayonining kengaytirilishiga ishlatilishini anglatadi.

Investitsiyani mulkiy tomondan qo'yilmalarga ishlatishi - bu kompaniyani korxonaning real aktivlariga yoki shaxsiy mulkka joylashtirilishi tushuniladi.

Moliyaviy faoliyat amaliyoti bo'yicha ya'ni investitsiyani moliyaviy tomondan tushuniladigan tushunchasi esa - bu kapitalning qiymatini saqlash yoki ko'paytirish (ijobiy miqdor keltirish maqsadida) joylashtirish uslubiga aytiladi.

Investitsiya yoki kapital qo'yilma deyilganda, umuman, iqtisodiy subyektni ixtiyorida bo'lgan mablag'lami (kelishi) iste'molidan voz kechib kelgusida yaxshi hayot kechirishi uchun mablag'lami ko'paytirishi uchun foydalanishdi.

Investitsion faoliyatning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

-kapitalning vaqtinchalik yo'qotilgan iste'mol qiymatini (likvidligini qaytib kelmasligi; (bo'lmasligi).

- boshlang'ich farovonlik darajasini usishini kutish;

- uzoq muddatga qo'yilgan kapitalning natijasini noaniqliligi; Shunday qilib investitsion jarayon - bu vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari bor bo'lgan shaxslar bilan, pul mablag'larining talabi bo'lganlar o'rtasidagi ma'lumotlarni berishligining mexanizmidir. Tijorat banklari investitsion faoliyati - bu bankning pul mablag'larining ustav fondiga qimmatbaho toshlar va boshqa obyektlarga joylashtirishidir.

Investitsiya maqsadiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) Tug'ri investitsiyalar - bu investitsiya obyektini bevosita boshqarish maqsadida amalga oshiriladigan investitsiyalardir. Agar bunday investitsiyalar qimmatli-qog'ozlaiga qo'yilsa u holda korxonaning kontrol paketini sotib olishi kerak. Masalan investitsiyalar mulk, ishsizlik patent va boshqalar ham bo'lishi mumkin.

2) Portfel investitsiyalari - qimmatbaho qog'ozlar portfelini tashkil qilish uchun koitrol paketini tashkil qilmasdan va investitsiya obyektini to'g'ridan-to'g'ri bevosita faoliyatidir.

Agar to'g'ri investitsiyalar bank o'z faoliyatini boshqa sohada ta'sirini kengaytirish maqsadida amalga oshirilsa. bank portfel investitsiyalari (qimmatbaho qog'ozlar portfeli) quyidagi funksiyalami amalga oshiradi:

-bank daromadlari boshqarilishi; agar banka qarzlari bo'yicha kreditlari foizi

(daromadi) pasaysa, qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha daromadi ko'tarilishi mumkin:
-bank kredit portfelidan keladigan kredit risklarini qoplash maqsadida, yaxshi qimmatbaho qog'ozlari sotib olishi yoki saqlab turishi mumkin. Bu o'z navbatida bankning kredit risklari pasaytirishi mumkin.

-geografik diversifikatsiyasi ta'minlashi mumkin.

-bozor foiz stavkalaming o'zgarishi jarayonida (sharoitida) bank yo'qotishlarini sug'urtalaydi.

-bank aktivlari portfelini o'zgartiruvchanligini ta'minlashi mumkin.

-Bank balansi moliyaviy ko'rsatkichlami yaxshilashga imkon yaratadi.

Banklarning investitsiyalariga ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkon yaratadi.

Banklarning investitsiyalarga odatda 1 yilgacha qoplash muddatiga ega bo'lgan qimmatbaho qog'ozlarni kiritish mumkin.

Banklarning investitsion operatsiyalarini o'tkazishdan asosiy maqsad:

- bankning daromad bazasini kengaytirish va diversifikatsiyalash;

- bank faoliyati turlarini kengaytirish asosida hamda bank risklarini umumiy darajasini pasaytirish hisobiga - bankning moliyaviy barqarorligini oshirish;

- bankning mijoz va mablag'lar bazasini xizmatlar turini, fiskal (docherniy) moliya institutlarini tashkil qilish hisobiga kengaytirish;

- mijozlarga bo'lgan ta'simi kuchaytirish. (qimmatbaho qog'ozlar portfelini sotib olish hisobiga).

Asosan bankning investitsiyalari deyilganda bank tomonidan kapital xarakterga

(delgiga) ega bo'lgan xarakterni va qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirilgan muddatli kreditlash yoki moliyalashtirish tushuniladi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni qayta ko'rishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bank sohasini isloh qilish bilan birgalikda, qimmatli qog'ozlar bozorini, shuningdek moliya bozorining boshqa segment (bugin)larini ham yaratishdan iboratdir.

5.3. Bankning qimmatbaho qog'ozlar bilan passiv operatsiyasi

Tijorat banklarining asosiy faoliyati bu vaqtincha bo'sh pul mablag'larini kreditorlar va qarzdorlar o'rtasida hamda sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida aylanishini vositachilik asosida olib borish hisoblanadi. Lekin, tijorat banklarining mamlakat moliya bozorida faqatgina o'ziga xos xususiyatiari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

-birinchidan, tijorat banklari faoliyati uchun qarz majburiyatlari yuzasidan ikki tomonlama tasnif mavjud. Ular birinchi tomondan yuridik va jismoniy shaxslar uchun muomalaga o'zlarining qarz majburiyatlarini, ya'ni depozit sertifikatlari, depozit-jamg'arma sertifikatlari, obligasiyalarini chiqaradilar. Ikkinchi tomondan esa, tijorat banklari qo'shimcha daromad olish maqsadida boshqa einitentlaming muomalaga chiqargan qarz majburiyatlarini (aksiyalar, obligasiyalar, depozit sertifikatlari) sotib oladilar:

-ikkinchidan, tijorat banklari o'z nomidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (obligasiyalar, depozit sertifikatlari) bo'yicha qat'iiy belgilangan foiz bo'yicha daromad to'lanishi majburiyatini oladilar. Investitsiya fondlari esa daromad to'lanishi

yuzasidan risklami investorlar zimmasiga yuklaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligasiyalari davlat qimmatli qog'ozlari hisoblanadi va uning egalariga obligasiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foiz ko'rinishida daromad olish huquqini beradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligasiyalar chiqarilishi, uning muomalasi tartibi va so'ndirilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2002 yil 22 apreldagi 1141-sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligasiyalarini chiqarish va ular muomalasi to'g'risidagi" Nizom ga asosan olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikatlari mamlakatimizda pul bozorida likvidlikni taitibga so'ib turish maqsadida chiqariladi. Depozit sertifikatlarini chiqarish, muomalada bo'lish va u bo'yicha to'lovni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 26 dekabdagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikatlarini chiqarish to'g'risida Nizom ga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikati - bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul mablag'larini omonatga qo'yilganligi haqidagi guvoxnoma bo'lib, u omonatchi yoki uning huquqiy vorisining omonat summasini va u bo'yicha foizlami belgilangan muddat tugagandan so'ng olish huquqini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikati egasi muddatidan oldin to'lovga taqdim etish huquqiga ega, bu holda depozit sertifikati bo'yicha to'lanadigan foizlar depozit sertifikatlarini chiqarish shartlari yoki oldi-sotdi shartnomasiga asosan to'lanadi. Agarda, depozit sertifikati bo'yicha omonatni olish muddati o'tkazib yuborilsa, bunday depozit sertifikati talab qilib olinadigan hujjat hisoblanadi, bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikat egasining birinchi talabi bo'yicha omonat summasi va foizlami to'lash majburiyatini oladi. Bunday holatda depozit sertifikatining o'tkazib yuborilgan muddat uchun foizlar hisoblanmaydi va talanmaydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining depozit sertifikatlarini to'lov muddati kelganda mazkur depozit sertifikatlarga egalik qilishni tasdiqlovchi hujjat hamda depozit sertifikati summasi va u bo'yicha foizning o'tkazilishi lozim bo'lgan hisobvaraqa ko'rsatilgan talabnoma taqdim etilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'lovni amalga oshiradi. Depozit sertifikatining to'lovi muddatidan oldin amalga oshirilayotganda pul mablag'lari depozit sertifikati egasining hisobvarag'iga depozit sertifikatni muddatidan oldin to'lovga qabul qilish to'g'risidagi ariza tushgan kundan boshlab 5 bank ish kuni davomida ko'chiriladi.

Investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlarni qaytarish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplash, shuningdek, qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha ular kiritgan pul mablag'larini qaytarish emitent tijorat banki hisobidan amalga oshiriladi.

5.4. Bankning qimmatbaho qog'ozlar bilan aktiv operatsiyasi

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarni olib borish yo'li bilan daromad olishga harakat qiladi, lekin bu faoliyatni olib borish jarayonida amaldagi qonunchilik me'yorlariga

amal qilishlari lozim. Tijorat banklari o'zlari uchun o'atilgan likvidlik darajasini saqlab turishlari hamda olib borilayotgan aktiv operatsiyalari turiari bo'yicha yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan risklami oqilona taqsimlashlari shart. Amaldagi qonunchilikka asosan tijorat banklari o'zlarining aktivlarini ma'lum qismini daromad keltirmaydigan hamda juda kam miqdorda daromad keltiruvchi aktivlarga yo'naltiriladi.

Balans ma'lumotidan ko'rinib turibdiki, bank investitsiya faoliyatini olib borishda aktivlarning kam qismini yo'naltiigan. Bu esa bankning investitsiya faoliyatini yoritishga undaydi.

Amalda tijorat banklarining investitsiyalariga – bank aktivlari sindirilish muddati bir yildan ortiq bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qo'shimcha daromad olish uchun yo'naltirishi hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining investitsiya faoliyati jarayonini strategiyasida ikki xil strategiya ajratiladi:

-passiv strategiya

-aktiv strategiya

Tijorat banki investitsiya faoliyati olib borishning passiv strategiyasida asosan kutish, ya'ni qimmatli qog'ozlar bo'yicha bir muddatda va doimiy ravishda daromad olishda ularning bozordagi o'rtacha darajadagi daromadga yaqin darajada foydalanadi.

Passiv strategiyani olib borishda banklar ikki xil usuldan foydalanishlari mumkin;

-"zinapoya" usuli;

-"shtanga" usuli;

Tijorat banki birinchi usuldan foydalanganda o'zi tomonidan aniqlangan investitsiya muddati asosida qimmatli qog'ozlarni turli muddati bo'yicha sotib oladi va ularni investitsiya portfelini tarkibida bir tekis joylashtiradi. Passiv strategiyani "shtanga" usulida tijorat banki investitsiyaga yo'naltirilayotgan mablag'larning asosiy qismini investitsiya portfelining likvidligini ta'minlaydigan juda qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarga va ma'lum qismini yuqori foyda beradigan uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga sarflaydi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari qimmatli qog'ozlar investitsiya portfelini shakllantirish va uni boshqarishda passiv strategiyaning ikki usulidan ham foydalanadilar. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda Respublikamizdagi tijorat banklari tomonidan asosan qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish faoliyati olib borilmoqda. Tijorat banklarning qimmatli qog'ozlar bilan agressiv siyosati asosida qimmatli qog'ozlarning fond bozorida kursi va foiz stavkasini tebranishidan imkoni boricha ko'p daromad olish yotadi.

5.5. Banklarning investitsion siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari

"Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi Qonunda belgilanishicha, emitent - qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi va qimmatli qog'ozlar egalari oldida ular bo'yicha o'z nomidan majburiyatga ega bo'lgan huquqiy shaxs yoki davlat organidir. Qarz kapitalini jal etuvchi ayrim vositalar (obligasiyalar, jamg'armalar va deposit sertifikatlari) banklar tomonidan obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra sust

qo'llanilmoqda. Bunday sabablarga inflyatsiya, bo'sh pul mablag'larining etishmasligi.

obligasiyalarni chiqarishni tashkil etishdagi qiyinchiliklar kiradi. Bank bir vaqtda ham aksiyalar, ham obligasiyalarni chiqarish bilan shugullana olmaydi. Bundan tashqari, banklar obligasiyalarni ustav fondining 20 foizidan oshmaydigan summada va o'zining barcha aksiyalariga to'liq haq to'langanidan keyingina chiqarishi mumkin. O'zbekiston tijorat banklari, qonunchilikka muvofiq ravishda, qimmatbaho qog'ozlar bozorida brokerlik va dilerlar sifatida ishtirok yemoqda. Brokerlik vazifasi tobora kengayib borayotgan banklarning brokerlik idorasi tarmogi orqali amalga oshirilmoqda. Agar tijorat banki vositachilik faoliyati amalga oshirsa, uning operatsiyalari O'zbekiston qonunchiligida ko'zda tutilganidek, fond birjasi orqali o'tishi kerak. Tijorat banklari tomonidan trust operatsiyalarini amalga oshirish bir qancha jihatdan foydalidir. Birinchidan, ularning yordamida tijorat banklari uzoq muddatli moliya resurslar qimmatli qog'ozlarga va biijadagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin. Ikkinchidan, bank qimmatli qog'ozlarni boshqarishdan vositachilik haqi undirib, bu qog'ozlardan keladigan daromaddan ulush oladi.

Uchinchidan, bank o'zining emas, kapitali bilan operatsiyalarni bajaradi, faqat trust shartnomasi doirasidagina ular uchun javobgar bo'ladi, asosiy tavakkalchilik esa. qimmatli qog'ozlar egasiga tegishli bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi tadbirkorlik faoliyati turlaridan biri, qimmatli qog'ozlarning hisobini yuritish va ularni saqlash bilan bog'liq bo'lgan va depozitar deb atalgan faoliyatidir. O'zbekiston tijorat banklari uni umumiy bank lisenziyasi asosida yuritish huquqiga egadirlar. Banklararo elektron to'lovlar tizimini joriy etish bu vazifalarni ta'minlashda dastlabki qadam bo'ldi. Fond bozori qatnashchilari o'zaro hisob-kitoblarini faqat kompyuter telekommunikatsiya aloqa tizimi asosidagina tezlashtirishlari mumkin. Shu tufayli kommunikatsiya tizimini yaratish banklar uchun nihoyatda dolzarb vazifadir.

Kafolatli operatsiyalar. Banklar investitsiya kompaniyalar roliga chiqib, uchinchi shaxslar foydasiga qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha kafolatlar berishi mumkin. Bevosita emissiya faoliyati bilan bo'lmagan kafolat operatsiyalari, bir bank yoki banklar tomonidan tuziladigan muvaqqat birlashmalar (konsortsium yoki sindikatlar) tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Bugun O'zbekistonda bank kapitali bir qismini muayyan kompaniyasida joylashtirish amaliyoti mavjud. Bu banklarning tavakkalchiligini, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardagi tavakkalchiligini kamaytiradi.

Tijorat banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi maslahat xizmatlari Rivojlangan mamlakatlarda bu xizmat turi qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalar ichida katta o'rinni egallaydi. Bu - bugungi kunda axborotning tutgan o'rni va uning tijorat banklarida to'planganligi bilan bog'liqdir.

Bank maslahati xizmatini ko'rsatish sarmoyani u yoki bu moliya aktivlariga (aksiyalar, obligasiyalar) joylashtirish foydaliligi, korxonalar likvid resurslarini oqilona boshqarish kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bugun banklar mijozlarning ishonchini qozonish va bu bilan kelajak uchun ishlashga intilib, beqaror maslahat

ximatlarini ko'rsatmoqda. Investitsiya dasturlarini ta'minlash maqsadida kredit resurslarini jamlash muammosini hal qilish uchun davlat va bank tizimining hamkorligi zarur. Hozir davlat byudjet siyosati hisobiga investitsiyani ko'paytirmoqda, bank sektori esa, aytib o'tganimizdek, investitsion kreditlashdagi o'z ishtirokini qisqartirmoqda. Bunga sabab shuki, banklarning uzoq muddatli kreditlashdan manfaatdorligi yo'q.

Qisqa xulosalar

Moliya bozorlari - bu, pul oqimlarini mulk egalaridan qarz oluvchilarga qarata yo'naltira oladigan bozor institutlarining yig'indisidir. Asosan bankning investitsiyalari

deyilganda bank tomonidan kapital xarakterga (delgiga) ega bo'lgan xaraktemi va qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirilgan muddatli kreditlash yoki moliyalashtirish tushuniladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qimmatbaho qog'ozlar bozorida tijorat banklari o'mi
2. Asosiy kapitalni investitsiyalash shakllari tahlili
3. Tijorat banklarining qimmatbaho qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalari
4. Tijorat banklarining investitsion faoliyati
5. Moliyaviy bozor tushunchasi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari.
6. Moliyaviy bozor instrumentlari, qimmatbaho qog'oz bozori va uni tashkiliy tuzilishi.
7. Banklarning qimmatbaho bilan operatsiyalarning boshqa turiari
8. Bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarining daromadligi darajasi
9. Banklarning qimmatbaho bilan operatsiyalarini rivojlantirish muammolari
10. Banklarning trast operatsiyalari va ulami boshqarish

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг "Банклар ва банк фаолияти тўғрисида"ги қонуни. 1996 йил 25 апрел.
2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг меъёрий ҳужжатлари тўплами. -Т.: 2003.
3. Свиридов О.Ю. Денги, Кредит. Банки,- М.: ИКТС Март Роиов Р.Д., Изд. центр Март, 2004.
4. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски.-Изд. 3-е-М.: Дашков и К, 2004.
5. <http://www.bankofendland.co.uk/market/money/index.htm>

MAVZU: TIJORAT BANKLARINING XALQARO-VALYUTA VA HISOB-KREDIT OPERATSIYALARI

Reja:

- 6.1. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning o'rne**
- 6.2. O'zbekiston Respublikasida valuta bozori faoliyati va tartibga solish**
- 6.3. Tijorat banklarining valuta operatsiyalari**
- 6.4. Xalqaro kreditlash tizimi**
- 6.5. Xalqaro hisob-kitoblar va ularni asosiy shakllari**
- 6.6. Xalqaro moliya bozorida banklar raqobatligini oshirish muammolari**

6.1. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning o'rne

Valyuta - jahon bozorida, davlatlar orasida pul vazifalarini bajaruvchi, davlatlarni milliy pul birliklari. Masalan, Amerika qo'shma Shtatlarini "dollari", Buyuk Britaniya "flint sterlingi", Kanada "dollari", Fransiya "franki", Germaniya "markasi" va shu kabilar. Mazkur davlatlar milliy pul birliklari o'zlarida, har biri uchun, milliy valuta hisoblanadi. Muayyan bir davlat ichki bozoriga nisbatan olingan boshqa davlatlarni milliy valutalari xorijiy valutar deb ataladi.

Ekzotik valutar toifasiga Quvayt "dinori", Grek "draxmasi" va shu kabilar kiradi.

Jahon amaliyotida qabul qilingan tartibga asosan, barcha davlatlarni milliy valutar 3 xarf bilan belgilanadi. Bu harflarni boshidagi 2-tasi mamlakatni, so'ngi 3-chisi esa valuta nomini bildiradi. Masalan, USD - AQSh dollari, ya'ni US - ko'shma Shtatlar, D - dollar yoki GBP - Buyuk Britaniya funt sterlingi,

GB – Buyuk Britaniya, P - (point) funt sterling va shu kabi.

Valyuta bilan birgalikda, xalqaro valuta munosabatlari tushunchasi mavjud.

Valyuta munosabatlari - bu, valutar jahon xo'jaligida funksional amal qilish jarayonida va xalqaro aloqalar sohasiga xizmat ko'rsatuvchi o'ziga xos pul munosabatlarini yig'indisidir. Valyuta munosabatlari jahon valuta tizimini asosi bo'lib xizmat qiladi. Valyuta munosabatlarining ahvoli quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

-milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga;

-siyosiy ahvolga;

-jahon bozorida davlatlararo munosabatlar borasidagi muammolarga va bunday muammolarning rivojlanish tendensiyalariga.

Jahon valuta bozorida uning ishtirokchilari ko'p turdagi moliyaviy vositachilardan, tijorat banklaridan, firmalar va kompaniyalardan iborat. Jahon valuta bozoriga moliyaviy vositachilar nafaqat o'z mijozlarini topshiriqlariga muvofiq, balki o'z tashabbuslari bilan va o'z manfaatlarida ham operatsiyalarni amalga oshiradilar.

6.2. O'zbekiston Respublikasida valuta bozori faoliyati va tartibga solish

Har qanday davlatda valuta munosabatlari davlat tomonidan tartibga solinadi. Bunday tartibga solish albatta turli qonunlar yordamida amalga oshadi. Masalan, O'zbekiston

Respublikasi hududida valuta munosabatlarini tartibga solish maqsadida 2003 yilda "O'zbekiston Respublikasi hududida valuta munosabatlarini tartibga solish qonuni" va 1994 yil oktabr oyida "So'mni ichki konvertatsiyasi haqida qonun" qabul qilingan. Bundan tashqari, mazkur qonunlar harakatidan kelib chiqqan holda, tijorat banklari, jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bir qator me'yoriy hujjatlari va yo'riqnomalari mavjud.

Valyuta jarayonlarini tartibga solish, valuta chegaralanishlarini va soliqlarni hisobga olmagan holda, zamonaviy sharoitda valuta kurslarini tartibga solish bilan bog'liq bo'lib qolgan.

Har qanday davlatda pul tizimi bo'lganligi sababli, valuta tizimi ham mavjud.

Valyuta tizimi - bu, davlatlararo kelishuvlar va shartnomalar bilan belgilanadigan xalqaro valuta munosabatlarni tashkil etishni davlat-huquqiy shaklidir (Berjanov S.A.). Yoki, valuta tizimi, bu — xo'jalik aloqalari baynalmillatlashuvi asosida tarixan shakllangan valuta muomalasi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Valyuta tizimini mohiyati, tashkiliy shakllari va roli jamiyatning iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

Maxsus adabiyotlarda valuta tizimlarini 3 xil ko'rinishi farqlanadi, ya'ni milliy, jahon va hududiy.

Milliy valuta tizimi va uni elementlari.

Milliy valuta tizimini qonuniy asosda belgilangan elementlari quyidagilardan iborat:

1. milliy valuta va uning nomi;
 2. milliy valuta paritetini aniqlash;
 3. milliy valuta konvertatsiya shart-sharoitlari;
 4. milliy valuta kursi rejimi;
 5. xalqaro muomala kredit qurollari turi va ulardan foydalanish tartibi;
 6. xalqaro zahira aktivlari komponentlari orasidagi nisbatni aniqlash;
 7. mamlakat xalqaro hisob-kitoblarini chegaralash (reglamentatsiya);
 8. milliy valuta va oltin bozori faoliyatini rejimi;
 9. valuta chegaralanishlarni o'rnatish tartibi;
 10. valuta munosabatlariga xizmat ko'rsatuvchi va ularni tartibga soluvchi milliy organlar maqomi
- Jahon valuta tizimi - bu, davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan jahon bozori rivojlanishi asosida, xalqaro valuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir. Uning asosi bo'lib, shu tizimga kirayotgan har qanday davlatni milliy valuta tizimini tashkil etilishini davlat-huquqiy shakli va valuta mexanizmi hisoblanadi.

Jahon valuta tizimi, milliy valuta tizimi singari, o'z ichiga bir nechta elementlarni olgan. Ular milliy valuta tizimi elementlari bilan yaqindan o'zaro bog'liq bo'lib, quyidagilardan iborat:

1. xalqaro hisob-kitob birligining nomi (SDR, EVRO);
2. valuta paritetlarini soddalashtirilgan (unifikatsiya qilingan) rejimi;
3. valutalar konvertabelligining shartlari;
4. valuta kurslari rejimining chegaralanishi (reglamentatsiyasi);
5. xalqaro muomala kredit qurollaridan foydalanishni soddalashtirilgan tartibi;

6. xalqaro valuta likvidligi tarkibiy tuzilishini aniqlash;
 7. xalqaro muomala kanalini ishonch qozongan vositalar bilan etarli miqdorda to'ldirish mexanizmini cheklanishi (reglamentatsiyasi);
 8. xalqaro hisob-kitoblar asosiy shakllarini soddalashtirish (unifikatsiyasi);
 9. valuta chegaralanishlarni davlatlararo tartibga solinishi;
 10. jahon valuta va oltin bozorlari faoliyat rejimlarini belgilash;
 11. davlatlararo valuta munosabatlarini tartibga solib turuvchi organlar maqomi.
- Xududiy valuta tizimi - bu, hududiy birlashma a'zosi bo'lmish davlatlarning davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan valuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir. Zahira (rezerv) valuta - bu, jahon savdosida o'rin egallagan mamlakatlar milliy valutasini bo'lib, u xalqaro to'lov muomalasiga xizmat ko'rsatish uchun va baholar belgilashda, hamda boshqa davlatlar markaziy banklarida valuta zahiralari sifatida saqlash maqsadida ishlatiladigan valutadir.

6.3. Tijorat banklarining valuta operatsiyalari

Jahon amaliyotida, valutalami oldi-sottisi amalga oshadigan joy jahon valuta bozori deb ataladi. Ammo, mazkur bozorning xususiyatlariga ko'ra, u aniq bir manzilga ega emas yoki ma'lum bir joydajismonan mavjud emas. Jahon valuta bozori - telefon hamda zamonaviy telekommunikatsion tizim orqali savdosi amalga oshadigan xususiyatli bozordir.

Valyuta pozitsiyasi - dilemi talab va majburiyatlarini nisbatidir. U ikki kismdan iborat, ya'ni "uzun" va "qisqa" pozitsiyadan. "Uzun" pozitsiyada - dilemi talablari aks etadi. Talablar esa, diler tomonidan valuta sotib olinganda xosil boladi.

Valyuta bozori - bu chet el valutasini oldi-sotdisini va chet el valutasidagi qimmatbaho qog'ozlarni hamda valutaviy kapitalni investitsiya qilish munosabatlarini amalga oshiruvchi iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiluvchi markaz hisoblanadi.

Muddatli bitimlar deb, belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan oshiq bo'lgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi. Amaliyotda muddatli bitimlarning quyidagi keng tarqagan turiari mavjuddir. Ularga: Forvard valyuta bitimlari;

Fyuchers bitimlari;

Valyuta opsiioni;

Svop operatsiyalarini ko'rsatish mumkin.

Forvard valuta bitimi - bu voz kechib va bank bilan uning mijozi krtasidagi ma'lum miqdordagi kelishilgan valutani bitim tuzilayotgan vaqtda qayd qilingan ayriboshlash kursida kelajak muddatlarda shartnomaning majburiyatlarini bajarilishidir.

Moliyaviy fyuchers bitimlari 70-yillarda xalqaro valuta bozorida birinchi bor ikkilanilganligi keng tarqaldi. Moliyaviy fyucherslar konsepsiyasi xom ashyo va oziq-ovkat malisulotlaridan keladigan foydaga asoslaniladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, valuta kurslari bo'yicha fyucherslar - bu kelajakdagi ma'lum bir sanaga ma'lum hajmdagi valutani oldi-sotdi qilish bitimidir. Opsionlarning quyidagi ikkita asosiy turi mavjud:

1. "koll-opsion" yoki xarid qilish uchun opsion.

2. "put-opsion" yoki sotish uchun opsion.

Koll-opsionning xaridori oldindan belgilangan narx bo'yicha muayyan tovari sotishga ega bo'ladi. Ushbu xaridorga aniq tovari sotib olish yoki sotish uning uchun foyda keltirmaydigan bo'lgan holda undan voz kyechish imkoniyatini beradi.

Amerika opsioni deb, odatda opsionni harakat muddatini xohlagan vaqtda bajarilishiga, va shuning uchun opsionni harakat muddati uning birinchi va oxirgi kitob sanasi orasida o'matiladi.

Yevropa opsioni deb, odatda opsionni faqat hisob-kitobning aniq bir ma'lum oxirgi davrida bajarilishiga aytiladi. Biijadan tashqari opsionlar odatda bank tomonidan ishblarmon mijozga mos keluvchi tijorat shartnomasiga yoziladi.

Birja opsionlari - bu valuta opsion bitimlarini jamlangan summasi va vaqtning davriy yig'indisidir.

Valyuta bozoridagi xalqaro bitimlar, xususan, kapitalni qisqa muddatli eksporti bitimlardan tez-tez foydalanishga olib kelmoqda.

Svop operatsiyasi - bu bir vaqtning ichida chet el valutasini har-xil sanaga turli hisob-kitoblar shaitida teng summada sotib olish va sotishdir. Svop - bitimlar, shuningdek, banklar tomonidan qarzlarning chet el valutasidagi majburiyatlarini qoplash maqsadida foydalaniladi. Shunday qilib, banklar svop bitimlardan qarzlarning valuta pozitsiyalarini muvofiqlashtirish usulini va valuta kurslarini tebranishini oldini olish maqsadida foydalanadilar.

6.4. Xalqaro kreditlash tizimi

Xalqaro kredit ssuda kapitalining jahon oborotidagi harakati boiib, bu harakat tovar va valuta ko'rinishidagi mablag'lami uch shart asosida, ya'ni:

- qaytarib berishlilik;

- muddatlilik;

- % (foiz) to'lashlilik - asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Xalqaro kredit munosabatlarining subyektlari sifatida tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, yirik korxonalar, regional va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari qatnashadi. Xalqaro kredit shakllarini bir necha turga bo'lib guruhlash munikn.

Manbalari bo'yicha tashqi savdoni ichki, tashqi (chet) va aralash kreditlash va moliyalashtirish bo'yicha farqlanadi.

Vazifalari bo'yicha zayom mablag'lari hisobidan qanday tashqi iqtisodiy bitimni ta'minlanishi bo'yicha farqlanadi:

tijorat krediti (asosan tashqi savdo va xizmatlar bilan bog'liq kreditlar); moliyaviy kredit (yuqoridagilardan boshqa maqsadlarga ishlatiladigan, shu jumladan, kapital quyilmalar, investitsion obyektlar ko'rish, qimmatbaho qog'ozlar sotib olish, tashqi qarzni uzish, valutaviy intervensiyaga bog'liq kreditlar); "oralik" krediti (kapitalni olib kelishni aralash shakliga xizmat qilishga belgilangan tovar va xizmatlar, masalan, pudrat ishlarini bajarish ko'rinishida).

Xalqaro kreditni ko'rinishi bo'yicha 2 ta asosiy shaklga bo'lib ko'rsatish mumkin:

Xalqaro bank krediti;

Xalqaro tijorat krediti.

Xalqaro bank krediti asosan valuta (pul) ko'rinishida bo'ladi.

Xalqaro tijorat krediti esa, odatda tovar ko'rinishiga ega.

Ana shu 2 ta asosiy kredit shaklidan kelib chiqadigan bir qancha kreditlar mavjud:

Firmaning (tijorat) krediti - odatda eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to'lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishiga tushuniladi.

Vekselli kreditda eksportyor tovami sotish haqida bitim to'zib, o'tkazma veksel (tratta)ni importyorga jo'natadi, importyor tijorat hujjatlarini olib akseptlaydi, ya'ni unda ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishga rozilik beradi. Xarid avansi (poko'patelg'skiy avans) eksportni kreditlashning bir formasi bo'lib hisoblanadi va shu vaqtning o'zida importyoming majburiyatini ta'minlovchi vositadir. Rivojlangan mamlakatlarning import bilan shugullanuvchi firmalari rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli ularoq, xarid avansidan shu davlatlarning qishloq xo'jalik mahsulotlarini olib chikib ketishda foydalanmoqdalar.

Avans - shartnomani bajarilishini voz kyechish mumkin bo'lgan bitimga nisbatan ragbatlantiradi.

Xalqaro savdoda bank kreditlari tijorat kreditlariga nisbatan ustnnlikka ega. Ular kredit oluvchini olgan mablag'laridan tovarlar sotib olishga mustaqil foydalanish imkoniyatini tugdiradilar, mol yetkazuvchi firmadan kredit so'rashdan ozod etadilar hamda oxirgi tovarlarga hisob-kitoblami bank kreditidan foydalanib to'laydilar.

Eksport krediti - eksportyor bankining importyor bankiga yetkazib berilgan mashina, asbob-uskuna va boshqa investitsiya qilingan tovarlami kreditlashga aytiladi. Bank kreditlari pul ko'rinishida beriladi va "bog'liq"lik xarakteriga ega, chunki kredit oluvchi ssudadan faqatgina kreditor mamlakat tovarlarini sotib olishigagina beriladi.

Lizing. Asosan xalqaro lizing bo'yicha bitimlar milliy bozorda tuziladigan bitimlardan farq kilmasligi kerak. Ammo alohida mamlakatlaming soliq siyosatidagi farq, xalqaro lizingdagi siyosiy tavakkalchilikning boriigidan o'zgacha taoriflar paydo bo'ldi. Soliq xususiyatiari tufayli lizingnig 2 turi mavjud. Moliyaviy arenda kompaniyalarga qandaydir mulkdan bu mulkning butun iqtisodiy hayoti davomida foydalanish huquqini beradigan o'zgartirib boMmaydigan moliyaviy bitimlarni o'zida aks ettiradi.

6.5. Xalqaro hisob-kitoblar va ularni asosiy shakllari

Xalqaro hisob-kitoblar deganda turli mamlakatlaming yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasida iqtisodiy moliyaviy operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan pul majburiyatlari va talablari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirilishi tushuniladi.

Xalqaro hisob-kitoblaming holati quyidagi bir qator omillarga bog'liq:

- Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar
- Mamlakatdagi valuta qonunchiligi
- Xalqaro savdo qoidalari
- Banklar amaliyoti

■ Tashqi savdo kontraktlari va kredit kelishuvidagi shartlar Hukumatlararo kelishuvlarda hisob-kitoblarning umumiy tartib – qoidalari belgilansa, tashqi savdo bitimlarida shartlar aniq ko'rsatiladi. Ularga asosan quyidagilar kiradi:

- narx qaysi valutada belgilanishi;
- narx qaysi valutada amalga oshirilishi;
- to'lov shartlari;
- to'lov vositalari;
- hisob-kitob shakli;
- qaysi banklar hisob-kitobni amalga oshirishi

Narx valutasini va to'lov valutasini bitimning valuta tushumi jihatdan samaradorligini belgilaydi.

Eksport - import bitimlarining narxi tovarni yetkazib beruvchidan xaridorgacha xarajatlarni o'zgarishi tufayli dinamik o'zgarib boradi.

Hisob-kitoblar turli vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin: veksel, to'lov topshirig'i, bank o'tkazmasi (pochta va telegraf orqali), cheklar, plastik kartochkalar.

Xalqaro hisob-kitobning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- hujjatli akkreditiv
- inkassa
- bank o'tkazmasi
- ochiq schet
- bo'nak
- veksel
- chek

Xalqaro hisoblashuvlarning alohida xususiyati.

Xalqaro hisob-kitoblar - unifikatsiyalash obyekti bo'lib, bunga xo'jalik aloqalarining baynalmillashuvi, bank operatsiyalarining universallasuvi jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro hisob-kitoblar qoidaga ko'ra hujjatli xususiyatga ega, ya'ni ular moliya va tijorat hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy hujjatlarga oddiy va utkazma veksel, cheklar, to'lov tilxatlari kiradi. Tijorat hujjatlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) schet faktura; b) tovarni yuklanganligi yoki jo'natilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (konosementlar, temir yo'l, avtomobil va xavo transporti, yuk xati, pochta kvitantsiyasi, aralash tashishning transport hujjatlari); v) sug'urta hujjatlari:

g) boshqa hujjatlar - tovarni ishlab chiqishini tasdiqlovchi sertifikatlar, sifat sertifikatlari, chegaradan o'tganlik hujjatlari, bojxona hujjatlari va boshqalar.

Xalqaro savdo palatasi (Parij) 1993 yil yangi taxriridagi "hujjatli akkreditivlar uchun unifikatsiyalashgan qoidalari" asosida amalga oshiriladi. Shu qoidalaiga muvofiq akkreditiv bu bank mijozning topshirig'iga muvofiq uchinchi shaxsga (akkreditiv ochilgan shaxs benefitsiarga) taqdim etilgan hujjatlarni to'lash yoki benefitsiar tomonidan berilgan tratteni akseptlash (to'lash) yoki hujjatlarni negatsiyalash (sotib olish) to'g'risidagi kelishuvdir. Xujjatli akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarda:

- bankka akkreditiv ochish to'g'risida murojaat qilgan import qiluvchi (buyruk beruvchi)
- akkreditiv ochuvchi bank - emitent

- eksport qiluvchiga uni nomiga akkreditiv ochilganini ogoxlantiruvchi unga akkreditiv matnini yetkazib beruvchi bank
 - nomiga akkreditiv ochilgan eksport qiluvchi benefitsiar
1. Akkreditiv ochish bo'yicha ariza berish
 2. Akkreditiv ochish va ariza beruvchi bank orqali benefitsiarga akkreditiv matnini jo'natish.
 3. Benefitsiarga akkreditiv ochish to'g'risida xabar berish
 4. Tovami eksportga jo'natish
 5. Benefitsiar tomonidan to'lov uchun hujjatlar to'plashni rasmiylashtirish va bankka jo'natish
 6. A'zo qiluvchi bank tomonidan hujjatlarni bank emitentga jo'natish.
 7. Bank emitent tomonidan olingan hujjatlarni tekshirish va to'lash.
 8. Bank emitent tomonidan to'langan hujjatlarni import qiluvchiga yetkazib berish.
 9. A'zo qiluvchi bank tomonidan eksport tushumini benefitsiarlar 'isobiga o'tkazish.
- akseptli inkassa shaklida hujjatlar aylanishi va to'lovi quyidagi tartibda olib boriladi:
1. Eksport qiluvchi tovar sotish yuzasidan import qiluvchi bilan hujjatli inkassa hisob-kitob shaklida hisoblashish nazarda tutilgan bitim tuzadi va to'lovlarni unga jo'natadi.
 2. Eksport qiluvchi o'z bankiga inkassa topshirig'i va tijorat hujjatlarini jo'natadi.
 3. Eksport qiluvchi bank inkassa topshirig'i va tijorat xujjatlarini vakil bankka yoki import qiluvchi bankka yetkazib beradi.
 4. Vakil bank bu hujjatlarni import qiluvchiga beradi.
 5. Import qiluvchi o'z bankiga hujjatalar bo'yicha to'lovni amalga oshirishni topshiradi.
 6. Inkassa qiluvchi bank remitent bankka to'lov bo'yicha pul o'tkazadi.
 7. Remitent bank o'tkazilgan pulni eksport qiluvchi hisobiga yozadi.
- Inkassa asosida hisoblashuvlarning oddiy va hujjatli shakllari mavjud. Oddiy inkassada to'lov moliyaviy hujjatlar asosida undirilsa, akseptli inkassada moliyaviy hujjatlar tijorat hujjatlari bilan birgalikda yoki faqat tijorat hujjatlari asosida o'tkaziladi.
- Bugda banklar o'z zimmasiga hujjatlar bo'yicha to'lovni o'tkazish majburiyatini oladi. XX asrning oxirlarida katoiy foiz stavkasi bilan bir qatorda kredit bozoridagi stavkasi darajasiga muvofiq tarzda o'zgarib turuvchi so'zib yuruvchi foiz stavkasini ham qo'llanila boshladi. Suzib yuruvchi stavka asosida beriladigan kredit muddatning bir qismi (3-6 oy) uchun foiz davri deb ataluvchi qat'iy stavka ko'llaniladi.

6.6. Xalqaro moliya bozorida banklar raqobatligini oshirish muammolari

Banklarimiz tomonidan mijoz uchun kurash nafaqat kunda, hattoki har daqiqada olib borilmoqda. Bu o'z navbatida banklarning bozor talabi asosida mijozlarga yangi-yangibank xizmatlarini qidirib topib, ularga taklif qilishni talab qilmoqda. Bank-xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi u amalga oshiradigan ishning turli jihatlarini ko'rsatuvchi bir turkum baholar bilan belgilanishi kerak.

Nazarimizda, quyidagi ko'rsatkichlar guruhidan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Bank ishlab chiqarish tijorat faoliyati samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar; Resurslarning asosiy turlaridan foydalanish ko'rsatkichlari; Tovar siyosatiga doir turli unsurlarning samaradorlik ko'rsatkichlari.

Xalqaro andozalarga mos keluvchi banklar (XAB) tuzish dasturi ikki asosiy qismdan tashkil topish mumkin.

XAB sifatida malaka berilgan banklar tomonidan rioya qilinishi kerak bo'lgan talablar majmui; shunday banklar uchun imtiyozlar majmui. Xalqaro darajadagi bankga bo'lgan asosiy talablar ro'yxatiga quyidagilar kiradi:

- bank hisob-kitoblarini oshkora olish imkoniyatini ta'minlash;
- bankning ishlayotgan aktivlarini qisqartirish;
- bank zahiralari birinchi navbatda uzoq muddatli davlat qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish yo'li bilan shakllantirish va bu zahiralarni ishlaydigan aktivlarga aylantirish;
- bank turi, quyilmalar summasi, omonatchilar toifasiga qarab zahiralash me'yorini diferentsiatsiyalash; qo'yilma qoldiqlari o'zgarishlarini aniqroq ilgash imkonini beradigan zahira hisob raqamlarini tez-tez tartibga solib turish;
- kredit xavf-xatarini to'g'ri baholash layoqati;
- mablag'lami korxonalar aksiyalariga joylashtirishda banklar uchun tizimini ishlab chiqish va kreditlar berish;
- bank xizmat ko'rsatishida "zichlik te'yori ni jahon andozalari darajasida ta'minlash;
- bank sarmoyasini yo'qotish xavf xatarsiz mijozlar mablag'lari hisobidan portfelli investitsiyalarni keng tarqatish;
- banklarning bozor ahloqi taktikasida o'rinlarning ko'progini ishonchli moliya vositalaridan foydalanishga berilishi;
- bank axborotining va shaxobcha tarmogini boshqarishni tizimlilik;
- bankda tashqi xavf xatardan himoya qilishning qo'shimcha mexanizmlari ishlab chiqilmogini lozim.
- asosiy o'tkazish e'tibor xizmat sifatini oshirishga, bank mahsulotlarning turli-tumanlilikiga (kredit kartochkalari, sug'urta, faktoring, moliya zahiralari joylashtirishda maslahatlar berish va hokazo) hamda xalol reklamaga qaratilishi kerak;
- banklar o'zlarining katta-kichikligi, joylashgan o'rnini xodimlarning malakasi, mijozlarning tarkibi va boshqalarga qarab operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashishlari, qisqa muddatli kreditlash va investitsiyalash bilan shugullanishlari, kliring markazi bo'lmogini kerak;
- bankning axborot tizimlari asosiga hisob raqamlarini tez moslashuvchan rejasi, hujjatli interfeys qo'yilgan bo'lishi lozim.

Qisqa xulosalar

Valyuta - jahon bozorida, davlatlar orasida pul vazifalarini bajaruvchi, davlatlarni milliy pul birliklari⁶⁴ Xalqaro kredit ssuda kapitalining jahon oborotidagi harakati bo'lib, bu harakat tovar va valuta ko'rinishidagi mablag'larni uch shart asosida, ya'ni: qaytarib berishlik; muddatlilik; % (foiz) to'lashlilik - asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Valyuta munosabatlari va ularning huquqiy asoslari
2. Valyuta operatsiyalari va ularni boshqarish tartibi
3. Xalqaro moliya va kapital bozori va ularni tahlili
4. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning urni.
5. Xalqaro valuta konunchiligi.
6. O'zbekiston Respublikasida valuta tizimini rivojlanishi
7. Chet el valutasida kreditlash.
8. Xalqaro hisob-kitoblar va uning respublika tijorat banklari tomonidan ishlatiladigan asosiy shakllari.
9. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning valuta
10. Banklarning valuta operatsiyalaridagi valuta risldari va ularni boshqarish.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг меъёрий ҳулокатлари тўплами. -Т.: 2003.
2. Дон Патинкин. Денги, процент и цены. -М.: Экономика, 2004.
3. Ефимова М.Р. Финансово-экономические расчеты. Пособие для менеджеров: Учеб. Пос. -М.: ИНФРА-М, 2004.
4. Лаврушин О.И. и др. "Банковское дело". -М.: Ф и С. 2003.
5. Свиридов О.Ю. Денги, Кредит. Банки. -М.: ИКС Март Роцов Р.Д., Изд.центр Март. 2004.
6. Пугачев Ф.Н. Валютные расчёты во внешней торговле Российской Федерации: Учеб пос. -М.: МГИМО, 2004.
7. <http://www.bankofengland.co.uk/market/money/index.htm>
8. <http://www.bankofengland.co.uk/coreupdates.htm>
9. <http://www.boj.or.jp/en/siryu.htm>
10. www.federalreserve.gov

MAVZU: BANK TAVAKKALCHILIGI VA UNI BOSHQARISH

Reja:

7.1. Bank tavakkalchiligi klassifikatsiyasi va tavsifi

7.2. Kredit riski va unga ta'sir qiluvchi omillar

7.3. Bank balansi tahlili va uni bank risklarini pasaytirishga ta'siri

7.4. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida risklami boshqarish muammolari va istiqbollari

7.5. Valyuta risklari va ularni xedjlash

7.1. Bank tavakkalchiligi klassifikatsiyasi va tavsifi

Risk - bu malum maqsadni kuzlagan holda olib borilaetgan faoliyat natijasiga bo'lgan ishonchsizlik, ba'zan qoniqarsiz tugashi natijasidagi yuqotishlardan iboratdir. Risklar bank faoliyatida o'lchash mumkin bo'lgan ko'rsatgichdir va ular doim bankning bajaractgan operatsiyalardan olgan zarariga, yo'qotgan daromadiga teng bo'ladi. Risk va foydalilik o'rtasidagi bog'liqlikga etibor beradigan bo'lsak, bank operatsiyalarining risklilik darajasi ortgan sayin uning foydaliligi ham ortib boradi va aksincha riski kam jarayonlar o'z navbatida kam daromad beruvchi operatsiyalar hisoblanadi.

Tijorat banklari o'z faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan risklami boshqalaiga nisbatan ko'proq o'rganishlari talab etiladi. Chunki Tijorat banklari o'z faoliyati bilan bir tomondan o'z aksiyadorlari oldida javobgar bo'lsalar, ikkinchi tomondan o'z mablag'larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar.

Quyidagi jadvalda (jadval 5) operatsiyalar o'tkazganda paydo bo'ladigan xavf -xatar nuqtai nazaridan bank mahsulotlari xilma-xilligi ko'rsatilgan. Siyosiy risklar - bo'lar korxonalar va xo'jaliklar faoliyatiga siyosiy ahvoldagi o'zgarishlar ta'siridir, Bunga chegaralaming bekilishi, boshqa davlatlarga mahsulot xom ashyo olib chiqish taqiqlanishi. Boshqa davlatlardan mahsulot, xom ashyo olib kirilishning taqiqlanishi. Siyosiy stabillik natijasida mamlakatimiz bilan bog'liq siyosiy riskni kamaytirmoqda. Natijada bugungi kunga kelib respublikamizda chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Iqtisodiy risklar - bo'lar Mamlakat yoki bankning iqtisodiy ahvolidagi salbiy o'zgarishlar oqibatida yuzaga keladigan risklardir. Eng kup tarqalgan iqtisodiy risk turiga balanslanmagan likvidlik riski kiradi, ya'ni majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida bajara olmaslik.

Tarmoq riski - ma'lum bir tarmoqning iqtisodiy-moliyaviy faoliyatidagi boshqa tarmoqlarga nisbatan o'zgarib turish darajasi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Tarmoq riskini boshqarishda quyidagilarni etiborga olish kerak bo'ladi:

- Alternativ tarmoqlar faoliyati qay darajada. Tarmoqlar natijalari o'rtasidagi farq va sabablari.
- Yaxshi faoliyat ko'rsatib kelayitgan tarmoqda keskin o'zgarishlar bor bo'lsa, sababi nimadan iborat.

- Bank mablag'idan foydalanmochi bo'lgan korxonaning moliyaviy natijasi bilan o'z tarmog'i ichidagi o'xshash korxonalar moliyaviy natijalari o'rtasidagi farq.
- Foiz riski. Banklar o'z faoliyatlari davomida doimo operatsiyalar riski bilan bog'liq bo'lgan foiz riskiga duch keladilar.
- Foiz riski- bu foiz stavkalaridagi uzgarishlarning foyda va operatsion xarajatlar o'rtasidagi farqqa ta'siriga aytiladi.

7.2. Kredit riski va unga ta'sir qiluvchi omillar

Kredit riski yoki qarzni qaytarmaslik xavfi kreditning kredit kelishuviga asosan kreditni o'z vaqtida qaytarilishiga va kredit shartlarini bajara olishiga ishonchsizligidan kelib chikadi. Kredit riski bank faoliyatida uchraydigan riskning eng yirigidir.

Bu holat quyidagilar ta'sirida vujudga kelishi mumkin:

- a) tadbirkorlikda, iqtisodiy yoki siyosiy muhitda kutilmagan uzgarishlar yuz berishi natijasida qarzdorning pul tushumini kerakli darajada ta'minlay olmasligi;
- b) kreditga qo'yilgan garovning kelajakdagi qiymati va sifatiga bo'lgan ishonchsizlik (narx o'zgarishi, qo'yilgan mulkning xaridorligi)
- s) qarz oluvchining tadbirkorlik dunesida obrusiz bo'lib qolishi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar banklarning risklarni boshqarish va ularni rejalashtirish uchun doimiy ishlar olib borishiga majbur etadi. Kredit risklari tarkibiga quyidagi risklarni kiritish mumkin:

1. Kreditni o'z vaqtida qaytarmaslik bilan bog'liq risk.
2. Likvidlik riski (tulovlarning muddatida o'tkazmaslik), bu risk kreditni va foizlarni muddatida qaytara olmaslik natijasida bank likvid mablag'larining kamayishiga olib kelishi bilan bog'liq.
3. Kreditni ta'minlash bilan bog'liq risk, bu riskni alohida ko'rib bo'lmaydi, balki bu kreditni qaytarmaslik bilan bog'liq bo'lgan risk bilan birgalikda o'rganiladi.
4. Qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bog'liq risklar.
5. Kapitalning tarkibiy qismi bilan bog'liq risklar. Bu risklar passivlarning tarkibiy qismi va ishbilarmonlik riski bilan bog'liq. Bank kredit riskining darajasi quyidagi faktorlarga bog'liq:

- bank kredit faoliyatining ma'lum bir sohada markazlashuvi darajasi;
- o'ziga xos ma'lum qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan mijozlarga kredit va boshqa bank xizmatlarining qancha to'g'ri kelishi;
- kam o'rganilgan, yangi, noan'anaviy sohalarda bank faoliyatining markazlashuvi;
- kredit berish, qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish bo'yicha bank siyosatiga xususiy va jiddiy o'zgarishlar kiritish;
- yangi va yaqinda jalb qilingan mijozlarning foizi;
- qisqa vaqt ichida amaliyotga juda ko'p xizmatlarning kirgizilishi (u vaqtda bankda salbiy talablar ko'payishi mumkin);

bozorda sotilishi qiyin bo'lgan qimmatliklarni yoki qiymati tez tushadigan narsalarni garov sifatida qabul qilib olish; va boshqalar. Kredit risklarini baholashning besh asosiy o'lchovi mavjud:

a) Reputatsiya. Mazkur jarayon shaxsiy muomala, ham shaxsiy, ham ish bo'yicha tajribasidan iborat bo'lishi kerak. (kreditor, mahsulot yetishtirib beruvchilar va mijoziarni tekshirish)

b) Imkoniyatlar. Qarz oluvchining o'zining barcha operatsiyalari bo'yicha (o'zining butun faoliyati davomida qarz oluvchining olgan pullari) yoki aniq loyiha bo'yicha mablag' olish qobiliyati va pul vositalarini boshqarish qobiliyati (bu avvalgi loyihalardan ma'lum bo'lishi kerak).

v) Kapital.

g) Shart-sharoitlar. Mahalliy, hududiy va umummilliy iqtisodning joriy ahvoli va tavsifi, shuningdek qarz oluvchi xo'jaligining sohalari.

d) Garov. Kreditni garov yoki kafillik shaklida ishonchli ta'minlash boshqa tomondan kuchsizliklarni yuqqa chiqarib qo'yadi. Yaxshi bir qoida bor: faqat garov va kafillik asosida hech vaqt kredit bermang. Banklar kredit riskini kamaytirish maqsadida ko'pincha quyidagilardan foydalanadilar:

1. Garov (ta'minotlar)

2. Kafolat

3. Kafillik

Alohida kredit miqyosida risklarni boshqarish instrumentlari Kredit portfeli risklarini boshqarish instrumentlari Risklarning vujudga kelishini oldini olish instrumentlari Kreditga laekatlilikni sifatli baholash va uning obyektivligini Oshirish Kredit qarorlarini qabul qilish jarayonini informatsion ta'minlash va kadrlar tanlash erdamida yaxshilash

1. Kreditga layoqatliligini tekshirish

2. Kredit monitoringi

1. Kreditga layoqatliligini malakali tekshirish

2. Boshqaruv strukturasi mukammallashtirish

3. Informatsion texnologiyaning ahamiyati

4. Kredit berishni nazorat qilish

Vujudga kelgan risk oqibatlarini bartaraf qilish instrumentlari Yuqotishlarni cheklash uchun aktiv instrumentlari Zararlarni sug'urtalash usun passiv instrumentlari Yo'qotishni cheklash uchun aktiv instrumentlari Zararlarni sug'urtalash uchun passiv instrumentlari.

Ta'minotlar- bu bank garov sifatida qabul qilishi mumkin bo'lgan va kerak vaqtda realizatsiya qilish uchun huquqga ega bo'lishi mumkin bo'lgan moddiy aktivlar. Lekin bu moddiy aktivlardan qaysi birini garov sifatida qabul qilish mumkin degan sovg'a javob berishi uchun bu ta'minotlar uchta prinsiplarga talabgajavob berishi kerak.

1. Tez sotilishi uchun o'z bozoriga ega bo'lishi kerak.

2. Saqlanuvchan bo'lishi kerak. Ya'ni saqlanish davrida buzilmaydigan va o'zining xususiyatlarini yo'qotmasligi kerak.

3. Boshqa garovdan holi bo'lishi kerak. Kredit risklarning vujudga kelishini oldini olish va risklar vujudga kelgan hollarda choralar ko'rishda kredit risklarini boshqarish instrumentlarining ishlash mexanizmi yuqoridagi keltirilgan 5-jadvalda tasvirlangan.

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalari asosida shuni ta'kidlash lozimki, kredit risklarini boshqarishda uchta asosiy prinsiplarga e'tibor berish kerak.

1. Kredit risklarini boshqarishda bankning umumiy risklarini ham e'tiborga olishi kerak.

2. Bankning o'z zimmasiga risklarni olishi va boshqarishi alohida operatsiya bo'yicha emas, balki bankning umumiy faoliyati miqyosida bo'ladi.

3. Kredit risklarini boshqarishning yo'naltirilgan va aniq ishlab chiqilgan bank metodologiyasi bank kredit faoliyatining muammoli bug'inlarini aniqlashga va ularning oldini olishga imkon yaratishi kerak.

Hozirgi kunda kredit portfeli sifat jihatidan quyidagicha klasifikatsiya qilinadi:

Yaxshi. Yaxshi kreditlar o'z vaqtida qaytarilishiga shubha bo'lmagan kreditlardir, qarzdor moliyaviy holati turg'un, yuqori rentabellikga ega, xususiy kapital darajasi yuqori, debitorlik qarzlarning aylanish muddati qisqa.

Qonikarli. Bu kreditlar tulk ta'minotga ega bo'lgan holda vaqtincha qaytarilmagan kreditlar hisobida 30 kundan 60 kungacha bo'lgan kreditlar hamda etarli darajada ta'minlanmagan va to'lov muddatidan 30 kungacha o'tgan kreditlar.

Substandard Bu sifatsiz kreditlar bo'lib ularni qaytarishda ma'lum darajada muammolar paydo bo'lishi mumkin.

Yaxshi taminotga ega bo'lgan holda to'lov muddatidan 60 kundan 180 kungacha o'tkazilgan, yetarli darajada taminlanmagan holda 30 kundan 60 kungacha o'tkazilgan kreditlar hamda taminlanmagan holda 30 kungacha bo'lgan kreditlar.

Shubxali. Bu kredit yuqorida yozilgan jami kamchiliklarga ega bo'lgan holda qushimcha ravishda emon taminlangan kreditlar.

Etarli taminotga ega bo'lgan holda qarz asosiy summasining to'lov muddati 180 kundan o'tgan, etarli taminotga ega bo'lmagan holda 60 kundan 180 kungacha hamda taminotsiz holda 30 kundan 60 kungacha bo'lgan kreditlar Yuqotilgan. Qaytarilishiga ishonch bo'lmagan kreditlar Ularning qiymati minimal darajada hisoblangan holda ularni bank balansida ushlab turish maqsadga muvofiq emas deb sanaladi.

Etarli darajada ta'minlanmagan holda asosiy summa bo'yicha to'lovlar 180 kun va undan ortiq davr ichida amalga oshirilmagan bo'lsa hamda ta'minlanmagan holda 60 - 180 kunlik davr ichida to'lanmagan kreditlar.

Muammoli kreditlarga yo'l quymaslikning asosiy omillaridan biri to'g'ri ishlab chiqilgan kredit siyosatidir. Bazan banklar qarz oluvchilarga keragidan ortiq talablarni qo'yishi natijasida mijozlar bajaraolmaydigan holatlar paydo bo'lishiga ham zamin yaratmoqda. Muammoli kreditlarning paydo bo'lishi o'z navbatida bankga qarz summasi va foizining qaytarilishini dargumon qilish bilan bir qatorda boshqa zararlarga ham sabab bo'ladi.

7.3. Bank balansi tahlili va uni bank risklarini pasaytirishga ta'siri

Risk darajasini bank faoliyatida ulchash mumkin degan nuqtai- nazardan kelib chiqqan holda risklarga qarshi ko'rilgan chora-tadbirlar natijasini ham o'lchash mumkin bo'ladi va u olingan daromad hamda mijozlar ishonchidan iborat bo'ladi deyish mumkin. Chunki mijozlar bank tanlash xuquqiga ega bo'lganliklari sababli ular faqat ishonchli banklarga murojat etadilar. Bank faoliyatidagi operatsiyalarning risklilik darajasini o'rganishga bo'lgan harakatlar natijasida 1988 yilda Bazclu konventsiyasida

qabul qilingan va bu ko'rsatgichlar asosida respublika banklari tomonidan o'tkazilgan aktiv operatsiyalar faoliyatini risklilik darajasi bo'yicha Markaziy bank tomonidan maxsus qabul qilingan qo'llanma asosida tahlil o'tkazishimish mumkin. Quyidagi A va B banklarining operatsiyalarining riskliligini tahlil qilish mumkin. Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki ikkala bankda ham aktiv operatsiyalar diversifikatsiyasi konikarli emas Bundan tashqari mablag'laming juda katta qismi riskli iaravonlarea yuborilgan. A bank bo'yicha bu ko'sateich 90 foizdan vuaori. B bank bo'yicha esa 93 foiz atrofida bo'lib bu bankning risklilik darajasi A bankdan ko'ra yuqoriroqdir. Ikkala bank ham yuqori foyda olishga intilganligi operatsiyalar risklilik darajasidan ko'rinib turibdi. Bundan tashqari bu banklarda boshqa bank operatsiyalari bo'yicha tajribaning yuqligi ham bo'lishi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatidagi risklar darajasining ko'tarilishi o'z navbatida quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- muammolaming favqulotda paydo bo'lishi va ularga qarshi chora ko'rishning imkoni bo'lmasligi. (bo'lar qatoriga tabiy ofatlami ham kiritish mumkin.);
- Qo'yilgan vazifaning uzgarishi, oldingi davr tajribasiga mos kelmasligi (Utish davridagi tijorat banklariga ayniqsa muhimdir.);
- bank rahbariyati tomonidan zarur chora - tadbirlar qabul qilinmasligi oqibatida moliyaviy zararlar ko'rish;

Tijorat banklari faoliyati eng avvalo foyda olishga qaratilganidek barcha foyda beruvchi operatsiyalar o'z navbatida har xil darajaga ega bo'lgan holda riskka tobedir. (3-jadvalga karalsin) Respublikamiz sharoitida ya'ni utish davrida tijorat banklari risklami urganishlarida kuyidagilarga etibor berishlari talab etiladi.

7.4. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida risklami boshqarish muammolari va istiqbollari

Rivojlangan mamlakatlar banklariga nisbatan MDH davlatlari va shu jumladan respublikamiz banklari faoliyati yanada kuproq riskka ega bulmoqda. Buning asosiy sababi rejali iktisod davridagi bank faoliyati bilan bugungi davr banklari faoliyatining tubdan farq qilishidir. Bugungi kunda banklar o'z faoliyatini davr talabiga javob beradigan holda qayta tashkil etishlari va yangi turdagi bank operatsiyalami amalga oshirishlarida etarli tajribaning yo'qligi ular faoliyatidagi risk darajasini yanada oshirmoqda.

Risk darajasini baholashda hamda uni kamaytirishga qaratilgan eng kadimiy choralardan biri bu risklami sug'urta qilish usulidir. Bugungi kungda Respublikamiz tijorat banklari bu usuldan foydalanishlari bir muncha qiyinrok bulmoqda, chunld utish davrida barcha MDH davlatlaridagj kabi bizning respublikamizda ham sug'urta faoliyati yangi davr talablari ostida qayta tashkillashtirilmoqda va u yangi uzlashtirilaetgaii sohalar qatoriga kirmoqda. Bank risklarini paydo kiluvchi faktorlar asosida eng awolo Iktisodiy hamda siyosiy faktorlar etadi.

Bank risklarini boshqarish jarayonining vazifalarini belgilovchi 4 asosiy bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Bank risklarini tahlil qilish va baholash. Bank axborot manbalaridan kredit risklarini va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash hamda ularni nazorat qilinishini va boshqariladigan risklarga ajratishi kerak.

2. Risk miqdorini aniqlash. Riskning miqdoriy ko'rsatkichini aniqlash ehtimoliy yuqotishlar miqdorini aniqlashga va aktiv boshqarish instrumentlari vositasida risk darajasini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

3. Bank risklarini boshqarish. Boshqariladigan risklar va ularning miqdori aniqlanganidan keyin, kredit risklarini boshqarish metodologiyasi va strategiyasi ishlab chiqilishi zarur.

4. Bank risklarini samarali boshqarish ustidan nazorat. Risklarni boshqarish bo'yicha tadbirlar natijalari nazorat ostida bo'lishi lozim.

Tasavvur riskini boshqarishda ishlatiladigan tushuncha bu sistematik risk deb yuritiladi. U orqali tarmoqlarda yuz berayotgan tebranishlar darajasi butun iqtisodda yuz berayotgan tebranishlar darajasiga nisbatan solishtiriladi.

Foiz riskini boshqarish usullaridan biri aktiv va majburiyatlarni boshqarish bilan bog'liqdir. Bunda aktiv va majburiyatlar o'rtasida muddatga foiz stavkalarining qat'iy yoki bozor asosida o'zgaruvchanligini muvofiqlashtirish kerak bo'ladi. Lekin bunga erishish har doim ham mumkin bo'lmaydi.

- Umuman olganda bank faoliyatidagi risklarni kamaytirish maqsadida riskni diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bank risklarini boshqarish instrumentlari banklar tomonidan risklarini kelib chiqishi va ular bilan bog'liq salbiy hollarning oldini olish maqsadida alohida kredit mikesida ishlatilishi bilan birga bank kredit portfeli mikesida ham ishlatiladi. Risklar nazorati esa, ya'ni ularni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish bankka kredit riski hajmi va xarakteri to'g'risida aniq axborotlarda ega bo'lishga va shu asosda mavjudga kelgan risk miqdorining rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan chetlanishini aniqlashga yordam beradi: bu esa o'z navbatida bank tomonidan tegishli choralar ko'rishga erdam beradi.

7.5. Valyuta risklari va ularni xedjirlash

Valyuta riski. Tashqi risklar qatoriga kiruvchi valyuta riski ekin kurs uzgarishi natijasida paydo bo'ladigan risk. U o'z navbatida bank operatsiyalarining xalqaro xarakteriga bilan bog'liq. Bu risk banklar bilan bir qatorda Chet el valutasida shartnomalarni amalga oshirayotgan Iqtisod subektlarining barchasiga o'z ta'sirini utkazishi mumkin. 1970- yillardan keyin qat'iy valyuta kursining bekor qilinishi va uning umida suzuvchi kurs umatilgandan boshlab valyuta riskini boshqarish bo'yicha harakatlar boshlangan. Valyuta riski o'z navbatida ikkiga bulinadi:

1. Tijoriy - qarzdor o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovni amalga oshira olmasligi bilan bog'liq risklar.

2. Konversion.- Aniq operatsiyalar bo'yicha olinadigan valyuta zararlari riski Bu riskni oldini olish bo'yicha kulllaniladigan eng kup tarqalgan usul bu "hedjirlash" va "svop" operatsiyalaridir.

Hedjirlash - har qanday valyuta riskiga ega bo'lgan shartnomalarni kompensatsiya qiluvchi valyuta pozitsiyasi yaratishga qaratilgan. Valyuta svopini paralel kreditlashga

uxshatish mumkin, bunda ikki mamlakat hududida joylashgan ikki bank o'z mamlakatlari valutasida teng hisoblarda kredit beradi. Xalqoro operatsiyalami amalga oshirayotgan banklar valuta riskini boshqarish bo'yicha ulami diversifikatsiyalashdan foydalanadilar va bu maqsadda forvard, fyuchers, valuta opsiolari kabi operatsiyalardan foydalanadilar.

Qisqa xulosalar

Risk - bu ma'lum maqsadni kuzlagan holda olib borilaetgan faoliyat natijasiga bo'lgan ishonchsizlik, ba'zan qonikarsiz tugashi natijasidagi yuqotishlardan iboratdir. Xedjerlash - har qanday valuta riskiga ega bo'lgan shartnomalami kompensatsiya qiluvchi valuta pozitsiyasi yaratishga qaratilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bank faoliyatida vujudga keladigan risklar
2. Bank kredit portfeli diversifikatsiyasi muammolari
3. Naqd pulsiz hisob-kitoblar sohasida bank tawakalchiligi va lining turiari.
4. Valyuta risklari va ulami vujudga kelish sabablari
5. Bank kredit portfeli diversifikatsiyasi turiari
6. Tawakalchilikni boshqarish vositalari.
7. Banklar tawakalchiligining sug'urtasi.
8. O'zbekistondagi tijorat banklarda, bank tavakkalchiligining sug'urtasini rivojlantirish muammolari va istikbollari.
9. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida sug'urtalash operatsiyalari
10. Moliya bozorlarida xedjinglash usullaridan foydalanish xususiyatiari

Asosiy adabiyotlar

1. Дон Патинкин. Денги, процент и цены. -М.: Экономика, 2004.
2. Лаврушин О.И. и др. Банковское дело. -М.: Ф и С. 2003.
3. Соколов Ю.А., Амасова Н.А. Система страхования банковских рисков. Науч изд. -М.: ООО изд Элит, 2003.
4. Сухова Л.Ф. Практикум по анализу финансового состояния и оценки кредитоспособности банка-заёмщика. -М.: Финансы и статистика, 2003.
5. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски.-Изд. 3-е-М.: Дашков и К, 2004.

MAVZU: BANK LIKVIDLIGI VA UNI TA'MINLASH OMILLARI

Reja:

8.1. Bank balansi likvidligi va to'lov qobiliyati tushunchalari

8.2. Tijorat banki likvidligini boshqarish tahlili

8.3. Chet el mamlakatlari tijorat banklari to'lov qobiliyati va likvidligini tartibga solish tajribasi

8.4. O'zbekistonda Respublikasi tijorat banklarida bank to'lov qobiliyatini tartibga solish muammolari

8.5. O'zbekiston Respublikasining hozirgi sharoitida tijorat banklari ishonchliligini baholash va tahlili

8.1. Bank balansi likvidligi va to'lov qobiliyati tushunchalari

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanadigan asosiy ustunlaridan biri bo'lib moliyaviy jihatdan inustahkam va barqaror faoliyat ko'rsatuvchi bank tizimi hisoblanadi. Har bir mustaqil davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va kelajakdagi taraqqiyoti avvalo mazkur mamlakatda barpo etilgan va muntazam ravishda takomillashtirilib boriladigan bank tizimining faoliyatiga bog'liqdir.

Banklarning uziga xos xususiyati shundaki, ular o'z mablag'lari bilangina emas, balki omonatchilar va kreditorlar, aksionerlar hamda mijozlar ularga ishonib topshirgan mablag'lar bilan, ya'ni keng jamoatchilik bilan ish ko'radi.

Ushbu mexanizmning ajralmas qismi bo'lib ham makroiqtisodiy Tiutanosiblikka, ham mikroiktisodiy darajada xo'jalik faoliyatini yuritilish sharoitlariga ta'sir ko'rsatuvchi tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda tijorat banki faoliyatini barqarorligining asosi bo'lgan Markaziy Bank nochor banklarini aniqlash va ularga iqtisodiy madad berish ulaming sinishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini qo'rmoqda. Bu o'z navbatida tijorat banklarining bankrotlik holatlarini ta'minlamoqda.

Tijorat banklari vujudga kelganidan boshlab ularning likvidligini ta'minlash va boshqarish muammosi paydo bo'ldi. Bank tizimining nolikvidligi makroiqtisodiy sivosatning barqarorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bozor munosabatlariga utish sharoitida bu muammo yanada dolzarbrok ahamiyat kasb etmoqda, chunki o'tkazilayotgan islohotlarning muvafTaqqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bank tizimining borqaror faoliyat ko'rsatishi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki tijorat banklari har kuni o'zaro bog'liq bir necha masalalarni yechmoqlari lozim:

- a) o'z operatsiyalarining foydaliligiga erishish;
- b) likvidlik darajasini zarur darajada saqlash;
- v) to'lov qobiliyatini mustahkamlash va boshqalar.

Ammo shuni ta'kidlash lozimki bankning daromadliligi va likvidligi o'zaro teskari mutanosibdir. Yukon likvidlikni la'ininlash bankning yuqori daromadlikka erishish

maqsadiga ziddir, chunki likvid aktivlar nolikvid aktivlarga nisbatan kam foiz daromadlari keltiradilar. Boshqa tomondan yuqori foydaga erishish maqsadida aktiv siesat yuigizaetgan banklar likvid aktivlarini mumkin bo'lgan minimal darajada ushlab turish tenedentsiyasiga ega bo'ladilar. Likvidlik va daromadlik o'rtasidagi bunday O'zaro bog'liqlik bank siyosati noratsional tuzilgan sharoitda yuqori likvidlik mavjud holda uning noventabelligiga yoki xatarli darajada past bo'lgan likvidlik sharoitida bankning yuqori daromadligiga olib kelishi va bu uning hankrotligiga sabab bo'lishi mumkin. Likvidlik va fovdalilikning optimal darajada bo'lishini ta'minlash uchun banklar bu ko'rsatgichlarni kompleks tahlil qilishlari zarur, buning uchun esa avvalo "bankning likvidligi" va bankning to'lov qobiliyati" kabi tushunchalarni ko'rib chiqmoq zarur. Likvidlik termini moddiy qiyhatliklarning va boshqa aktivlarning tezda sotilishini va pulga aylanishini ifodalaydi. Bankning likvidligini shuningdek ko'pgina hollarda naqd mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan yoki korrespondent banklardan sotib olish qobiliyati deb kam baholashadi. To'lov qobiliyati bank likvidligi deganda likvid aktivlarini sotish, pul mablag'larini Markaziy bankdan sotib olish va aksiyalar, obligasiyalar, depozit va omonat sertifikatlari hamda bosliq qarz instrumentlarini emissiyasini amalga oshirish imkoniyatlari nazarda tutiladi. To'lov qobiliyati - bu birmuncha kengrok bo'lib u faqatgina aktivlarni tezda pulga aylantirish imkoniyatlarini emas, balki tijorat bankining o'z kreditorlari - momonatchilar, banklar va davlat oldidagi kredit va boshqa pul xarakteridagi operatsiyalaridan kelib chikadigan o'z to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida va to'lov qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, likvidlik to'lov qobiliyatining zaif va majburiy sharti sifatida maydonga chikadi. Tijorat bankining likvidligi uning passiv bo'yicha pul shaklidagi o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash qobiliyatidir. Bankning likvidligi bank balansining aktiv va passivlarini balanslashtirilganlik darajasi. bank tomonidan joylashtirilgan aktivlar va jalb qilingan passivlarning muddati bo'yicha uzaro moslik darajasi bilan belgilanadi. Bank likvidligining me'yorlari odatda balans aktivlarining turli moddalarim passivlarning jami summasiga yoki ma'lum moddalariga, yoki aksincha passivlarning aktivlarga bo'lgan nisbati sifatida o'rnatiladi. Bankning to'lov qobiliyatiga uning o'z majburiyatlari bo'yicha zarur summada javob bera olish qobiliyati deb ta'rif beriladi.

8.2. Tijorat banki likvidligini boshqarish tahlili

Oqim sifatida likvidlik muayyan muddat uchun yoki kelgusi davr uchun baholanadi. Bunda likvidlik zahira nuqtai-nazaridan juda tor undashuv deb baholanadi. Likvidlikni oqim sifatida ko'rib chiqish jaraenida kamroq likvidlikka ega aktivlarni kuo'prok likvidlikka ega bo'lgan aktivlarga aylanishini ta'minlash imkoniyatlariga, shuningdek qo'shimcha mablag'larni, shu jumladan qarz mablag'larni jalb qilishga alohida e'tibor beriladi. Shunday qilib likvidlikni faqatgina oqim sifatida baholash emas, balki likvidlikni prognoz sifatida baholash ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'zining lahzali likvidligini ta'minlash uchun yetarli likvid aktivlari zakiralariga ega bo'lgan bank vaqt utishi bilan, ya'ni majburiyatlar oqimining likvid aktivlariga

joylashtirilgan qo'yilmalar transformatsiya okimidan ortib ketishi oqibatida o'z likvidligini yo'qotishi mumkin. Likvidlik - prognozni baholash muammoli masala hisoblanadi, chunki u bankning aktiv operatsiyalari xavfxatari(riski)ni baholash bilan bog'liq. Uzbyokiston amaliyatida bu maqsad uchun O'zbyokiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chiqarilgan bank nazorati bo'yicha me'yoriy hujjatlariga asosan tijorat banklari tomonidan hisoblanadigar. iqtisodiy me'rlar xizmat qiladi.

Likvidlik xavf-xatari deganda odatda bankni muayyan Iahzada naqd pulni ancha yuqori bo'lgan bahoda sotib olishga yoki o'z aktivlari qiymatini yo'qolishiga majbur qiladigan xavf-xatar tushuniladi. Bunda bank aktivlari fakatgina tezda va qiymatini yo'qolishiga yo'l qo'ymasdan sotilsagina likvid hisoblanadi. Bank passivlari bank ssudalami raqobatchi banklar xarid qilayotgan stavka bo'yicha sotib olishi mumkin bo'lgan taqdirdagina likvid hisoblanadi.

Bank balansi likvidligigj uning aktivlari tarkibi ta'sir qiladi: aktivlaming umumiy summasida birinchi toifa likvid mablag'lari qancha ko'p bo'lsa bankning likvidligi ham shuncha yuqori bo'ladi. Xalqaro bank amaliyotida aktivlaming eng likvid yoismi bo'lib kassadagi naqd pullar, shuningdek ushbu tjjorat bankining Markaziy bankdagi mablag'lari, Markaziy bankda qayta hisobga olinish mumkin bo'lgan qisqa muddatli tijorat veksellari va hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Likvidlik darajasi past bo'lgan aktivlar tarkibiga esa uzoq muddatli ssudalar va mulkka qilingan qo'yilmalar kiritiladi. Bank aktivlarini ularning likvidlik darajasiga ko'ra tahlil qilish bank likvidligi holatini erkin ifodalaydi. Bundan tashqari bankning likvidligi alohida aktiv operatsiyalarning xatardarajasiga bog'liq: bank balansida yuqori xatarii aktivlar kancha ko'p ulushga ega bo'lsa odatda uning likvidligi shuncha past bo'ladi. Bank mijozlarining kreditga darajasi ham bank ssudalarining o'z vaqtida qaytishiga va shu orqali bank likvidligiga ta'sir qiladi. Bank likvidligi shuningdek balans passivlari tarkibiga ham bog'liq.

Tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi bir qator omillar mavjud bo'lib ulami makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarga bo'lish mumkin. Ushbu omillar tijorat banklari likvidligi va to'lov qobiliyatiga kompleks tarzda ta'sir etadi, chunki o'rtasida uzaro aloqalar kuzatiladi.

Tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy omillarga quyidagilami kiritish mumkin: mamlakatdagi geosiyosiy va makroiqtisodiy vaziyat; bank faoliyatining barcha qonuniy, yuridik va me'yoriari; bank tizimining tarkibiy tuzilmasi va barqarorligi; pul bozori va qimmatbaho qog'ozlar bozorining holati va boshqalar. Bizning mamlakatimizda tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatini davlat tomonidan tartibga solishning turli usullari keng qo'llanilmoqda. Bu usullar tijorat banklarining faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan turli me'yorlar va cheklovlar o'rnatish hamda banklar faoliyatini soliqqa tortish kabilardan iboratdir.

Bundan tashqari tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi mikroiqtisodiy omillar kam mavjud bo'lib ular sirasiga quyidagi asosiylarini kiritish mumkin: tijorat bankining resurs bazasi,qo'yilmalar sifati, menejment darajasi, shuningdek bank faoliyatining funksional tizimi va ushbu faoliyatning

rag'batlantirilishi. Tijorat banklari likvidlik dinamikasiga quyidagi uchta asosiy omil ta'sir ko'rsatadi:

- jamg'armalar summasining oshishi yoki kamayishi bilan bog'liq holda mablag'lami kirim yoki chiqim qilish.
- ssudalar va investitsiyalar hajmining oshishi yoki kamayishi bilan bog'liq holda mablag'laming oqib kelishi va chiqib ketishi.
- Jamgarmalar hajmining o'sishi yoki kamayishi oqibatida majburiy rezervlar miqdorining o'sishi yoki kamayishi, chunki majburiy rezervlar me'yoring bajarilishiga yo'naltirilgan mablag'lar likvid aktivlarining asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

8.3. Chet el mamlakatlari tijorat banklari to'lov qobiliyati va likvidligini tartibga solish tajribasi

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimlari bir-biriga o'xshash bo'lib tuyulsada ulaming har biri asrlar mobaynida tashkil topgan uziga xos bank ishi milliy munosabatlari va ulaming tarkibiy qismlariga ega. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va ulami barqarorligini ta'minlash borasida har qanday davlat ham o'ziga xos tajribalarga ega. Jahon banklari amaliyotida ichki va tashqi nazoratni tashkil etishga turlicha endashuvlar mavjud. Institutsional nuqtai nazardan bu tizimning tashkiliy tuzilish usullari, Markaziy bankning ushbu tizimdagi o'rni va roli bilan farq qiluvchi uch guruh mamlakatlarini ajratish mumkin:

nazorat faoliyati fakatgina Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Avstraliya, Buyuk Britaniya, Islandiya, Ispaniya, Irlandiya, Italiya, Yangi Zellandiya, Portugaliya. nazorat faoliyati Markaziy bank tomonidan boshqa organlar bilan birga amalga oshiriladigan mamlakatlar:

AQSh - Federal Rezerv Tizimi (FRT), Moliya vazirligi va mustakil agentlik - Depozitlami Sug'urtalash Federal Korporatsiyasi (DSFK) bilan birgalikda; Shveytsariya - Markaziy bank. Federal Bank Komissiyasi bilan birgalikda; Fransiya - Fransiya Banki, Bank Komissiyasi bilan birgalikda; Germaniya - Bundesbank, Kredit Nazorati Federal Xizmati bilan birgalikda nazorat faoliyati Markaziy bank tomonidan emas, balki boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Kanada, Daniya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Avstriya, Finlandiya, Norvegiya. AQSh da banklar faoliyatini nazorat etish va boshqarish bizdan farq qiladi. Bugungi kunda AQSh banklarini boshqarish va ulami faoliyatini nazorat etish quyidagi idoralar tomonidan olib boriladi:

1. Federal rezerv sistemasi.
2. Pul muomalasi nazoratchisi barcha milliy banklami nazorat qiladi.
3. Depozitlami sug'urtalovchi Federal korporatsiyasi bank va mijozlar depozitlarini sug'urtalaydi, bankrotlikka uchragan banklarga o'z vakolati doirasida yordam beradi.
4. Adliya vazirligi.
5. qimmatli qog'ozlar va bijalar bo'yicha komissiya.
6. Shtatlardagi bank faoliyati bo'yicha komissiya yoki bank sovetlari yangi banklar ochilishi uchun charterlar beradi va o'z navbatida shtatda charter olgan barcha

banklami doimiy tekshiradi hamda ulami doimiy ravishda nazorat etadi. Moliyaviy barqarorligini yo'qotgan banklarga DSFK quyidagicha yordam berishi mumkin:

1. Bankrotlikka uchragan yoki barqarorligini yo'qotgan banklami boshqa bir iqtisodiy baquwat bank bilan qo'shilishga yordam berish.
2. Sug'urtalash orqali banklami bankrotlikni bosib o'tish imkonini vujudga keltirish.
3. Bankrotlikka yuz tutgan bankning hisobiga belgilangan miqdorda pul mablag'i o'tkazish orqali bankni saqlab qolishi mumkin. 1986 yildan boshlab korporatsiya har xaftada tegishli chora ko'rilgan banklar, ularning xizmatchilariga nisbatan ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida matbuot orqali aholini xabardor qilib turadi. AQShda banklar va jamg'arma muassasalarining faoliyati ham federal darajada ham shtatlar doirasida tartibga solinadi. Federal darajada kaznacheystva (moliya vazirligining amerikacha ekvivalenti) ning bo'limJaridan biri milliy banklami tashkil etishga lisenziya beradi va ular faoliyatini tartibga soladi. Depozitlami sug'urtalash federal korporatsiyasi esa har bir deposit muassasasidagi 100,000 AQSh dollarigacha bo'lgan depozit schetlarini sug'urta qiladi. Angliya Bank tizimining o'ziga xos harakatlantiruvchi asosiy qismi va London pul bozorining asosiy qatnashchilari yirik tijorat banklaridan iborat cheklangan

guruh hisoblanadi. Ular jumlasiga awalo mamlakatning yirik "katta to'rtlik" banklari: "Lloyds", "Midland", "Barklayz" va "Neshnl Vestminster" kiradi.

Tijorat banklari va kredit-moliya institutlarining faoliyatini tartibga solish Angliya Banki tomonidan amalga oshiriladi. 1979 yilgi bank qonuni mayda bank depozitorlari va jamg'armachilarini bank inqirozlaridan himoya qilish maqsadida bank depozitorlarini himoyaiash tizimini ishlab chiqdi. Bu boshqarma Depozitlami himoyaiash Fondini boshqaradi hamda barcha banklar va depozit qabul qiluvchi muassalar o'z depozit bazalariga nisbatan 0,3%, ammo 300,000 funt sterlingdan oshmagan miqdorda badal to'lashlari shart. 1981 yilda qabul qilingan "Monetar Nazorat to'g'risidagi nizonVga binoan bank muassalari va depozit qabul qiluvchilarning likvidligini ta'minlash maqsadida bu muassasalar o'z majburiyatlarining 0,5% ini Angliya Bankidagi operatsiyalarda qatnashmaydigan hisob raqamida saqlashlari shart qilib qo'yildi. 1987 yilgi bank qonuniga muvofiq vakolatli banklar bu maqomini Angliya Bankidan olish uchun quyidagi talablarga javob berishi shartligi belgilab qo'yildi:

- a) muassasaning direktorlari, nazoratchilari va boshqaruvchilari o'zlarining lavozimlariga mos bo'lgan tartibli va vijdonli shaxslar bo'lishi lozim;
- b) muassaning faoliyati kamida ikki kishi tomonidan samarali boshqarilmog'i lozim;
- s) kapitalning yetarliligi, shubhali qarzlami boshqarish, likvidlik, boshqaruvning ichki nazorati kabilarni hisobga olgan holda biznes extiyotkorlik bilan yuritilmog'i lozim. Germaniya bank tizimida kredit tizimining turli zvenolari o'rtasidagi o'zaro aloqalaming asosi sifatida universallashtirish tamoyili qo'llaniladi. Unga binoan turli kredit muassasalari moliyaviy operatsiyalami amalga oshirishda bir xil huquqqa egadirlar.

Germaniyada tijorat banklari faoliyatini tartibga solish vazifasi Bundesbank va Kredit Nazorati Federal Xizmati zimmasiga yuklangan. Bundesbank faqat birgina real ta'sir vositasiga ega, ya'ni u ham bo'lsa majburiy rezervlashning eng kam

miqdorini umatish va tijorat banklari ustidan nazorat qilishning fakatgina ikki instrumentiga ega - bo'lar mablag'lami rezervlash va hisobotlar qabul qilish. Boshqa nazorat funksiyalari Moliya vazirligiga bo'ysinuvchi Kredit Nazorati Federal Xizmati zimmasiga yuklangan. Germaniyada faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari Bundesbankka bank balansi likvidligining ahvoli haqida har oyning oxirida talab etilgan shakllar bo'yicha hisobot topshiradilar. Fransiya bank tizimi ham dunyodagi eng qadimgi va hozirgi kunda taraqqiy etgan tizimlardan biri sanaladi, shu sababli ham bizningcha uning tajribasini o'rganish foydadan xoli emas.

8.4. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida bank to'lov qobiliyatini tartibga solish muammolari

Tijorat banklarining barqarorlik darajasini ekzogen va endogen faktorlar orqali aniqlanadi. Banklarning keng ko'lamda bankrotlikka uchrashi ekzogen faktorlaiga to'g'ri keladi. Bu - mamlakat yoki hududdagi siyosiy holat, umumiy iqtisodiy holat, moliya bozoridagi ahvol, kamkor-banklarning ishonchliligi, bank mijozlarining ishonchliligi.

Agarda ekzogen faktorlarning ta'siri barqaror bo'lsa, u holda bankning holati endogen faktorlarda aniqlanadi. Bular bank strategiyasi, o'z kapital mablag'lari bilan taminlanganligi, kadrlar malakasining darajasi, menedjment darajasi va uning ichki siyosati. Risk darajasi foizlarda shunday aniqlanadiki, bunda riskning umumiy summasi 100% ga teng bolsin.

O'z kapitalini juda past malaka bilan boshqarilishi - tijorat banklarining bankrotligini keltirib chiqaruvchi eng keng tarqalgan sabablardan biri deb hisoblaymiz. Bankning moliyaviy ahvolini tuzatish va uning iqtisodiy barqarorligini yaxshilash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

1. Bank sarmoyadorlarini imkoniyatlarini ko'rib chiqish va yil oxiriga qadar bankning ustav kapitalini e'lon qilingan miqdorga yyetkazishni taminlash.
2. Muddati o'tgan qarzlarni qaytarish uchun tegishli tadbir asosida choralar ko'rish va kaytishi mavhum bo'Mgan kreditlar uchun zahiralarni belgilangan me yorga yetkazilishini taminlash.
3. Bankning aktivlarini daromad keltirmaydigan qismini kamaytirish va o'z navbatida daromadlik imkoniyatini oshirish uchun aktiv mablag'lami asosan tavakkalchilik darajasi kam bo'lgan DKK bozoriga yo'naltirish.
4. Bank bo'Mimlari va binolarini ko'rish bo'yicha amalga oshirilgan 290,5 mln sumlik kapital xarajatlarni bankning no-rentabel bo'limlarining bino va inshootlarini, bankning asosiy faoliyatida muhim bo'lmagan vositalarni sotish orqali qoplash.
5. Bank ssudalari bo'yicha muddati o'tgan foizlarni to'liq qaytarib olib, shu summani bankning muddatsiz depozitlardagi majburiyatlarga ishlatish uchun bankning vakillik varaqasida saqlab turish.
6. Bank mamuriyatiga, transportga, ish haqi va shu bilan birgalikda unga tenglashtirilgan xarajatlarni bank daromadligiga bog'liq ravishda hisoblash.
7. Bankning aktivlarini marketing tadqiqotlariga bog'liq ravishda taqsimlashni yo'lga qo'yish. Xulosa qilib shuni ko'rsatishimiz mumkinki, banklarning bankrotlikka

uchrash quyidagi eng asosiy holatlarda ro'y berishi mumkin: ssudalarning qaytmasligi va boshqa aktivlar qiymatining yo'qotilishi, likvid mablag'larning minimum darajadaliigi va asosiy faoliyatdan ko'riladigan zararlar shuningdek, ushbu zararlarni omonatchilar va mijozlar mablag'lari hisobidan qoplash. Bank likvidlikning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda likvidliktivlarga zarur miqdorini belgilab olishlari shart. Mazkur omillarga quyidagilar kiradi:

- 1) omonatchilarning ko'payishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'larga ega bo'lish yoki ularni yo'qotish bank jalb qilingan mablag'lar bo'yicha majburiyatlarni yaqin muddatlarda bajarishi lozim, bu omonatlar va boshqa passivlarning muddatlari bilan bog'liq, hamda bankda qoladigan depozitlar miqdorini (asosiy deponentlar) hisob varaqdan olinadigan yoki darhol to'lanadigan depozitlar va boshqa passivlar bilan qiyoslangan holda tahlil qilish kerak;
- 2) omonatlar summasining o'sishi yoki qisqarishiga muvofiq majburiy zahiralar me'yoriy miqdorining ko'payishi yoki kamayishi ham likvidlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.
- 3) ssudalar va investitsiyalar summasining oshishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'lar oqib kelishining ko'payishi yoki pasayishi ushbu omilning ta'siri iboratki, ssudalar va investitsiyalar miqdoridir har bir oshishi likvidliktivlar ulushini kamaytiradi, chunki investitsiyalar uzoq muddatga asoslangan.

8.5. O'zbekiston Respublikasining hozirgi sharoitida tijorat banklari ishonchligini baholash va tahlili

Respublikamizda tijorat banklari likvidligi va to'lov qobiliyatini boshqarishning asosiy usuli ular tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'zlashtirgan iqtisodiy me'yorga rioya etishi hisoblanadi. Likvidlikni sifatli baholash, bankning moliyaviy ahvolini tahlil va nazorat qilish uchun koefitsentlar uslubidan foydalaniladi. Dastlabki ikki koefitsent Markaziy bank talablari bajarilishini nazorat qilish uchun qolgan 4 tasi likvidlik bilan bog'liq ahvolning yaralishini tahlil etish uchun hisob-kitob qilinadi.

1. Naqd pul zahiralariga doir talablarga rioya qilish koefitsenti. Bazi bitimi maxrajda likvidlikning zarur darajasini, sur'atda esa bankning muayyan sanasidagi naqd pul zahiralarini ko'rsatishni taklif etadi.
2. Likvid aktivlarga doir talablarga rioya qilish koefitsenti. Uning maxrajida likvidlikning talab etiladigan darajasini qo'yish, surat esa likvidlik aktivlarning muayyan sanadagi amaliy miqdorini ko'rsatish zarur.
3. Kreditlar-depozitlar. Mazkur koefitsent likvidlik bilan bog'liq ishlarning ahvolini ko'rsatadi va uning kichik qiymati likvidlik yetarli darajada ekanligidan dalolat beradi:

Aylanma mablag'lar-aktivlar;

Aylanma mablag'lar-depozitlar;

Aylanma mablag'lar-depozitlardan qarz mablag'lari. Likvid koefitsentlari tahlil maqsadiga ko'ra farqlanishi mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda likvidlikning quyidagi umumiy formulasi beriladi: Likvidlik = Likvid aktivlar / jalb etilgan aktivlar Ushbu

koefTitsentni muddatlar bo'yicha bo'lib chiqish mumkin, masalan, qisqa muddatli likvidlik koefTitsenti (KMK) va o'rta muddatli likvidlik koefTitsenti (UMK) $KMK = \text{kassa nostro hisob varaqlari bo'yicha qoldiqlar (DKMO)} / \text{joriy va jamg'rma hisob varaqlaridan qisqa muddatli depozitlar}$ $UMK = (\text{qoplash muddati 1-5 yilgacha bo'lgan qimmatli qog'ozlar va ssudalar}) / (\text{qoplash muddati 1-5 yilgacha bo'lgan depozitlar va zayomlar})$ Bank likvidligi quyidagilar qoplanishi lozim:

-depozitlarning olinishi;

-aktivlar va majburiyatlarni qoplash muddatlari o'rtasidagi farqiar;

-pul bozorining o'zgarishlari;

-rejalashtirilmagan xarajatlar; Har bir aktiv va majburiyat uchun eng kichik muddat belgilanib, shu muddat ichida qoplanishi lozim.

Qisqacha xulosalar

To'lig'icha bank likvidligi deganda likvid aktivlarini sotish, pul mablag'larini Markaziy bankdan sotib olish va aksiyalar, obligasiyalar, depozit va omonat sertifikatlari hamda boshqa qarz instmmentlarini emissiyasini amalga oshirish imkoniyatlari nazarda tutiladi. To'lov qobiliyati - bu binmuncha kengroq bo'lib u faqatgina aktivlarni tezda

pulga aylantirish imkoniyatlarini emas, balki tijorat bankining o'z kreditorlari - omonatchilar, banklar va davlat oldidagi kredit va boshqa pul xarakteridagi operatsiyalaridan kelib chiqadigan o'z to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida va to'lig'icha bajarish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tijorat banki balansi likvidligi va to'lov qobiliyati tavsifi va baholash ko'rsatgichlari
2. Tijorat banklari likvidligi va to'lov qobiliyatini tartibga solishda xorij tajribasi.
3. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari to'lov qobiliyatini boshqarish muammolari
4. Bank faoliyatini tartibga solishning pul-kredit usullarining tahlili
5. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidligi va to'lov qobiliyatini tartibda solish.
6. Banklarning likvidlik risklar va ularni boshqarish
7. Bank likvidligi qoplanish yo'llari
8. Tijorat banklarining to'lov qobiliyati va likvidligini ko'paytirish yo'llari
9. Horijiy mamlakatlarning likvidlig ko'rsatgichlari
10. O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklarining to'lov qobiliyati va likvidligini ko'paytirishda xorij tajribasi

Asosiy adabiyotlar

1. Ефимова М.Р. Финансово-экономические расчёты. Пособие для менеджеров: Учеб. Пос. -М.: ИНФРА-М, 2004.
2. Лаврушин О.И. и др. "Банковское дело". М. Ф и С. 2003.
3. Панова Л. Ликвидность и платежеспособность коммерческих банков. -М.: ФиС. 2002.
4. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг меъёрий хужжатлари тўплами. -Т.: 2003.
5. Соколов Ю.А., Амасова Н.А. Система страхования банковских рисков. Науч изд. -М.: ООО изд Элит, 2003.
6. Сухова Л.Ф. Практикум по анализу финансового состояния и оценки кредитоспособности банка-заёмщика. -М.: Финансы и статистика, 2003.
7. Шапкии А.С. Экономические и финансовые риски.-Изд. 3-е-М.: Дашков и К, 2004.

MAVZU: BANK FOYDASI, BANK RENTABELLIGI

Reja:

9.1. Bank foydasi va manbalari

9.2. Bank foydasini boshqarish xususiyatiari

9.1. Bank foydasi va manbalari

Tijorat banki daromadi manbalari tuzilishi. Daromad manbai - bizneslaming yigindisidan olinadi :Ssuda biznesi, Diskont

- biznesi, saqlash bilan bog'liq biznes. qimmatbaho qog'ozlar bilan bog'liq biznes.

Bank kafolati faoliyati bilan bog'liq biznes jamg'armalar jalb qilish va jamg'armachilik topshirig'iga ko'ra bajaradigan operatsiyalari

- mukofot

- raqam berish;

- raqamni yuritish.

- katiy mukofot (pulda);

- muomaladan mukofot (foйда);

- raqamdan kuchirma berish;

- raqamni ochish;

- raqamdan vaqt pul berish (hisob-kitob xarakteri asosida).

Korrespondent munosabatlardan keladigan daromad. Bankning noan'anaviy xizmatlaridan keladigan daromadlar - lizing, axborot, maslahat, klientlar, o'qitish va boshqalar. Lizing to'lovlari, foiz to'lovlari, mukofot xizmat uchun. Balans qiymatining bozor bahosini ochishi natijasida olinadigan daromad. Shunday qilib bank daromadi bo'linadi. Foizli daromad Mukofot shaklidagi daromad. boshqa daromad (olib sotarlik xizmati) qimmatbaho qog'ozlar qayta baholash, jarima olish diskont daromadi. Foiz daromadi mukofot bilan qo'shilib ketishi mumkin. Kredit to'lovi va mukofot obligatsiyani tarqatish va maslahat xizmatlari uchun mukofot. Maslahatga olinadigan daromad kelishuv bajarilgandan so'ng olinadi. Ssuda foizi - qiymatni vaqtinchalik berish asosida olinadigan baho. Barcha turdagi ssudalar, veksellami hisobga olish, oddiy va murakkab foizlar. Komissiya - bankovskie operatsiya bo'yicha mukofot komissiya - topshiriq - lotincha. Kerakli foyda va xizmatlar tannarxidan foyda olish. Daromadlar Kreditni berishdan olinadigan foiz. Qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalardan olinadigan Chet el valutasiga va boshqa valuta qiymatliklari daromadi.

Olingan dividendlar. Banklarga tashkilotlaridan olinadigan daromad jarima, neustoykalar Boshqa daromad. bank faoliyatini ta'minlash bank personaliga tolash. soliq to'Mash maxsus rezervlar boshqalar. Operatsion xarajat Depozit va kredit operatsiyalariga, qimmatli qog'ozlarga foiz to'Mash. qimmatli qog'ozlarga bog'liq operatsiyalarga, chet el valutasiga kassa hisob operatsiyalariga, Lnkossatsiyaga qilingan xarajat. boshqa operatsion xarajat veksellar bo'yicha diskont xarajat, qimmatli

qog'ozlar baholashdagi salbiy qoldiq, chet el valutasidagi raqamlarning salbiy qoldig'i, qimmatli qog'ozlarga qimmatbaho qog'ozlarga xarajatlar. Operatsion xarajat - bank operatsiyalari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lgan xarajat.

Bank faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq xarajat - ammortizatsiya (asosiy vositalar va moddiy aktivlar), ijara, uskunalari remonti, konselariya, avtotransport, maxsus kiyim, bino eksperti. Bank personalini boshqarish - oylik, mukofot va boshqalar.

Soliq - mulk soligi, yer, avtotransport, yo'1 va boshqa soliqlar – bank operatsiyalari tannarxiga quyiladigan soliqlar. Zararlarni qoplash, qimmatbaho qog'ozlarni qoplash, aktiv operatsiyalar va debitor qarzlarni qoplash. Boshqa xarajatlar - kadrlar tayyorlash, kompensatsiya, auditor, sud, publikatsiya hisobot bilan bog'liq xarajatlar.

9.2. Bank foydasini boshqarish xususiyati

Kredit depozitlarini joylashtirish (raqamlar va boshqa banklar). Boshqa mijozlarga berilgan kreditlar. Mijozlardan asosiy vositalarni ijaraga berish, kelgusida sotib olish huquqi bilan qat'iy belgilangan daromadli qog'ozlar. Boshqa manbalar Jami foyda To'langan foizlar. Jalb qilingan mablag'lar, zayom va depozitlar. Mijozlardan jalb qilingan mablag'lar, zayom va depozitlar Chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar. Boshqa operatsiyalar. Jami to'langan foizlar. Sof foyda (bank.daromadi). Mukofot daromadi. Mukofot xarajat. Sof mukofot daromad. Boshqa operatsion daromad. Chet el valutasini, boshqa valuta qiymatliklari kurs farqidan olingan daromadlar. qimmatbaho toshlar, metallar. qayta baholash, qimmatbaho qog'ozlarni qayta baholashdagi ijobiy qoldiq.

Divident ko'rinishidagi daromad. Jami baho joriy daromad.

Jami operatsion daromad (str 17-str18-strl 9-str 20)

Joriy daromad (str 12-str 15-str 21)

Mehnat haqi to'lovlari Ekspuluatatsiya xarajatlari Xorijiy valuta va boshqa valuta qiymatliklari bilan qilinadigan operatsiyalarning kursn farqlari qimmatbaho metallar va qog'ozlarni sotish natijasida paydo bo'ladigan salbiy qoldiq.

Qisqa xulosalar

Daromad manbai - bizneslarning yigindisidan olinadi: Ssuda biznesi, Diskont-biznesi, saqlash bilan bog'liq biznes. qimmatbaho qog'ozlar bilan bog'liq biznes. Bank kafolati faoliyati bilan bog'liq biznesjamg'armalarjalb qilish va jamg'annachilik topshirig'iga ko'ra bajaradigan operatsiyalari. Operatsion xarajat - bank operatsiyalari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lgan xarajat.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tijorat banklari foydasi manbalari
2. Bank xarajatlari tuzilishi
3. Bank rentabeHigini boshqarish yo'llari.
4. Banklarning foydalilik va rentabellik tushunchalari.
5. Bank foydasining asosiy manbalari.
6. Tijorat banki foydasi boshqarish2.
7. Banklarning hisob kitob operatsiyalari hisobiga foyda olish.
8. Tijorat banklari foydaliligi va rentabelligini boshqarish
9. sharoitida bank balansi rentabelligi ko'rsatgichlari
10. O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklarining foydasi va rentabelligini oshirishda xorij tajribasi

Asosiy adabiyotlar

1. Ефимова М.Р. Финансово-экономические расчёты. Пособие для менеджеров: Учеб. Пос. -М.: ИНФРА-М, 2004.
2. Лаврушин О.И. и др. "Банковское дело". -М.: Ф и С. 2003.
3. Соколов Ю.А., Амасова Н.А. Система страхования банковских рисков. Науч изд. -М.: ООО изд Элит, 2003.
4. Сухова Л.Ф. Практикум по анализу финансового состояния и оценки кредитоспособности банка-заемщика. -М.: Финансы и статистика, 2003.
5. Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. -Изд. 3-с-М.: Дашков и К, 2004.
6. <http://www.bnnkofendland.co.uk/rnarkct/money/index.htm>
7. <http://www.boj.or.jp/cn/sirvo.htm> 8. www.federalreserve.gov

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezidentlarning farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va I.A. Karimov asarlari
1. Ўзбекистон Республикасининг "Банклар ва банк фаолияти тўғрисида" қонуни. 1996 йил 25 апрел.
 2. Ўзбекистон Республикасининг "Маркази!! банки тугрисида" қонуни. 1996 йил 13 январ.
 3. Ўзбекистон Республикасининг "Фуқароларнинг банклардаги омонатларини химоялаш кафолатлари тўғрисида"ги Қонуни. 2002 йил 4 апрел.
 4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. "Бозор ислохотларини чуқурлаштириш ва иқтисодий тизимни янада эркинлаштириш соҳасидаги устувор йўналишлар амалга оширилишини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида". -Т.: 2005 йил 14 июн.
 5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. "Тадбиркорлик субъектларини ҳуқуқий химоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида". -Т.: 2005 йил 14 июнь.
 6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. "Тадбиркорлик субъектлари томонидан тақдир этиладиган ҳисобот тизимини такомиллаштириш ва уни нозоний талаб этиганлик учун жавобгарликни кучайтириш тўғрисида". -Т.: 2005 йил 14 июнь.
 7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Пул-кредит кўрсаткичларни тартибга солиш механизминини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори. 2003 йил 4 феврал.
 8. Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамасининг "Пул маблағларини банкдан ташқари муомаласини янада қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги. Қарори. 2002 йил 5 август.
 9. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI-аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид. барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: "Ўзбекистон". 1997.

II. Mahalliy darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlari.

1. Абдуллаев Ё, Абдуллаева Ш. Банк иши. -Т.: 2003.
2. Тожиев Р., Жумаева С. Халқаро молия. Ўқув қўлланмаси. ТДИУ. 2005.
3. Тоймухамсодов И.Р. Байк иши. Маъруза матни. ТДИУ., 2005.
4. Ўзбекистон иқтисодий либераллаштириш йилларида. 4-қисм. Молия ва банк тизимидаги ислохотлар самараси. А. Бекмуратов. Р. Тожиев, Х.Қурбонов. М. Алимардонов. -Т.: ТДИУ. 2005.

шакллантириш ҳамда банклараро кредит бюросига ва тижорат банкларига кредит ахборотларни такдим этиш тартиби тугрисида Низом. 2004 йил 21 май.

IX. Pedagogik va axborot texnologiyalar bo'yicha o'quv va uslubiy qo'lanmalar

1. Голиш Л.В. Введение в технологизацию обучения в экономическом н'зе: Книга 2. Технологии обучения в экономическом образовании. -Т.: ТГЭУ, 2005.

2. Илгор педагогик технологиялар асосида даре ўтиш йўллари буйича: Ўқув услубий ишланмалар тўплами. -Т.: ТДИУ, 2005.

X. Statistik to'plamlar, internet yangilidari, web saytlar

1. Ўзбекистон Республикасининг 2005 йил январ-март статистик ахборотномаси.

2. Ўзбекистон иқтисодиёти. Таъжлий шарҳ. 2004 йил. №7

3. Экономика Узбекистана. Аналитический обзор за 2004-2005.

4. <http://www.bankofendland.co.Lik/market/money/index.htm>

5. <http://www.bankofendland.co.uk/coreuproses.htm>

6. <http://www.boj.or.jp./en/siryu.htm>

7. www.federalreserve.gov

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
“BANK ISHI” FANINING PREDMETI VA MAZMUNI	
1.1. Banklarning kelib chiqishi va mohiyati	4
1.2. Banklarning funksiyalari.....	4
1.3. Kredit tizimi, uning tarkibiy qismlari.....	6
1.4. Markaziy bank, ularning vazifalari va funktsiyasi.....	9
Qisqa xulosalar.....	10
Nazorat va muhokama uchun savollar	11
Asosiy adabiyotlar.....	11
MAVZU: BANK TIZIMI VA BANK	
TURLARI.....	12
2.1. Bank tizimi. Bank turiari ularning funksional yo'nalishi bo'yicha klassifikatsiyasi.....	12
2.2. Davlatni pul-kredit siyosati va banklarni amalga oshirishdagi roli.....	13
2.3. Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatini tartibga solishdagi o'rni.....	15
2.4. Bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish muammolari.....	18
Qisqa xulosalar.....	21
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	22
Asosiy adabiyotlar.....	22
MAVZU: BANK RESURSLARINI TASHKIL QILISH, BANKLARNING PASSIV OPERATSIYALARI, BANKLARNING KREDIT POTENSIALI.....	22
3.1. Bank resurslarini shakllantirish va foydalanish tartibi.....	23
3.2. Bank kreditpotensialini manbalarining tuzilishi va ularning tavsifi.....	24
3.3. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining mablag ta'minoti.....	27
3.4. Banklarning depozit operatsiyalari.....	29
3.5. Banklarning nodepozit mablag'lari manbalari.....	31
3.6. Depozit sertifikatlari bozori va uni O'zbekistonda rivojlanish istiqbollari.....	33
Qisqa xulosalar.....	34
Nazorat va muhokama uchun savollar	35
Asosiy adabiyotlar.....	35
MAVZU: MAVSUMIY XARAKTERGA EGA BO'LGAN TURLI MULKKA ASSOSSLANGAN TARMOQLARNI KREDITLASH.....	36
4.1. Mavsumiy xarakterga ishlab chiqarish tarmoqlari kapitalining aylanish xususiyatlari	36
4.2. Qishloq xo'jaligiga kredit berish tartibi.....	37
4.3. O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari va bunda banklarning o'rni.....	40
Qisqa xulosalar.....	42
Nazorat va muhokama uchun savollar	42
Asosiy adabiyotlar.....	42

MAVZU: MOLIYAVIY BOZOR, BANKLARINING QIMMATBAHO QOG'OZLAR BO'YICHA

OPERATSIYALARI	43
5.1.Moliyaviy bozor tushunchasi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari.....	43
5.2.Banklarni investitsion faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish.....	44
5.3.Bankning qimmatbaho qog'ozlar bilan passiv operatsiyasi.....	47
5.4.Bankning qimmatbaho qog'ozlar bilan aktiv operatsiyasi.....	48
5.5.Banklarning investitsion siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....	49
Qisqa xulosalar.....	51
Nazorat va muhokama uchun savollar	51
Asosiy adabiyotlar.....	51
MAVZU: TIJORAT BANKLARINING XALQARO-VALYUTA VA HISOB-KREDIT OPERATSIYALARI	52

6.1. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning o'rnini.....	52
6.2.O'zbekiston Respublikasida valuta bozori faoliyati va tartibga solish.....	52
6.3.Tijorat banklarining valuta operatsiyalari.....	54
6.4.Xalqaro kreditlash tizimi.....	55
6.5.Xalqaro hisob-kitoblar va ularni asosiy shakllari.....	56
6.6. Xalqaro moliya bozorida banklar raqobatligini oshirish muammolari.....	58
Qisqa xulosalar.....	60
Nazorat va muhokama uchun savollar	60
Asosiy adabiyotlar.....	60

MAVZU: BANK TAVAKKALCHILIGI VA UNI BOSHQARISH.....

7.1. Bank tavakkalchiligi klassifikatsiyasi va tavsifi.....	61
7.2.Kredit riski va unga ta'sir qiluvchi omillar.....	62
7.3.Bank balansi tahlili va uni bank risklarini pasaytirishga ta'siri.....	64
7.4.O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida risklarni boshqarish muammolari va istiqbollari.....	65
7.5. Valyuta risklari va ularni xedjlash.....	66
Qisqa xulosalar.....	67
Nazorat va muhokama uchun savollar	67
Asosiy adabiyotlar.....	67

MAVZU: BANK LIKVIDLIGI VA UNI TA'MINLASH OMILLARI.....

8.1.Bank balansi likvidligi va to'lov qobiliyati tushunchalari.....	68
8.2.Tijorat banki likvidligini boshqarish tahlili.....	69
8.3.Chet el mamlakatlari tijorat banklari to'lov qobiliyati va likvidligini tartibga solish tajribasi.....	71
8.4. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida bank to'lov qobiliyatini tartibga solish muammolari.....	73
8.5.O'zbekiston Respublikasining hozirgi sharoitida tijorat banklari ishonchligini baholash va tahlili.....	74
Qisqa xulosalar.....	75
Nazorat va muhokama uchun savollar	75

Asosiy adabiyotlar.....	76
MAVZU: BANK FOYDASI, BANK	
RENTABELLIGI.....	77
9.1. Bank foydasi va manbalari.....	77
9.2. Bank foydasini boshqarish xususiyatiari.....	78
Qisqa xulosalar.....	79
Nazorat va muhokama uchun savollar	79
Asosiy adabiyotlar.....	79
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	80
MUNDARIJA.....	84